

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

2026

Rasulov Z.I.

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY
YO’NALISHLARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili

Buxoro-2026

Modulning o`quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi va o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Z.I.Rasulov - filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: D.I.Xodjaeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.R.Qurbonova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**O`quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2025yil "30" dekabrdagi 5-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR	16
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	40
V. GLOSSARIY	80
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	81

I. ISHCHI Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni **Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari** bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

DASTUR

Kirish

“**Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari**” moduli amaliy tilshunoslik va til ta’limi; til o‘rganish strategiyalari, tillarni o‘qitish usullarini o‘rganish, til

tovushlari, grammatikani o'qitish, leksiko-grammatika va korpus tilshunosligi, suhbat tahlili, pragmatika, matn, kontekst va sxema; tillarni o'rganish va o'zaro so'zlashish; tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi; lingvistik maktablar va ular tomonidan yaratilgan ta'limotlar mohiyati; grammatik kategoriyalar, grammatikaga oid zamonaviy ta'limotlar; semantika, semantik kategoriyalar, lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish; lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformatsion tadqiqot metodlar masalalarini qamraydi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari” modulining maqsadi zamonaviy lingvistikaning metodologik printsiplari, dolzarb muammolari va asosiy tushunchalari bo'yicha mutaxassislik profiliga mos ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish, zamonaviy lingvistik tahlil metodlarini egallash hamda zamonaviy lingvistik yo'nalishlari sohasida ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

“Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari” modulining vazifalari zamonaviy lingvistikaning asosiy muammolari bo'yicha tayanch ilmiy bilimlarni berish, zamonaviy lingvistikada foydalaniladigan zamonaviy tahlil metodlari, til va madaniyatlararo muloqot, til va nutq o'zaro munosabati hamda zamonaviy lingvistik yo'nalishlar sohasida ilmiy tadqiqot olib borishga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- chet tili bo'yicha kommunikativ kompetentligini (lingvistik, kognitiv, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo muloqot va pragmalingvistika, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy) ;
- ☐ til va tafakkur, til va ong, til va madaniyat, til va nutq o'zaro munosabatlarini, insonning tilda namoyon bo'luvchi kognitiv faoliyatini har taraflama o'rganishni;
- ☐ zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining metodologik printsiplari, asosiy

tushunchalarini, borliq, dunyo va voqelikni bilish va uni til orqali ongli idrok etish va kategoriyalash;

□ tilda turli xil ekstralingvistik va madaniy xarakterga ega bilim tuzilmalarining aks etilishi, turli elatlar vakillari muloqoti jarayonida ekstralingvistik omillarning egallashi va takomillashtirishni;

□ zamonaviy lingvistik yo'nalishlari nuqtai nazaridan til –madaniyatlararo muloqot vositasi, bilim olish va saqlash, madaniyatni o'zida aks etish, uni amalda qo'llash va uzatish manbai va nihoyat, tafakkurni va insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etishni;

□ til orqali inson borliq va voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, to'plash, qayta ishlash, tartibga solish va idrok etishni;

□ zamonaviy lingvistik yo'nalishlarda alohida ahamiyat kasb etgan lisoniy faoliyatining har bir turi modul sifatida belgilangan (kognitiv lingvistika, qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika) modullarni egallash jarayoni integrallashgan holda olib borishni ***bilishi kerak***;

zamonaviy til hodisalarini fonetik, so'z yasalishi, grammatik va leksik darajalarda tahlil qilish;

□ zamonaviy lingvistik ta'limotlarda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning asosiy omillarini sharhlash kabi ***ko'nikmalarga ega*** bo'lishi talab etiladi.

□ morfologiya va sintaksisni o'rganishda matn (MSB) ustida ishlash;

□ matnning kompleks tahlilini amalga oshirish;

□ matn turlari (tasvirlash, hikoya qilish, fikrlash) ustida ishlash;

□ badiiy matnni tahlil qilish;

□ semiotika va variologiya asoslarini o'zlashtirish ***malakalariga ega*** bo'lishi zarur.

- an'anaviy va zamonaviy tahlil metodlari asosida lisoniy va madaniy tuzilmalarning o'zaro munosabatini aniqlash va tahlil o'tkazish ***kompetensiyalariga ega*** bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Chet tili o'qitish metodikasining zamonaviy tendensiyalari” o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda ingliz tili o'qituvchilarini xorijiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va interaktiv uslublar bilan tanishtiradi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Mazkur modul oliy ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchilarini eng so'nggi zamonaviy yondashuvlar va ilg'or amaliy usullardan unumli foydalangan holda sifatli ta'lim berishlarida muhim hissa qo'shadi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Kognitiv tilshunoslik. Kontsept – kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida.	2	2	2	-	-	-
2.	Lingvokulturologiya. Lingvokulturologiya fan sifatida va uning o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari. Til – madaniyat masalasining tilshunoslikdagi muammosi.	2	2	2	-	-	-
3.	Konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari.	2	2	2	-	-	-
4.	Olam manzarasi. Olamning konseptual manzarasi, olamning lisoniy manzarasining tadqiqot ob'ekti.	2	2	-	2	-	-
5.	Dinamik lingvistika. Statik lingvistika. Sinxron lingvistika. Diachron lingvistika. Intralingvistika. Ekstralingvistika.	2	2	-	2	-	-

	Paralingvistika.						
6.	Psixolingvistika. Sotsiolingvistika. Matematik lingvistika. Kompyuter lingvistikasi. Pragmalingvistika.	2	2	-	2	-	-
7.	Korpus tilshunosligi. Zamonaviy tilshunoslikda terminologiyaning o'rni.	2	2	-	2	-	-
	JAMI:	14	14	6	8	-	-

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Kognitiv tilshunoslik.

Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishi sifatida. Kognitiv lingvistika doirasida chet el va O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari. Konsept tushunchasi. Konsept – kontseptual va tafakkur birligi sifatida. Konseptni tadqiq etishda lingvokognitiv va lingvokul'turologik yondashuvlar. Konsept va ma'no. Konsept va tushuncha. Kognitiv lingvistikada ma'no interpretatsiyasi. Konseptlar va ularni tasniflash printsiplari. Konsept bilimlar tuzilmasi sifatida. Konsept strukturasi.

2-mavzu: Lingvokulturologiya.

Lingvokulturologiya fan sifatida va uning o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari. Til – madaniyat masalasining tilshunoslikdagi muammosi.

3-mavzu. Kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari.

Kognitsiya tushunchasi. Olamni kognitiv idrok etish masalasi. Kontseptuallashtirish (ongda kontseptlar xosil qilish) tushunchasi. Kontseptual tuzilmalar va kontseptual sistema tushunchalari. Kategoriya va kategoriyalashtirish tushunchasi. Kategoriyalashtirish kognitiv faoliyat sifatida. Kategoriyalashtirish va idellashgan kognitiv modellar. “Oilaviy mutanosiblik” kontseptsiyasi. E.Roshning prototiplar nazariyasi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Olam manzarasi.

Olamning konseptual manzarasi, olamning lisoniy manzarasining tadqiqot ob'ekti. Концептуал ва лисоний дунё тасвири тушунчалари ва уларнинг ўзаро муносабатлари.

2-mavzu: Lingvistika yo'nalishlari

Dinamik lingvistika. Statik lingvistika. Sinxron lingvistika. Diaxron lingvistika. Intralingvistika. Ekstralingvistika. Paralingvistika.

3-mavzu: Lingvistika yo'nalishlari

Psixolingvistika. Sotsiolingvistika. Matematik lingvistika. Kompyuter lingvistikasi. Pragmalingvistika.

4-mavzu: Korpus tilshunosligi.

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiyaning o'rni.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

“Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari” moduli doirasida amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modul doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli modulga mos bo'lgan ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

ASSESSMENT

The measurement of the ability of a person, the quality or success of a teaching course. Assessment may be by test, interview, questionnaire, observation and so

on.

BAHOLASH metodi

Shaxsning qobiliyatini, o'qitish kursining sifati yoki muvaffaqiyatini o'lchash va baxolash demakdir. Shuningdek, baxolash test, suxbat o'tkazish, savol javob, kuzatish va xokazolar orqali amalga oshirish mumkin.

AUTHENTIC TASK

An authentic task is a task that native speakers of a language would do in everyday life. When learners do an authentic task they are doing something that puts real communicative demands on them. A task which replicates or resembles a real-life task, e.g. scanning an article for particular information; this may be contrasted with a task which is specifically designed for, and only relevant in, the classroom.

AUTENTIK VAZIFA

Mahalliy tilda so'zlashuvchi kishi kundalik xayotida bajaradigan doimiy vazifalar bo'lib, til o'rganuvchi ana shunday vaziyatlardan haqiqiy so'zlashuvda foydalansa, samaraliroq bo'ladi. Dars jarayonida tilni o'rganishda real hayotda uchraydigan voqea-xodisalar ifoda etilgan matnlarni qo'llash foydalidir. Autentik materiallar darsliklarda berilmaydi.

BRAINSTORMING

(in language teaching) a group activity in which learners have a free and relatively unstructured discussion on an assigned topic as a way of generating ideas. Brainstorming often serves as preparation for another activity.

AQLIY HUJUM uslubi

Bevosita jamoa bo'lib “fikrlar xujumi” ni olib borish demakdir. Bu uslubdan maqsad, mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

CASE STUDY

It is about a person, group, or situation that has been studied over time. The case study method often involves simply observing what happens to, or reconstructing ‘the case history’ of a single participant or group of individuals (such as a school

class or a specific social group.

“KEYS-STADI”uslubi

Bu uslub aniq vaziyat, hodisaga asoslangan o'qitish uslubi hisoblanadi. Shuningdek, vaziyat bilan tanishish, axborotlarni umumlashtirish, axborot tahlili va har bir yechimning afzal va zaif jihatlarini belgilash demakdir.

CLUSTER

Is the task of grouping a set of objects in such a way that objects in the same group (called a **cluster**) are more similar (in some sense or another) to each other than to those in other groups (clusters).

TARMOQLAR uslubi

Fikrlarning tarmoqlanishi-pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishiga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'lagan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi.

DISCUSSION METHOD

It demands that students come to class well prepared. Compelling them to think out their arguments in advance and to answer their peers' questions and counter arguments, it sharpens their powers of reason, analysis and articulation. It thus provides them with fundamental skills necessary for success in any discipline or profession.

BAHS-MUNOZARA

Usulida guruh a'zolari biror muammoni yechish maqsadida o'z g'oyalarini og'zaki taklif etadilar. Usuldan samarali foydalanish uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Bu usul kattalar ta'limida ko'proq samara beradi.

ICE-BREAKER

An activity to make learners feel less nervous or inhibited when they first meet.

“MUZYORAR”metodi

Qizdiruvchi, faoliyatga jalb qiluvchi mashq. Talabalarning o'zaro tanishishi va ishchi muhit yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bu metodxonadagi ruhiy taranglikni

yengish, guruhning shakllanish jarayonini tezlatish, muloqot va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, samimiylik va hamkorlik muhitini yaratishga yordam beradi.

INFORMATION GAP ACTIVITY

an activity in which a pair or two groups of students hold different information, or where one partner knows something that the other doesn't. This gives a real purpose to a communication activity. An information gap activity is an activity where learners are missing the information they need to complete a task and need to talk to each other to find it.

AXBOROT ALMASHISH METODI

Bu uslub shundayki, talabalar juft yoki ikki guruh bo'lib turli xil axborotga ega bo'lishadi, yoxud biri bilgan axborotni ikkinchi talaba bilmaydi. Bu esa suxbatlashish uchun xaqiqiy maqsad paydo qiladi. Bu uslub asosan chet tilida gapirish, muloqotga kirish uchun yordam beradi. Shuningdek, rasmlardan ham foydalanish mumkin.

INTERACTION PATTERN

Mode of work (individual work, pair work, group work) used in learning or teaching.

INTERFAOLLIK

O'zaro harakat qilmoq ma'nosini beradi. O'zaro harakat turlari: O'qituvchi-talaba; talaba-talaba; o'qituvchi-talabalar; talalar-talabalar; talabalar-o'qituvchi.

JIG-SAW ACTIVITY

A type of co-operative activity in which each member of a group has a piece of information needed to complete a group task. Often used in reading work when each learner or group of learners reads and understands a part of a text, then takes part in pooling information to establish the meaning or message of the whole text.

“ARRA” METODI

Bu usulda asosan guruh bo'lib ishlanadi. Har bir guruh a'zosining qo'lga matnning bir bo'lagi beriladi, so'ngra mazmunini o'qib bilib olgandan so'ng, barcha qatnashchilar tomonidan butun matn tuziladi. Bunday metod o'qitishni o'rganishda

qo'llaniladi.

MULTIPLE-CHOICE

In testing or teaching: a device in which the learner is presented with a question along with four or five possible answers from which one must be selected. Usually the first part of a multiple-choice item will be a question or incomplete sentence. This is known as the stem. The different possible answers are known as alternatives. The alternatives typically include one correct answer and several wrong answers or distracters.

KO'P TARMOQLI TANLOV TESTLARI

Bu metod asosan, testda qo'llaniladi. O'rganuvchi uchun tuziladigan testlardagi savolda 4 yoki 5 ta javoblar beriladi. Bitta berilgan savoldagi 4 yoki 5 ta javobining bittasi to'g'ri bo'ladi, qolganlari esa o'xshash javoblar tariqasida beriladi.

PRESENTATION

The way which something is offered, shown or explained others. A formal monologue presents ideas, opinions or a business proposal.

TAQDIMOT

Axborot, nazariya yoki tamoyillarni talabalarga yetkazish maqsadida ekspert tomonidan o'tkaziladigan tadbir. U turli (ma'ruza, savol berish, munozara yuritish) shakllarda o'tkazilishi mumkin. Taqdimotning mazmuni uslub sifatida o'qituvchiga ko'proq bog'liq bo'ladi.

WARM-UP ACTIVITY

An activity used to orient learners to a new topic or area of focus in a lesson.

“CHIGILNI YOZISH”

Darsga berilgan yangi mavzuni yoritish va talabalarni mavzuga jalb qilish maqsadida qo'llanadigan uslublardan biridir.

TRUE-FALSE ACTIVITY

It is a strategy of teaching students, where a teacher allows students to compare two different historical perspectives to the same question. It allows students to see differing opinions to the same problem and go about doing history. It is designed to add inquiry into the teaching of history.

“TO'G'RI-NOTO'G'RI”

Talabalarni o'qitishda qo'llaniladigan shunday yondashuvki, unda u talabaga berilgan bitta savolni ikkita turli xil tomonini taqqoslashiga imkon yaratadi. Shuningdek, bu metod talabalarga bir xil muammoga turli xil berilgan fikrlarni ko'rib chiqish va tanlashga huquq beradi. O'qitish usulini yana takomillashtirish va mavzuni yoritishga yordam beradi.

GAP FILL ACTIVITY

A gap-fill is a practice exercise in which learners have to replace words missing from a text. These words are chosen and removed in order to practise a specific language point. Gap-fill exercises contrast with cloze texts, where words are removed at regular intervals, e.g. every five words.

NUQTALAR O'RNIGA QO'YISH

Bu usul asosan, talabalarni matn bilan ishlash jarayonida gaplarda berilgan nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yish uchun ishlatiladi. Bu esa til o'rganuvchi uchun tushirib qoldirilgan so'zlarni mukammal o'rganishlari uchun foydali. Bunday mashqlar ko'pincha yopiq matnlarda beriladi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Kognitiv tilshunoslik.

1. Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishi sifatida. Kognitiv lingvistika doirasida chet el va O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari.
2. Kontsept tushunchasi. Kontsept – kontseptual va tafakkur birligi sifatida. Kontseptni tadqiq etishda lingvokognitiv va lingvokul'turologik yondashuvlar.
3. Kontsept va ma'no. Kontsept va tushuncha. Kognitiv lingvistikada ma'no interpretatsiyasi. Kontseptlar va ularni tasniflash printsiplari.
4. Kontsept bilimlar tuzilmasi sifatida. Kontsept strukturasi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- **Kognitiv tilshunoslik** – tilni inson tafakkuri va bilish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganadigan yo'nalish.
- **Til va tafakkur** – inson tafakkuri til orqali qanday shakllanishi va ifodalanishi.
- **Olamning kognitiv manzarasi** – inson ongida dunyoning qanday tasvirlanishi.
- **Olamning lisoniy manzarasi** – dunyo haqidagi bilimlarning til vositasida ifodlangan shakli.
- **Kontsept (konsept)** – inson tafakkurida shakllangan, ma'no va madaniy mazmun bilan boyitilgan tushuncha.
- **Kontsept tizimi** – bir-biri bilan bog'langan kontseptlarning umumiy to'plami.
- **Kontseptual maydon** – ma'lum bir mavzuga oid kontseptlar to'plami.
- **Kategoriya** – tushunchalarni tartibga soluvchi ong strukturalari.
- **Kategoriyalashtirish** – insonning atrof-muhitni tafakkurda tartibga solish jarayoni.
- **Idrok (persepsiya)** – insonning atrof-muhitni bilish va tushunish jarayoni.

Хар бир фан тарихида юксалиш даври бўлганидек, инқироз босқичлари ҳам бўлиши муқаррар. Бундай ҳолатнинг юзага келиши ўз - ўзидан олимлардан ўрганилаётган объектга «янгича кўз» билан қарашни, олдингиларидан фарқ қиладиган нуқтаи назардан ёндашувни талаб қилади. Бинобарин, XX аср бошларида назарий физикада юзага келган инқироз узок вақт давом этди. Тадқиқотларда янгича усулларнинг тадбиқ этилиши натижасида тамоман янги йўналишлар, ўзга кўринишдаги назариялар пайдо бўлди. Назарий тилшуносликда худди шундай ҳолат ўтган асрнинг иккинчи ярмида туғилди. Тилшуносликдаги инқирознинг асосий сабаби ахборот технологияларининг ривожини билан боғлиқдир. Зеро, инсоннинг «сунъий

интеллект» тизимига оид воситалар билан мулоқоти тил тизими ва лисоний фаолият тадқиқига бутунлай янгича ёндашувни талаб қилади. Дарҳақиқат, айнан шу даврда тилшунослик фанининг турғунлашган ёки анъанавий услуб ва хулосалари кескин тараққий этаётган интеллектуал ахборот технологиялари амалиётида юзага келаётган саволларга жавоб бера олмаслиги маълум бўлди. Тил тизимини ва нутқий фаолият маҳсули бўлган матн курилишини шу пайтгача филологик нуқтаи назардан таҳлил қилиб келаётган бу фан доираси эндиликда идрок этиш, билиш, тушуниш, таҳлил қилиш фаолиятларига оид тушунча ва категориялар билан кенгайди. Натижада, тилшуносликнинг мантиқ, психология, билиш назарияси кабикогнитив фан соҳалари билан ҳамкорликка эҳтиёжи янада кучайди. Бу ҳамкорлик, бир томондан, тилшуносликни инсон тафаккур фаолияти муаммолари билан шуғулланувчи

когнитология фани тармоғига киритган бўлса, иккинчидан, тилшуносликнинг ўзини яна бир соҳа – когнитив лингвистика соҳаси билан бойитди. Аслида когнитологиянинг таянч нуқтаси бўлган тилшуносликнинг когнитив кўриниш олиши нима билан боғлиқ ва унинг тадқиқ объекти, мақсади, вазифалари нималардан иборат? Табиийки, барча йўналишдаги лингвистик тадқиқотларнинг ўрганиш объекти ягона – тил тизими ёки, аниқроғи, лисоний фаолият ва унинг маҳсули. Аммо уларнинг барчасида (систем-структур тилшунослик, психолингвистика, социолингвистика, матн тилшунослиги ва ҳ.к.) асосий эътибор тайёр маҳсулот – сўз, сўз бирикмаси, гап ва матн кабиларнинг тузилиши ва таркибини, маълум ҳолларда маъно хусусиятларини ўрганишга қаратилган. Тайёр маҳсулот таҳлили билан қизиқаётган бу соҳалар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик етарли даражада эмас. Бунинг устига, баъзи ҳолларда тадқиқотчилар орасида бирор бир лингвистик ҳодисанинг қайси соҳа объекти бўлиши ҳақида ёки умуман бу ҳодисалар қай даражада тил тизимига оид бўла олиши ҳақида мунозарали баҳс бормоқда. Асоссиз тортишувлар ва натижасиз муҳокамалар фанда қандай оқибатларга олиб келиши маълум.

Бу ҳатто тил тизими «аниқ ва ажратилган тадқиқот объекти бўла олмайди» (Н.Хомский) деган фикр туғилишига ҳам сабаб бўлиши мумкин. «Гап тил бирлигими ёки нутқ тизимига оидми?», шунингдек, «Анафора фақатгина матн таркибида юзага келадиган ҳодисами ёки уни гап грамматикаси ўрганилаётганда ҳам эътиборга олиш лозимми?» кабилидаги бефойда, назарий хатоликларга сабаб бўлувчи мунозаралар билан машғул бўлиш ўрнига юқорида айтилган соҳалар ўртасидаги туташ нуқталарни излаш лозим. Соҳалар ўртасидаги ҳамкорлик натижасида объектнинг, умуман, воқеликнинг янги қирраларини, илгари кўз илғамаган хусусиятларини сезиш мумкин. Бу эса, фанда мажмуавий муаммо ва вазифаларнинг юзага келишига сабаб бўлади.

Мажмуавий муаммо соҳалараро ёндашувни талаб қилади. Файласуфларнинг эътироф этишича, «агарда объектнинг алоҳида хусусиятини тасвирлаш ва ўрганиш лозим бўлса, бунга якка бир фан соҳасининг имконияти етарлидир». Объектнинг ўзгариши, бошқа кўриниш

олиши ҳақида гап кетганда эса, мажмуавий (комплекс) ёндашув зарур бўлади, «чунки объектнинг бошқа томонлари (хусусиятларини) ни ҳам ўрганиш эҳтиёжи туғилади» (Кочергин 1988: 5). Бинобарин, гап таркибидаги бўлақлар тартибини аниқлаш учун синтактик таҳлилнинг ўзи етарли. Гап тузилишидаги ҳар қандай ўзгаришлар (инверсия, эллипсис ва бошқа шаклий ўзгаришлар) ва маъно кўчишларининг (синтактик полисемия, омонимия кабилар) турлари, уларнинг юзага келиш сабабларини ёритиш мақсадидаги таҳлил, сўзсиз, матн синтаксиси ва прагматикаси даражасига кўтарилади. Бундай таҳлил тилшунослик соҳаларининг ҳамкорлиги намунасидир.

Тил тизими ва лисоний фаолиятни ҳар томонлама тадқиқ қилиш, уларга хос ҳодисаларнинг белги-хусусиятларини батафсил ёритиш учун тилшуносликнинг турли соҳаларини бириктирадиган, уларнинг барчаси учун бир хилда таянч нуқтаси хизматини ўтайдиган умумлашган таҳлил тизимини топиш лозимлиги олимлар томонидан кўп бор таъкидланган эди (Қаранг: Бодуэн де Куртенэ 1963: 206; Sapir 1929: 166). Тил ҳодисаларига асосли ва айти пайтда, ҳолисона изоҳ бериш имконини яратадиган бундай таҳлил услуби тизимини излаш ҳаракати ҳозиргача давом этмокда. Муаммо долзарб, аммо умумлашган таҳлил тизимини таъминловчи «таянч» ғояни топиш фан ривожини учун муҳим.

Кейинги йилларда, тилшунослар бундай «таянч»ни когитология (cognitive science – тафаккур ҳақидаги фан)дан топгандай бўлишмокда. Сўзсиз, лингвистик таҳлил – когнитив таҳлилнинг бир тури, унинг маълум бир кўринишда намоён бўлишидир. Ҳали XIX аср охирларидаёқ тилшуносликнинг психологик ва социологик руҳда бўлишини қайд қилган Бодуэн де Куртенэ «тилда руҳий ва ижтимоий факторлар ҳаракатда бўлиши сабабли, тилшунослик учун ёрдамчи фан сифатида дастлабки ўринда психологияни ва сўнг инсонларнинг жамиятдаги мулоқот, муносабатлари ҳақидаги фан – социологияни танлаймиз» деб ёзганлигини (Бодуэн де Куртенэ 1963: 217) эслаймиз. Фанлар ўртасидаги боғлиқлик ҳақида гапирганда, уларнинг бирини иккинчисига «ёрдамчи» сифатида қараш унчалик ҳақиқатга тўғри келмайди. Акс ҳолда, фанлар ҳамкорлиги асосида юзага келадиган йўналишларни алоҳида соҳа сифатида ажратиш мумкин бўлмас эди.

Тилшунослик, психология, социология, маданиятшунослик каби соҳалар ҳамкорлиги когнитив фаолият асосида воқеланувчи ҳодисадир. Когнитив тилшунослик ҳам инсоннинг билиш фаолияти билан шуғулланувчи фанлар таркибига киради.

Когнитив тилшунослик атамасининг мазмуни инглизча «cognitive – билишга оид» сўзи билан боғлиқ. (Қиёсланг: «cognize – билмок, англамок, тушунмок», «cognition – билиш»).

Маълумки, дунёни, воқеликни билиш, уни идрок этиш оддий ҳодиса эмас. Айрим ҳолларда билишни тўғридан тўғри фаҳмлаш, тушуниш ҳаракатлари билан боғлаб қўйишади. Аммо ҳайвонларга ҳам қисман (оддий шаклда бўлса ҳам) фаҳмлаш, таҳлил қилиш ва умумлаштириш қобилияти хос

эканлиги маълум. Шу сабабли билиш фаолияти ҳақида гап кетганда, фақатгина cogitation (латинча), яъни «ақл, тафаккур» ҳодисасини тасаввур қилиш билан чекланмасдан, балки cogitatorium – тафаккур фаолияти шахсини ҳамда бу фаолият билан боғлиқ бўлган барча турдаги номентал (ижтимоий, маданий, лисоний) ҳодисаларни ҳам инобатга олиш керак бўлади. Шунинг унутмаслик лозимки, тафаккурнинг ўзи инсоннинг мақсадли фаолияти натижасида ҳосил бўлиб, у инсонлар ўртасидаги мулоқот жараёнида воқеликка нисбатан билдирилаётган фаол муносабатнинг ифода топишидир.

Тафаккур фаолияти жараёнида юзага келадиган билим турли кўриниш ва хусусиятга эга бўлади. Бу фарқ дастлабки ўринда билимнинг қай йўсинда ва қандай мақсадда ўзлаштирилиши билан боғлиқдир. Воқелик ҳақидаги оддий, «кундалик» билим тажриба натижасидир. Билим маданий ҳодиса сифатида талқин қилинганда, бу шаклдаги билимнинг маълум ижтимоий гуруҳ маданияти учун хос бўлган меъёрларга қанчалик даражада мос келиши назарда тутилади.

Лисоний билим иккинчи турга оид, чунки тил миллатнинг маданий бойлигидир. Бу билим инсоннинг онгли фаолияти заминида шаклланади ва бу фаолият амалга ошишида муҳим рол ўйнайди. Айнан лисоний билим лингвокогнитив таҳлил сифатида танланиши ҳам бежиз эмас.

Шубҳасиз, билим – инсон хотирасида сақланган (ҳеч бўлмаса «из қолдирган») тизимлаштирилган маълумотлар тўпламидир. Аммо бу тўпламнинг қандай таркиб топиши, ундан фойдаланиш механизмини ўрганиш анча қийин вазифа.

Америка беҳейвористлари инсон билимлари дунёсини «қора қути» (яъни ўқилиши мушкул бўлган манба) деб таърифлашган, чунки билим жамланишини таъминловчи воситаларнинг «иш тартиби»ни бевосита кузатишнинг имкони йўқ (Sehnelle 1981). Тўғри, инсоннинг билиш қобилиятининг нейрофизиологик асослари, айниқса, мия яримшарлари фаолияти билан боғлиқ томонларини ўрганиш борасидаги изланишлар давом этмоқда. Психоллингвистлар ва нейролингвистлар нутқий фаолият ижроси ва унинг қабул қилинишини (аниқроғи, идрок этилиши) таъминловчи мия қисмлари ҳамда уларнинг ўзаро муносабати ҳақидаги маълумотларни тўплашган бўлса-да, ушбу нейрофизиологик тизимнинг ўзи ҳануз сирлигича қолмоқда. Олимлар мия чап яримшари нутқий ахборотни қабул қилувчи ва узатувчи худудлар (бу худудлар нейрофизиологлар Брака ва Вернике номлари билан аталади) ўзаро мураккаб муносабатда эканлигини доимо уқтиришади (Иванов 1978: 28; Wardhandu 1994: 90-91). Лекин бу муносабатлар қандай юзага келади-ю, уларнинг заминида нима туриши тўғрисидаги фикрлар у қадар аниқ эмас. Балки нейрофизиологик тузилмаларнинг вазифалари ва уларни ҳаракатлантирувчи механизмларнинг иш фаолиятини аниқлаш учун дастлаб лисоний фаолиятнинг когнитив тизимини батафсил ўрганиш лозимдир. Бу эҳтимолнинг ҳақиқатга ўта яқинлиги когнитив тилшунослик тараққиёти жараёнида ўз исботини топмоқда.

Билим олиш ва сақлаш, уни амалда қўллаш ва узатиш манбаи ва ниҳоят, уни шакллантирувчи восита бўлган тил тизими когнитив таҳлил объекти эканлигига ҳеч қандай шубҳа йўқ. Бироқ бундай шубҳа бир пайтлар айрим тилшунослар томонидан билдирилганлигини ҳам эслаймиз. Жумладан, генератив тилшунослик ғояларининг фаол тарғиботчиларидан бири Ж.Катц (Katz 1981; 1984) тил ҳеч қандай онтологияга эга бўлмаган мавҳум ҳодиса эканлиги учун тилшунослик фани ҳам мавҳум предмет билан машғул бўлишини уқтиришга ҳаракат қилган эди. Унинг фикрича, тилшунослар «сўзловчиларнинг ўз тили ҳақидаги билими билан улар биладиган тиллар ўртасида катта фарқ мавжудлигини англамоқлари зарур» (Katz 1984: 34).

Албатта, ижтимоий қўлланишдаги тил билан когнитив ҳодиса - билим ўртасидаги фарқни инкор қилмоқчи эмасмиз.

Аммо тилни, айниқса, нутқни бутунлай мавҳум ҳодиса сифатида талқин қилиб бўлармикан?! Нутқий бирликларни жисман кузатиш ва ҳис этиш мумкин. Шу сабабли улар ҳақидаги ҳар қандай билим онтологик хусусиятга эга бўлган предмет-ҳодиса ҳақидаги билимдир. Аслини олганда, билим тилга нисбатан анча мавҳум, чунки уни жисман кузатиб бўлмайди. Билимнинг мавжудлиги тилнинг мавжудлигидан.

Тилнинг ўзи эса когнитив тизимнинг фаолияти маҳсулидир, лисоний таркиблар тафаккур фаолияти натижасида шаклланади. Лисоний ҳодисаларнинг билим, тафаккур, хотира ва мия кабилар билан муносабати масаласи талқинида беҳейвористлар нуктаи назаридан ёндашув қандай салбий натижаларга олиб келиши барчага маълум. Психолог Б. Скиннернинг 1957 йилда нашр этилган *Verbal Behavior* «Лисоний ҳаракат» номли китобида билдирилган фикрлар кўпгина тадқиқотчиларга дастлаб эътиборлидек туюлди. Улар лисоний хатти – ҳаракатни ҳар қандай бошқа ҳаракатдан фарқи йўқ ҳодиса сифатида ўрганиш ғоясини илгари суришди. Наҳотки инсон лисоний фаолияти доирасида бажариладиган ҳаракатларни лаборатория шароитидаги тажриба жараёнида турли катта-кичик ҳайвонлар бажараётган ҳаракатлар (майли, улар айрим сўзларни ёд олиб, такрорлаётган бўлишсин ҳам) билан бир қаторга қўйиб бўлса?!

Бундай ғоянинг илмий жиҳатдан нотўғри эканлиги кейинчалик олимлар томонидан тўлиғича исботланди. Б.Скиннернинг рисоласи чоп қилинганидан икки йил ўтмасданоқ Н.Хомский батафсил тақриз эълон қилиб (Chomsky 1959), беҳейворизмнинг қанчалик асоссиз эканлигини исботлашга уринди. У беҳейвористларнинг ҳар қандай хатти-ҳаракат (лисоний ёки нолисоний бўлишидан қатъий назар) бирор бир стимул – кўзғатувчи воситасида «ўрганиш ёки ўзлаштириш» натижасидир деган фикрини инкор қилиб, тилнинг ментал ҳодиса сифатида қаралиши лозимлигини кўрсатди.

Дарҳақиқат, лисоний фаолият фақатгина инсонга хос фаолиятдир ҳамда у яна бир инсонга хос бойлик – тафаккур билан бевосита боғлиқдир. Тил ва тафаккур муносабати муаммосининг узоқ йиллардан буён давом этиб келаётган муҳокамаси турли методологик хулоса ва тавсияларни юзага келтирди. Ташқи дунёнинг онгдаги инъикоси пайдо бўлишида тил асосий

рол ўйнашига алоҳида урғу берган олимлар (Сэпир, Хойжер, Ҳоккет, Будагов, Панфилов ва бошқалар) таъкидича, лисоний структура (қурилма) инсоннинг воқеликни идрок этиш қобилияти ва тажрибасининг шаклланишини таъминлаб, ижтимоий онгга таъсир ўтказди ҳамда шу йўсинда инсоннинг дунёқараши, воқеликни англаш қобилиятини шакллантиради.

Тафаккур қанчалик даражада лисон билан боғлиқ ҳодиса бўлмасин, унинг фақатгина тил воситасида амалга ошиши ёки, бошқача айтганда, тилсиз тафаккур бўлмаслиги ҳақидаги хулоса унчалик ҳақиқатга яқин эмас. Тил ва тафаккур айнан бир нарса бўлмаса керак. Тафаккур предмет, ҳодисаларнинг алоқа ва муносабатлари ҳақида маълумот берувчи воқеликнинг умумлашган ҳолдаги инъикосидир.

Воқеликнинг мияда акс этиши фақатгина нутқий тафаккур ҳаракати натижасида юзага келмаслигини исботлаш мақсадида Б.А. Серебренников (1983: 104-110) тафаккурнинг лисоний ва нолисоний турларини фарқлашни таклиф этганлигини эслаймиз. Булар қуйидагилар:

а) аниқ тафаккур – аниқ, конкрет муҳитда юзага келадиган воқеликнинг умумлаштирилган образи (акси);

б) рамзий тафаккур – хотирада мавжуд бўлган бутун бир воқелик ёки предмет-ҳодисаларни алоҳида бир муҳит-шароитга боғлиқ бўлган ҳолда қайта эслаш;

в) амалий тафаккур – бевосита мақсадли ҳаракатлар бажарилиши билан боғлиқ фикр;

г) лингвокреатив ёки лисонни шакллантирувчи тафаккур, яъни бу турдаги тафаккур ҳаракатлари бевосита тил тизими заҳиралари билан боғлиқ;

д) нолисоний тушунча тафаккури - (бу турдаги тафаккурнинг алоҳида ажратилиши, воқелик ҳақидаги тушунчанинг пайдо бўлиши нутқий ҳаракатдан олдинги босқичга оидлиги билан боғлиқдир).

Тафаккур қайси ҳолатда ва қандай кўринишда ҳаракатга келмасин, ягона бир вазифани бажаради – у воқелик ҳақидаги ахборотни қабул қилиш, тўплаш, қайта ишлаш ва тартибга солиш усулидир. Бу усул воситасида ҳосил бўладиган ғоя ёки фикр воқеликнинг онгда акс этиш шаклидир. Тафаккурнинг ҳаракатланиши ва фикрнинг шаклланиши воқеликнинг бевосита онгда акс этишини таъминловчи жараён – билиш фаолияти билан боғлиқ. Тилнинг билиш фаолиятидаги ўрни алоҳида, у воқеликни идрок этиш ва билиш воситаси – қуролидир. С. Д. Кацнельсон (1972: 110) «Тил – нафақат мулоқот қуроли, балки фикр ва ғояни шакллантирувчи ҳамда уни ифодаловчи қуролдир» деб ёзган эди. Тилнинг тафаккур фаолиятидаги ролини билиш учун онг ва тилнинг муносабатига оддий бир ҳол (ҳодиса) сифатида қарамаслик лозим. Бу муносабат икки мустақил ҳодисанинг ўзаро «мулоқот»идир. Худди шу «мулоқот» ментал фаолиятнинг лисонийлашувига олиб келади, зеро, лисоний ва мантиқий фаолиятлар бир-бирига ҳамроҳ бўлиб, улар ягона нутқий тафаккур жараёнини ташкил этади. Демак, тил онгни ҳаракатлантирувчи воситалардан биридир, у онгда энг оддий, бирламчи (элементар) тафаккур категориялари пайдо бўлишини

таъминлайди. Ушбу категорияларсиз «алоҳида нутқий тузилмалар – гапларни тушуниш ва фикр (ғоя)нинг шаклланишини ҳамда шу йўсинда билимнинг фаоллашувини ҳам тасаввур қилиб бўлмайди» (Кацнельсон 2001: 480). Қай даражалигидан қатъий назар, тил ва тафаккур муносабати масаласининг фалсафа, тилшунослик ва психология фанлари доирасида анча батафсил муҳокама қилиниши когнитив тилшунослик тараққиёти учун мустаҳкам замин яратди. Когнитив тилшунослик мажмуавий тадқиқот йўналиши (соҳаси) бўлиб, у тилшунослик ва психологиядан ташқари, сунъий интеллект назарияси, психоллингвистика, нейролингвистика каби фан соҳаларига оид илмий ёндашувларни ҳам умумлаштиради.

Маълумки, нутқий бирликларнинг ҳосил бўлиши ва уларнинг тушунилиши ақлий фаолият натижасидир. Бу фаолиятнинг бажарилиши бевосита лисоний билимга эга бўлиш шарти билан боғлиқ. Негаки, лисоний билимсиз воқеликни билиш, кечаётган воқеа – ҳодисалар ҳақидаги ахборотни акс эттирувчи мантиқий структураларни лисоний ифодалашнинг имкони йўқ. Шундай экан, когнитив тилшуносликка лисоний қобилиятнинг таркиб топишини тушунтирувчи фан сифатида қаралиши бежиз эмас.

В.З.Демьянков (1994: 17) бу соҳанинг асосий вазифасини инсон томонидан тилни ўзлаштириш механизмлари ҳамда бу механизмларнинг таркибини «системавий тасвирлаш ва тушунтиришдан иборат» деб таърифлаши бундан гувоҳлик беради. Ҳақиқатан, когнитив таҳлилда оламни билиш жараёнида юзага келадиган мантиқий (ментал) структураларнинг лисоний ифода топишини таъминловчи механизмлар қамровидаги услуб ва воситалар тадқиқи асосий ўринга кўчади.

Воқеликдаги предмет ва ҳодисаларни билиш, идрок қилиш қатор мантиқий – руҳий ҳаракатларни ўз ичига олган таркибли фаолиятдир. Бу фаолиятнинг дастлабки босқичини, албатта, маълум бир объектни бошқа объектлар қаторидан ажратиш ҳаракати ташкил қилади. Бир объектни бошқасидан ажратиш учун унинг фарқловчи белгиларини топиш лозим.

Кейинги босқичда эса, фарқловчи белгиларининг чоғиштирилиши асосида объектнинг ҳиссий рамзи юзага келади. Навбатдаги босқичда пайдо бўлган рамзнинг хотирада сақланаётган бошқа рамзлар билан ўхшаш томонлари изланади. Ниҳоят, воқеликни билишнинг муҳим босқичи – умумлаштириш ҳаракати амалга ошади (Горский 1985). Санаб ўтилган ментал ҳаракатлар когнитив структураларни (тафаккур фаолияти қисмларини) ташкил қилиб, объект ҳақидаги тушунчанинг шаклланишини таъминлайди. Тушунча – ментал тузилма, у ақлий фаолиятнинг ўзига хос шакли (тури) дир.

Тушунча «қандайдир бир синфга кирувчи предметларни умумлаштириш ва ушбу синфни унга кирувчи предметларнинг умумий ва фарқловчи белгилари мажмуасига нисбатан ажратувчи мантиқий фаолият натижасида ҳосил бўлади» (Войшвилло 1989: 91).

Мантиқий фаолият ҳосиласи бўлган «тушунча» ва когнитив тилшуносликда кенг миқёсда қўлланилаётган «концепт» атамаларини бир хил мазмунда қўллаш мумкинми?

Сўзсиз, бу иккала ҳодиса ҳам тафаккур бирлиги сифатида намоён бўлади. Буларнинг иккаласининг ҳам бошланғич нуқтаси воқеликдаги предмет – ҳодисанинг ҳис қилиниши __8__Д_ ва образли тасаввур қилиниши билан боғлиқ. Пайдо бўлган ҳиссий образ дастлаб ҳар бир шахсда алоҳида, индивидуал кўринишда бўлади. Масалан, «гул» бир киши учун «атиргул» бўлса, бошқаси учун «райҳон», яна бири учун «лола». Ҳиссий ва тафаккур фаолиятининг юқори босқичларида индивидуал образ аниқ предметдан узоқлашиб боради ва асл мантиқий (ақлий) ҳодисага айланади. Воқеликнинг бир хилда бундай ҳис ва тафаккур этилиши, умумлашган ҳамда қисман мавҳумлашган образнинг юзага келиши барча учун бир хил код – рамзий белги ҳосил бўлишига сабаб бўлади. Бу хилда пайдо бўладиган мантиқий тузилмани психолог Н.И.Жинкин «универсал предмет коди - УПК» деб аташни таклиф қилади.

Олим бу ҳодисанинг юзага келишини инсон миясининг ирсий ва наслий хусусиятлари қаторига киритади. Унинг фикрича, ақлий қобилият «тушунча, ҳукмни яратади, воқеликни тасвирлаш ва инсон фаолияти сабабини кўрсатиш учун турли хулоса ва мулоҳазаларга келади. Бу мантиқий ҳаракатларнинг бажарилиши шахснинг қайси тил соҳиби эканлигига боғлиқ эмас. Худди шунинг учун ҳам интеллект (ақл) умумий бошқарув функциясини ижро этади, бу универсал предмет коди кўринишидаги кодлаштиришдир» (Жинкин 1982: 88).

Шундай қилиб, тушунча ва ҳукмнинг ҳосил бўлиши ақлий фаолиятнинг турли босқичларига оиддир. Кўпчилик ҳукмнинг бирламчи эканлигини эътироф этишади. Ҳақиқатан ҳам мантиқий субъект ва предикат бирикишидан ҳосил бўладиган ҳар қандай оддий ҳукм (Масалан, Қор ёғмоқда) предмет образларининг ўзаро муносабатдалиги, боғланишидан бошқа ҳеч нарса эмас. Тушунчалар муносабати эса иккиламчи, у нутқий тафаккур фаолиятининг юқори босқичида юзага келади. Бунинг исботини биз А.Ф.Лосевнинг мулоҳазасида ҳам кўрамиз. Унинг фикрича, соф ҳукмда тушунчалар «мазмунига» ҳеч қандай ишора йўқ, шу сабабли ҳукмга предметни унинг воқелигидан узоқлашган ҳолда тасаввур қилишнинг услуби ва қонуният сифатида қаралиши лозим (Лосев 1990: 129 -130). Бизнингча, ҳукм ва тушунчани фарқловчи белги ва хусусиятлар ҳақида гапириш билан бир қаторда, бу икки ҳодисанинг диалектик умумийликка эга бўлишини ҳам унутмаслик лозим. Зеро, тушунчанинг ҳосил бўлиши воқеликдаги предметлар, содир бўлаётган ҳодисаларни мантиқан идрок этиш, улар ҳақида ҳукм чиқариш билан бевосита боғлиқдир. Фақатгина тушунча мураккаб когнитив таркибга эга тафаккур бирлиги сифатида намоён бўлади. Концепт ҳам тафаккур бирлиги ва унинг асосида тушунча, образ ва лисоний маъно умумлашмаси ётади. Концептнинг шаклланиши индивидуал образ туғилишидан бошланиб, лисоний бирликнинг пайдо бўлиши билан тугайди.

Таниқли файласуф ва психолог Жерри Фодор воқеликнинг онгда инъикос этиши ва бу инъикоснинг тафаккурда «қайта ишланиш» жараёнини ўрганаётиб, бу жараёни «тафаккур лисони»га ўхшатади. Чунки «ҳар қандай мантикий тасаввур ҳаракати маълум кўринишдаги структурага эга бўлади ҳамда бу структура табиий тил бирлигининг синтактик шакли такрорига ишорадир» (Fodor 1975: 110).


Концепт – ментал тузилма бўлиб, у турли таркибдаги ва кўринишдаги билимлар кванти ёки умумлашмасидир (Кубрякова и др . 1996: 90). Концептлар инсон онгида шаклланадиган турли категорияларнинг асосини ташкил қилади, улар учун таянч нуқта бўлиб хизмат қилади. Одатда, концептнинг умумий хусусиятлари сифатида унинг ички тузилиш жиҳатидан аниқ кўринишга эга эмаслиги қайд қилинади, бироқ бу қайд унчалик ҳақиқатга яқин эмас. Зеро, концептнинг асосини ташкил қилувчи предмет образи етарлича аниқ ва иккиламчи ўринни эгаллаган бўлаклари мавҳумликка эга бўлиши билан биргаликда, улар ягона негиз (ядровий асос) атрофида ўзаро муносабатга киришиб бирикадилар. Шу сабабли концепт таркибининг тизимий характерга эга эканлигини эътироф этиш маъқулдир. Унинг тизимий хусусиятлари тузилиш жиҳатидан мураккаб тартибли бўлишида ва бир бутун ментал тузилма сифатида идрок қилинишида намоён бўлади.

Предмет – ҳодисаларнинг онгли идрок этилиши ва уларнинг тасаввурда образ ҳосил бўлиш йўли билан жамланадиган билим турлича шаклланади ва ҳар хил характерга эга бўлади. Бу бевосита турли гуруҳдаги ва тузилишдаги концептлар шаклланишига сабаб бўлади. Концептларнинг гуруҳланишида уларнинг лисоний ифодаланиш услубларига таянилади. Тадқиқотчилар лексик ва фразеологик концептлар билан бир қаторда, грамматик (аникроғи, синтактик) концептлар гуруҳларини ҳам ажратишни таклиф қилишмоқда (Бабушкин 1996; Волохина, Попова 1999; Langacker 1987).

Ҳар қандай ҳолда ҳам эгалланган билимнинг шаклланиши ва тизимлаштирилишнинг асосий воситаси тил тизимидир. Тафаккур бирлиги ва ментал ҳодиса сифатида юзага келадиган концептнинг лисоний воқеланиши ҳам нуткий тафаккур фаолияти натижасидир.

КОНЦЕПТНИНГ ЛИСОНИЙ ВОҚЕЛАНИШ ЖАРАЁНИ

Юқорида айтилганидек, когнитология турли фан соҳалари чорраҳасида юзага келган фандир ва унинг тадқиқот соҳаси «билимни тўплаш ва қўллаш усуллари тадқиқ қилиш» сифатида белгиланади (The Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology 1990). Америкалик психолог Х. Гарднер когнитив фанлар чорраҳасида олти фан соҳаси тутатишини ва ягона бир илмий мақсад – табиий ва сунъий тизимларда билимнинг жамланиши, қайта ишланиши ва қўлланиши муаммолари ечимини излаш билан банд бўлишини қайд қилган эди (Gardner 1987). Ушбу соҳалар муносабати қуйидаги шаклда акс эттирилади:



Кўриниб турибдики, ушбу соҳалар ўртасидаги алоқа бир хилда амалга ошмайди, бинобарин, компьютер фанлари сунъий интеллект) ва антропологиянинг фалсафа билан алоқаси кўпинча билвосита амалга ошади. Тилшунослик ушбу фанлар чорраҳасида мустаҳкам ўрин олган ва барча қавм соҳалар билан бевосита муносабатдадир.

Шу сабабли когнитив тилшунослик инсоннинг билиш қобилияти ҳақидаги фан – когнитологиянинг марказий соҳаларидан бири сифатида эътироф этилади. Тилшунослик когнитология фани шаклланишида асос ёки пойдевор бўлиб хизмат қилган уч соҳа каторидан бежиз жой олмаган бўлса керак. Бу соҳалар қуйидагилар: 1) инсонларга хос топшириқларни бажариш қобилиятига эга бўлган компьютер дастурларининг яратилиши; 2) когнитив психология доирасида билиш фаолиятининг руҳиятга оид томонларининг чуқур ўрганилиши; 3) генератив грамматика назариясининг тараққий этиши ва ушбу назария билан боғлиқ лингвистик йўналишларнинг пайдо бўлиши (Миллер 1964).

Кўрсатилган соҳалар ҳамкорлигида шаклланган когнитологиянинг «туғилиш» санаси 1956 йилнинг 11 сентябридир. Айтиш мумкин, шу куни Массачусет технология институтининг ўтказиладиган симпозиумда уч маъруза тингланди. Биринчи маърузанинг («7+2 сеҳрли сони») муаллифи психолог Жорж Миллер (ҳа, айнан эслаб қолиш қобилиятининг 7+2 меъёрида белгиловчи Миллер қонунининг муаллифи) эди. «Тилнинг уч модели» деб номланган иккинчи маъруза тилшунос Ноам Хомский томонидан тақдим этилди.

Нихоят, учинчи маъруза «Logic Theory Machine» («Логик назариётчи»)

сунъий интеллект соҳаси бўйича мутахассис Ален Ньюэлл ва бўлғуси Нобель мукофоти соҳиби, иқтисодчи Херберт Саймонлар ҳаммуаллифлигида битилган эди.

Худди шу маърузаларда когнитив тадқиқотларни ягона бир фан доирасида, ягона бир «соябон» остида бириктириш фикри олға сурилди. Бу воқеани Ж.Миллер қуйидагича хотирлайди: «Мен симпозиумдан амалий – тажрибавий психология, назарий тилшунослик ва билиш жараёнини компьютерда дастурлаш соҳалари ягона бир бутунлиқнинг қисмларини ташкил этишига руҳан қаттиқ ишонган ҳолда чиқдим. Келажакда уларнинг умумий мақсад сари ўзаро мувофиқлашувига ҳам ишонч пайдо бўлди. Ушбу фан шаклланиши сари мен йигирма йил интилдим ва ниҳоят, энди унга қандай ном беришни билдим» (Қиёсланг: Gardner 1987). Когнитология фанининг пайдо бўлиш санасини 1956 йилдан деб ҳисоблаётган мутахассислар (Muers, Brown 1986) унинг асосий вазифасини ақлий тасаввур қоидалари ва мантиқий хулосалар қонуниятларига таянган ҳолда табиий тил тизимини «қайта ишлаш»нинг талабга ва ҳақиқатга мос назариясини яратишда кўрадилар. Демак, cognition (когниция), яъни билиш фаолияти ахборот (маълумот)ни қабул қилиш, тақдим этиш ва яратиш ҳаракатларини қамраб олади.

Бу турдаги ҳаракатлар ижроси лисоният заҳираларидан озуқа олади, бевосита ёки билвосита лисон билан алоқада бўлади. Инсоннинг билиш қобилияти унинг лисоний қобилияти билан ҳамохангдир. Ўтган асрнинг бошларида олмон файласуфи (кейинчалик А ҚШда яшаб ижод қилган) Эрнест Кассирер инсоннинг билиш фаолиятига борлиқни худди кўзгудек акс эттирувчи эмас, балки предметларнинг ички ёки ташқи моҳиятини акс эттирувчи ҳодиса сифатида қаралиши лозимлигини уқтиради. Бу фаолиятни, яхшиси, тасаввур ва идрокни уйғотадиган ёруғлик манбаига ўхшатиш маъқул: ёруғлик қанчалик равшан бўлса, манба шу қадар кучли бўлади ва биз предметни шунчалик аниқ кўрамиз (Cassirer 1923: 26).

Билиш жараёнида ҳосил бўлган ментал тузилма – концепт мазмунида

айнан шу турдаги равшан ва аниқ кўринишга эга бўлган белги - хусусиятлар ўрин олади ҳамда концептнинг лисоний воқеланишида худди шу хусусиятлар етакчилик қилади.

Воқеликни акс эттириш тўғридан-тўғри тилнинг вазифасига крмайди, бу вазифани дастлабки ўринда тафаккур бажаради. Лекин тафаккурда юзага келган ментал тузилмалар тил тизимида ўз ифодасини топади. Сўз, худди бошқа тил бирликларидек, алоҳида бир предметни ёки воқеани атовчи оддий бир ёрлик бўлмасдан, балки воқеликни билиш воситасидир. Лисоний бирликлар воситасида ахборот йиғилади, сақланади ва авлоддан-авлодга ўтади. Бир сўз билан айтганда, тил бирликларининг когнитив жараён кечишидаги ўрни алоҳида эътиборга лойиқдир.

Ментал тузилма – концептнинг лисоний белгига ўтиш жараёни қандай кечиши масаласи баҳсли мавзудир. Дастлабки ўринда концептнинг лисоний моддийлашуви онг ва тил тизими ўртасидаги ҳамкорликнинг маҳсули эканлигини унутмаслик керак. Олдин айтилганидек, концепт шаклланишининг бошланғич нуқтаси воқелик бўлаги (предмет) ҳақидаги тасаввур – образнинг юзага келишидир. Бу образ оддий схема ёки шакл бўлиб қолмасдан, балки мазмунли ҳодисадир. Бошқача айтганда, субъект образнинг оддий шаклини кўрмайди ёки унинг мазмунини идрок қилмайди, у мазмунли образни идрок этади. Худди шу мазмунли образ лисоний белгига айланади ва бу белги маъносининг ўзагини ташкил қилади. Лекин воқелик – онг – лисоний белги ўртасидаги бундай узвийликни оддий такрорлаш кўринишида талқин этмаслик керак. Чунки онг воқеликни лисоний белги воситасида оддийгина акс эттирмайди, балки субъект учун муҳим бўлган белги-хусусиятларни ажратади ҳамда улар асосида идрок этилаётган объект (предмет, ҳодиса) нинг намунавий моделини яратади. Онгнинг бу турдаги аналитик – таҳлилий фаолияти амалга ошишида лисоний белгиларнинг роли алоҳида эътиборга лойиқ. XVIII асрда яшаб ижод этган машҳур фаранг мантиқшуноси Этьен Бано де Кондильяк (1715 - 1780) бу ҳақда шундай деб ёзган эди: «Бирор бир белгининг ёрдамисиз биз ўйимизни маълум қисмларга

ажратолмас эдик ва шу йўсинда фикр юритиш воқеликнинг бўлаklarини алоҳида кўриш (идрок этиш – Ш.С.) имконини беришини англай олмас эдик» (Кондильяк 1980: 84).

Билиш жараёнининг руҳиятда кечиши масаласи билан махсус шуғулланган психологлар (Ж. Бруннер, Л.М. Веккер, Б.Ломов ва бошқалар) воқеликнинг онгда акс этиши турли хусусиятларга эга эканлигини қайд қилишади. Жумладан, муқимлик (идрок этилаётган предметнинг доимий, муқим бўлиши), предметлик (объектнинг алоҳида мавжуд бўлиши), бутунлик (предмет қисмлари ва бўлаklarининг янги бир даражада бирикиши), умумийлик (предметнинг муқим хусусиятларини фарқлаш) булар қаторига киради (Диянова, Щеголева 2006: 11). Сўзсиз, ушбу хусусиятларнинг барчасининг ҳам билиш жараёнида ўз ўрни бор, уларнинг ҳар бири билишнинг иккала босқичида (образ яратиш ва тушунча ҳосил бўлиши) ўзича намоён бўлади. Концептнинг ҳосил бўлиши ва унинг лисоний воқеланишида эса умумийлик (аниқроғи, умумлаштириш) хусусияти алоҳида рол ўйнайди.

Биз воқеликнинг бирор бир бўлаги, предметини лисоний номлаш ёки умуман лисоний тафаккур фаолияти дастлабки ўринда умумлаштириш ҳаракати билан боғлиқ эканлигини яхши биламиз. Бунда номланаётган предмет – воқеанинг алоҳида, яққол кўзга ташланадиган ва сезиладиган белгиси аввал фарқланади, кейин эса ушбу белгининг бутун бир гуруҳ учун умумийлиги эътиборга олинади.

Мантиқшунослар билиш фаолиятининг асосий босқичлари сифатида қиёслаш, умумлаштириш ва идеаллаштириш (мавҳумлаштириш) ҳаракатларини қарашлари бежиз эмас. Бу ҳаракатлар билиш объектининг умумлашган образини ҳосил қилади. Албатта, умумлашган образ мантиқий фаолият натижаси сифатида воқеликдаги предмет, ҳодисаларни лисоний номлаш учун мантиқий ва маънавий асос яратади. Бироқ ҳар қандай ҳолатда ҳам концептнинг лисоний ифода топиши предметли амалий тафаккур фаолияти шароитида кечади. Нутқий ҳаракатнинг болалар онгида

шаклланиши, унинг онтогенезиси билан махсус шуғулланган Ж.Бруннер (1984: 22) тил ўзаро фаолият воситаси сифатида ўзлаштирилишини таъкидлаб, «тилни ўзлаштиришда лисоний қобилият туғма бўлмасдан (айрим тилшунослар ўйлаганидек – Ш.С.), балки инсон диққати ва амалий фаолиятининг айрим хусусиятларигина туғма бўлиши мумкин», деб ҳисоблайди. Ўз ота-онаси, атрофдагилардан амалий ҳаракат намуналарини ўзлаштираётган болада кўраётган предметлари ва кузатаётган ҳодисаларини номлаш қобилияти шакллана боради ва бунинг натижасида унинг билим доираси кенгая боради. «Тил ўзлаштириш жараёнида предмет ва ҳодисаларни нафақат бевосита идрок этиш мумкин, балки уларни тушунчалар, турли муносабатлар тизимига киритиш имконияти ҳам туғилади. Бу эса ўз навбатида, улар (предмет - ҳодисалар) ҳақидаги билим миқёсини кенгайтиради» (Пиаже 1984: 326). Ушбу муаллиф эътирофича, билимнинг сарчашмаси доимо ҳаракатдир, янгидан–янги объектларни идрок этишга йўналтирилаётган билиш ҳаракати амалий концепт шаклланишига туртки бўлади.

Концептнинг лисоний моддийлашув жараёни яна бир муҳим ментал босқични босиб ўтади. Воқеликнинг тафаккурдаги умумлашган инъикоси – образнинг мантикий «қайта ишланиши» натижасида ҳосил бўлган концепт лисоний «либос» олишидан олдин ушбу «либос»нинг тасаввурдаги акси – модели юзага келади. Лисоний воқеланиш режаси пайдо бўлган заҳотиёқ уни амалга ошириш услуби изланади. Режа ҳамда «сўзсиз» модел нолисоний ёки «ботиний нутқ» жараёнида юзага келади.

Ботиний нутқнинг юзага келиш муаммоси билан шуғулланган психолог ва психоллингвистлар ушбу ҳодисани турлича талқин қилиб келишмоқда. Улардан айримлари ботиний нутқни оддийгина қилиб, ўз-ўзига гапириш билан тенглаштирсалар, бошқалари уни алоҳида ташқи (зоҳирий) нутқдан бутунлай фарқ қилувчи ҳодиса сифатида таърифлайдилар. Бироқ, энг муҳими, ботиний нутқ зоҳирий нутқнинг асосини, негизини ташкил қилишини олимлар эътироф этиб келишмоқда. Дарҳақиқат, нутқий фаолият

ижро талаффуз) ва эшитиш (мазмун идроки) босқичларидан ташқари яна бир босқични ўз ичига олади. Бу ташқи ёки зоҳирий нутқни режалаштириш билан боғлиқ яширин жараёндир. А.Р.Лурия айтганидек, бўлғуси нутқий ҳаракат ният ва режадан бошланади ва ушбу режа нутқий фаолиятнинг «ички ҳаракатчан схемаси» вазифасини ўтайди (Лурия 1975: 38).

Ички схема ўзига хос дастурлаш хизматини ўтаб, лисоний номланиши лозим бўлган концептнинг мундарижа-сида мужассамланган асосий мазмуний хусусиятларини акс эттирмоғи даркор. Ботиний нутқ концептнинг лисоний воқеланишини таъминловчи жараёндир. Ушбу жараёнда бўлғуси лисоний бирликнинг тузилиши ва мундарижаси шаклланади. А.А. Леонтьев лисоний бирликнинг ботиний дастури ва қолипи муҳим мазмун кўрсаткичларидан таркиб топишини ва бу кўрсаткичлар нутқий тузилма учун муҳим бўлган субъект, предикат, объект бўлакларининг муқобил «изи» дан иборат бўлишини исботлашга ҳаракат қилган эди (Леонтьев 1969: 159). Ботиний нутқнинг энг асосий хусусияти унинг шароитида лисоний бирлик мазмунан тўлиқ шаклланиши ва турли маъновий ўзгаришлар босқичларини (маъно кенгайиши ; мураккаб тушунчаларни ифодалаш учун маъно бўлакларини бир-бирига «ёпиштириш» каби) босиб ўтиши билан боғлиқ эканлигини Л.С.Выготский ҳам таъкидлаган.

Хуллас, ботиний нутқ жараёнида концепт, биринчидан, маълум мазмун шаклини олса, иккинчидан, лисоний белги танлови босқичига тайёргарлик кўради. Худди шу ҳозирлик лисоний моддийлашувдан олдинги ҳаракатлар воситасида номинатив бирликнинг денотатив асосини мазмунан бойитади. Бу билан лисоний танлов имконияти ҳам кенгаяди. Лисоний танлов эса алоҳида кўринишдаги лисоний тафаккур фаолияти натижасидир. Бу фаолиятнинг кўчиши тил ўзлаштирилиши ва нутқий қобилият ҳосил бўлиши жараёнларига мос равишда кечади. Маълумки, инсон тил ва моддий оламни бир хил услубда ҳамда бир хил йўналишда ўзлаштиради. Моддий дунё идроки айни пайтда идрок этилаётган предмет – ҳодисалар ҳақида тушунча туғилишини, кейинчалик ушбу тушунча ментал намуна – концепт сифатида

шаклланиб, моддий ном олишини тақозо қилади. Бу хилдаги кўп босқичли лингвопсихик фаолиятнинг натижали (натижа муваффақиятли ёки муваффақиятсиз бўлишидан қатъий назар) кечишида асосий ролни лисоний хотира ўйнайди.

Концептнинг лисоний воқеланиш жараёни, унинг табиати ва уни ҳаракатга келтирувчи механизмлар ҳақида гапираётиб, Н.Хомскийнинг нутқий фаолият ва лисоний ижодни таъминловчи ботиний ва зоҳирий структуралар ҳақидаги фикрини яна бир карра эсламасликнинг иложи йўқ. Ушбу ғоя ботиний структуранинг зоҳирий тузилмага ўтишини фақатгина формал жиҳатдан таҳлил қилинишига йўл қўйганлиги ва натижада шакл мазмун (семантика) дан устун бўлиб қолганлиги айблови билан узлуксиз танқидга учраб келаётганига қарамасдан, когнитив тилшунослик учун анча муҳимдир. Н.Хомский тилшуносликда биринчилар қаторида (худди буни психологияда Л.С.Виготский бажарганидек) нутқ ижоди фаолияти бевосита ментал тузилмаларнинг «ташқи», яъни лисоний тузилмаларга кўчиши жараёнидан иборат, деган ғояни ўртага ташлади ва бу ғояни нутқ ижоди фаолияти таркибида базис (таянч) ҳамда натижа босқичларини фарқлаш билан исботлашга ҳаракат қилди. Н.Хомскийнинг тилшуносликдаги энг катта хизмати сифатида тан олинган ушбу ғоя психологларнинг ахборот инсон миясининг турли қобикларида кўп босқичли «қайта ишловдан» ўтиши ҳақидаги фикрларига (Прибрам 1975) қанчалик мос келишига эътибор берайлик.

Тилшунос учун энг муҳими тафаккур бирлиги бўлган концептнинг тилда (аниқроғи нутқда) акс этишини таъминловчи структуралар, ҳаракатлар, қоидаларни аниқлашдир. Бу вазифа яна тафаккур жараёни, ташқи дунё идроки ҳаракатлари қандай шаклда ва қайси воситалар қўлланишида кечишини билиш масаласига бориб тақалади.

Замонавий фалсафа ва тилшуносликда (айниқса, когнитологияда) ментал ва нутқий ҳаракатлар бир хил шаклда ижро этилиши, ўз навбатида, матн лисоний тафаккур фаолияти маҳсули бўлиши ахборот ғояси (яъни узатилиши

ва қабул қилиниши) нуқтаи назаридан изоҳланмоқда. Дарҳақиқат, ахборот барча тирик мавжудотлар ҳаётининг тағзамини (пойдевори)дир.

1. Kognitiv lingvistika nima va u tilshunoslikda qanday rol o'ynaydi?
2. Kognitiv lingvistikaning asosiy maqsadi va vazifalari qanday?
3. Kognitiv lingvistikaning an'anaviy tilshunoslikdan farqi nimada?
4. Kognitiv lingvistika qaysi fanlar bilan bog'liq?
5. Kognitiv lingvistikaning rivojlanishiga kimlar asos solgan?
6. Kognitiv lingvistika doirasida qanday asosiy nazariyalar mavjud?
7. Kognitiv lingvistikaning psixolingvistika va neyrolingvistika bilan bog'liqligi qanday?
8. Metafora va metonimiya kognitiv lingvistika doirasida qanday tushuntiriladi?
9. Kognitiv lingvistika va sun'iy intellekt tadqiqotlari qanday bog'liq?
10. Kognitiv lingvistikaning zamonaviy tadqiqot yo'nalishlari qanday?
11. Chet elda kognitiv lingvistika bo'yicha eng muhim tadqiqotlar qaysilar?
12. Lakoff va Jonsonning metafora nazariyasi kognitiv lingvistika uchun qanday ahamiyatga ega?
13. Noam Chomskiy va uning kognitiv yondashuvi qanday baholanadi?
14. O'zbekistonda kognitiv lingvistika qachondan boshlab rivojlana boshladi?
15. O'zbek tilshunosligida konsept tushunchasini tadqiq etgan olimlar kimlar?
16. O'zbek tili va madaniyati doirasida kognitiv lingvistika qanday qo'llanilmoqda?
17. O'zbek tilining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari qanday tadqiq etilmoqda?
18. Qaysi o'zbek tilshunoslari konseptual tahlil bo'yicha ilmiy ishlar olib bormoqda?
19. O'zbek tili doirasida ma'no interpretatsiyasi qanday amalga oshirilmoqda?
20. Chet el tadqiqotlari bilan o'zbek tadqiqotlarini qanday solishtirish mumkin?

2-MAVZU: LINGVOKULTUROLOGIYA.

1. Lingvokulturologiya fan sifatida va uning o'rganish obyekti
2. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari
3. Til – madaniyat masalasining tilshunoslikdagi muammosi

TAYANCH TUSHUNCHLAR

1. **Lingvokulturologiya** – til va madaniyatning o‘zaro aloqalarini o‘rganadigan tilshunoslik yo‘nalishi.
2. **Til va madaniyat** – til madaniyatni aks ettirish va uzatish vositasi sifatida.
3. **Madaniy kod** – milliy madaniyat va qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklari.
4. **Etnokonsept** – muayyan xalqning madaniy va tarixiy xotirasi bilan bog‘liq kontsept.
5. **Lisoniy madaniyat** – til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida shakllangan til hodisalari.
6. **Milliy mentalitet** – xalqning madaniy va psixologik xususiyatlari.
7. **Til identifikatori** – milliy madaniyatni shakllantiruvchi til elementlari.
8. **Etnolingvistika** – til va etnik guruhlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan fan.
9. **Madaniy arxetip** – xalq madaniyatida qadimdan saqlanib qolgan asosiy tushunchalar.
10. **Kross-madaniy tahlil** – turli tillardagi madaniy xususiyatlarni solishtirish.

Hozirgi kunda xalqlar o'rtasida iqtisodiy ,madaniy va ilmiy aloqalar yanada mustahkamlashgan. Shunday qilib , aloqalar tilning madaniyat va til bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Madaniyat va tilni tadqiq etuvchi olimlar XX asrdayoq bu sohalarning yangi fanga asos bo'la olishini anglagan edilar . Ushbu soha ular tomonidan lingvomadaniyatshunoslik deya nom oldi. Ya'ni til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi fan. XX asrda ushbu soha uch muammo:til ,madaniyat va inson shaxsiyati orqali tadbiq etila boshlandi. Maqsad til va madaniyat haqidagi bilimlarni faollashtirish edi.

Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o'zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi,madaniyat ham shu o'rinda tilsiz mukammal namoyon bo'la olmaydi. Hozirgi kun tilshunoslik

ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvomadaniy masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin.

O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o'rganilgan. Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi.

Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi.

Ma'lumki, tili jtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlanmoqda.

Lingvomadaniyatshunoslik fani rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari va ularning tilshunoslikda egallagan o'rni.

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi,

milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror soʻz boʻlishi mumkin emas, yaʼni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar boʻlishi shart”. Til va madaniyatning ana shunday oʻzaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda oʻrganish imkonini berdi. Yaʼni, til va madaniyat.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida koʻrindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini taʼkidlaydilar. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol oʻynaganligi taʼkidlanadi. Ana shu gʻoyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakillandi.

Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yoʻnalishlarda namoyon boʻladi: 1. Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni oʻz ichiga oladigan alohida sotsial guruh. 2.Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq oʻtish vaqtining oʻzgarishlarini oʻrganadi. 3.Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo boʻladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shugʻullandi. 4. Tavsifiy lingvokuturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida soʻzlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obykti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, gʻoya va boshqalar olingan. 5. Lingvokulturologik leksikografiya. Lingvooʻlkashunoslik lugʻatlarini tuzish bilan shugʻullanadi. Llingvokulturologiyaning bu yoʻnalishi hozirgi kunda boshqa yoʻnalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda.

Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo'lkashunoslik lug'atini keltirishimiz mumkin. Bu lug'at 25 bobdan iborat. Unda Germaniya realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o'simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an'analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to'y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi; uzunlik, og'irlik, hajm, yuza; savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan. Shuningdek, lug'atda berilgan ma'lumotlar ichidan til, kitobatchilik, hattotlik san'ati, talaba va talabalar hayoti, maktab, milliy kiyimkechak spetsifik elementlari, milliy taomlar, milliy o'yinlar, milliy raqslar, an'anaviy ko'rishish usullari va tilaklar, etiketga xos jumlar, shaxsiy ism va familiyalar, milliy imo-ishoralar, badiiy ijod namunalari, aforizm, milliy xarakter kasb etuvchi olmon qo'shiqlari joy olgan.

“Til va madaniyat” muammosining o'rganilishida bir qancha yondashuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondashuv faylasuf olimlar (S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyay, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o'zgarish yuz beradi, degan g'oya yotadi. Ikkinchi yondashuvda esa bu ta'sirning aks tomoni, ya'ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta'siri masalasini o'rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondashuvning asosiy g'oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt,A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya'ni har bir xalq borliqni o'z ona tilisi orqali ko'radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g'oya yotadi. Bu g'oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni “O'tkinchi dunyo”, ya'ni “borliqni anglash”, muayyan “mavjudlik va tafakkur” sifatida qaraluvchi g'oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko'pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo'lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo'lgan hodisalarni anglashga yordam berdi. Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik

maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy va izdoshlarining lingvoantropologik yo‘nalishdagi ishlari buning isbotidir. Uchinchi yondashuv to‘g‘ridan-to‘g‘ri til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va aloqadorligi g‘oyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini o‘zida namoyon etadi. Boshqa tomondan “madaniyat tilda“ joylashgan, ya’ni u matnda to‘laligicha o‘z ifodasini topadi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning ob’ekti til va madaniyat, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy kontseptlari majmui bo‘lgan kontseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o‘zaro ta’siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokontseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o‘rganiladi. SHu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan til to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”. G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiya markazining

madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi". Lingvokulturologiyaning o'rganish ob'ekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. SHuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya ob'ekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, ob'ekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik kontsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, frantsuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Solievanning

nomzodlik ishi o'zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir. SHunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish ob'ekti tamoman boshqadir".

Lingvokulturologiyaning bevosita matn bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq ob'ektlaridan biri hisoblanadi. "Lingvokulturologiya" kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir.

Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi”. V.A.Maslovaning, xususan, o’xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e’tiborga molikdir. Olima o’xshatishlarning matn yartilishidagi o’rniga yana to’xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta’minlovchi vosita maqomida bo’lishini aytadi. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o’xshatish va uning qisqargan shakli bo’lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy- madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo’la oladi. O’xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog’liq yana bir hodisa bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovanning so’zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning “akkumulyatori”dir.

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo’lib, o’zida muayyan millat til egalariga xos bo’lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtda xususan rus tilshunosligida bu borada ko’plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog’liq yana bir masala sententsiyadir. Sententsiya axloqiy-ta’limiy xarakterdagi til birligi bo’lib, o’zida intertekstuallikni namoyon etadi. Z.I.Salieva ingliz va o’zbek tillaridagi sententsiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o’rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o’rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g’oyalarning yozuvchi tomonidan o’zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko’rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning “Navoiy” romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi. Bu xususiyatni o’zbek tilida yaratilgan boshqa asarlarda ham ko’rish mumkin.

Ma’lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o’rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va

muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo'lgan tuzilishi, olamni idrok etish va kontseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir. Har bir tabiiy til olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi. matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning

lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

Til va madaniyat o'zaro bog'liqligi masalalari

Har qanday millatning tili bu so'zda mujassam bo'lgan uning tarixiy xotirasidir. To'liq til va til orqali milliy kabi muhim xususiyatlar va xususiyatlar psixologiya, odamlarning fe'l-atvori, fikrlash uslubi, badiiy ijodning o'ziga xos o'ziga xosligi, axloqiy holati va ma'naviyatidir. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi g'oyasi tilshunoslik va til falsafasi tarixida katta o'rin egallaydi. Bu borada, Vilgelm fon Gumboldt (1767–1835) garchi til hamma odamlar uchun universal bo'lsa-da, dunyo tillari bir-biridan farq qiladi va har bir tilda dunyoqarash mavjud degan g'oyani ilgari suradi. Gumboldt uchun odamlarga (millat, irq) aqliy qobiliyatlar berilgan va ba'zi tillar va madaniyatlar ushbu aqliy qobiliyatlarning ishlariga asoslangan ijoddir. Shunday qilib, tillar va madaniyatlar "millat ruhini" ifodalaydi, va lingvistik va madaniy xilma-xillik turli xalqlarning (millatlar, irqlar) aqliy qobiliyatlaridagi farqlarni aks ettiradi. Sapir, garchi tilning tipologik xususiyatlari (ya'ni tarkibiy xususiyatlari) madaniyatning o'ziga xos turlari bilan o'zaro bog'liq bo'lmasa-da, tilning so'z boyligi madaniyatning xususiyatlari va uning ma'ruzachilari tarixini aks ettiradi. Vorf, o'z navbatida, yana oldinga bordi va tillar o'rtasidagi tarkibiy farqlarni har xil fikrlash turlari mavjudligining dalili sifatida va har qanday ma'lum bir madaniyatni tushunish uchun kalit sifatida ko'rish mumkin, deb ta'kidladi.. Odamlarning fikrlash uslubi ular gapiradigan tillar bilan shartlangan (agar aniqlanmagan bo'lsa) deb taxmin qiladigan lingvistik nisbiylik printsiipi odatda Sapir-Vorf gipotezasi deb nomlanadi.

Shu nuqtai nazardan, til har qanday muayyan madaniyatni anglashning kalitidir. Ushbu fikr yo'nalishi tilning ta'siri va qudrati va uning madaniy va etnik guruhlar a'zolari uchun ahamiyatini ta'kidlasa-da, tilni ham, madaniyatni ham mohiyatan izohlaydi. Ya'ni, til va madaniyatga monolit birlik sifatida qaraladi, ularning birligi va bir xilligi uchun muammo tug'dirmaydi. Til (lar) va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq anglash zarurati ko'plab zamonaviy jamiyatlarda lingvistik, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikning kuchayishi bilan bog'liq. Tilshunoslik va tillarni o'qitish sohasida odatda til va madaniyat ko'pincha birbiri bilan bog'liq deb bilish darajasida chambarchas bog'liqdir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning madaniy o'ziga xosligini ko'rsatuvchi belgi yoki ko'rsatkich sifatida ham qo'llaniladi. Tilning ifodali vositalarini bilish, uning uslubiy va semantik boyligidan barcha tarkibiy xilma-xilligida foydalana olish - har bir ona tili bu uchun harakat qilishi kerak. Moddiy madaniyat yodgorliklari muhofaza qilinadi va tiklanadi - bu ma'naviy tarixiy merosning bir qismi. Til ham xuddi shunday, u vulgarizmlar va jargonizmlar, o'zlashmalarning kamroq ishlatilishini ta'minlash. Shuning uchun biz til o'rganish jarayonida mentalitet, milliy xususiyat, uni ajratib turadigan boshqa farqlarga duch kelamiz. Ushbu holatda til o'rganish jarayonida o'sha xalqning urf-odatlarini, milliy xususiyatlaridan ham xabardor bo'lishi kerak. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'rganish ilm-fan va texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlarini bilish, boshqalarning urf-odatlarini, marosimlari, turmush tarzi, madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

XIX asr oxirida F.Boasning antropologik tadqiqotlari boshlanishi bilan "madaniyat" atamasi turli jamiyatlarga nisbatan ham qo'llana boshlandi. Madaniyatga nisbatan qarashlarning bunday modifikatsiyasi tilning qanday ahamiyat kasb eta borishi jihatidan juda muhim hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab til va madaniyat uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. A.Vejbitskaya, madaniyatning Klifford Gerts taklif qilgan ayniqsa samarali bir ta'rifini keltiradi. Unda aytilishicha, madaniyat – bu ramzlarda mujassamlashgan

mohiyatlarning tarixiy jihatdan shakllanadigan modelidir. Bu meros qoldiriladigan tasavvurlar tizimi bo'lib, ular yordamida odamlar o'zaro bir-biri bilan muloqotda bo'lishadi va ularning hayot haqidagi bilimlari hamda hayotiy qoidalari shu tasavvurlar asosida qayd qilinadi va rivoj topadi. E.Sepir madaniyatni mazkur jamiyatning ish yuritishi va fikrlashi uchun asos bo'ladigan narsa sifatida ta'riflagan. Ishga solingan tarkibiy qismlar, o'rganish maqsadlari va fan, madaniyatning turli sohalaridagi tadqiqotchilar mansub bo'lgan maktablarga qarab madaniyatning mazmuni va tuzilishi turlicha talqin qilingan. Madaniyat ta'rifiga nisbatan ijtimoiy yondashuv ushbu holatning tabiat, alohida shaxs bilan cheklanib qolmaydigan, balki muloqot qilib turadigan odamlar guruhiga xos bo'lgan biologik va fiziologik jihatlardan tamomila o'zgacha holat tarzida ko'rib chiqilishiga asoslanadi. Madaniyat ta'rifiga nisbatan kognitiv yondashuv shundan iboratki, madaniyat shaxs tomonidan o'zlashtira borilishi bilan fikriy voqeliklar, tuzilmalar va jarayonlar atamalarida ko'rib chiqilishi mumkin. Madaniyat tushunchasiga nisbatan bunday yondashuv madaniyatga bilim va bilish jarayoni sifatida alohida e'tibor beradi va kognitiv deb ataladi (V.Gudenaf).

Semiotik yondashuv madaniyatning, birinchi navbatda, dunyo in'ikosining keyinchalik muloqot vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan belgilar tizimi sifatida tushunishga asoslanadi (K.Levi-Stross). Lekin keltirilgan ta'riflarning hech birini to'laqonli deb bo'lmaydi, chunki ular madaniyatning ko'p qirrali tomonlarining faqat bir jihatini ochib beradi, ular madaniyatga nisbatan "yondashish" bilan cheklanadi va uni yaxlit holda ko'rib chiqmaydi. M.K.Mamardashvili va A.M.Pyatigorskiylar qayd qilishadiki, "madaniyat – bu obyektiv tarzda yo'naltirilgan fikrlash avtomatizmini joriy qiladigan hodisadir". Barcha madaniyat tadqiqotchilari qaysi aniq ilmiy maktabga mansubligidan qat'i nazar tilning ushbu murakkab holat tuzilmasidagi alohida rolini e'tirof etishadi. E.Sepirning yozishicha: "Til madaniyatning to'planishi va uning tarixan meros qoldirilishida katta rol o'ynashi shubhasiz. Bu madaniyatning eng yuksak darajalari va uning sodda

shakllariga ham birdek tegishlidir. Eng sodda jamiyat madaniyat fondining katta qismi ko‘proq yoki kamroq aniqlik bilan belgilangan til shaklida saqlanib qoladi” “Eng sodda madaniyat” atamasining qo‘llanilishi savol tug‘dirishi mumkin. Bizning fikrimizcha, har hil madaniyatlar amal qiladi-yu, lekin aslo “eng sodda” yoki “rivoj topgan” madaniyatlar bo‘lmaydi.

Z.K.Tarlanovning qayd qilishicha, “Til – bu kommunikatsiyaning oddiy bir shakli va oddiy vositasi emas, bu yana mutlaqo yahlit mustaqil bir olam bo‘lib, uning qonun va qoidalari o‘z mohiyatiga ko‘ra til vositasida ifodalansada, til sohiblarining ijtimoiy psixologiyasi va ular yaratadigan madaniyat tipi hamda tarkibi bilan g‘oyat nozik bog‘langan bo‘ladi. Etnomadaniyat etnik tilsiz yoki umuman bo‘lmaydi, yoki mavjud bo‘lsa ham, ishonchga sazovor emas, chunki etnos faqat o‘z tili orqaligina to‘liq va keng miqyosda, o‘zini betakror namoyon etadi. Boshqa tomondan olganda, etnik madaniyat, etnik dunyoqarash va bilish faoliyati tajribasidan ajralib qolgan til o‘zining teran mohiyatini yo‘qotadi va bu bilan oddiy muloqot vositalaridan biriga aylanadi” Til bilan madaniyatning o‘zaro munosabatlarini talqin etish nihoyatda murakkab ish. Til, tafakkur, madaniyat – bular har doim harakatda, o‘zgarishda bo‘ladigan hodisalardir. Ularni o‘rganish uchun ularni to‘xtatish zarur, lekin bu endi o‘sha “til”, “tafakkur”, “madaniyat” bo‘lmaydi, to‘g‘rirog‘i, ularning o‘zi bo‘lmaydi: ular o‘lik holda, harakatsiz, bir biridan ajralgan holda qoladi. Qaysi narsaning birlamchi bo‘lganligini belgilash mumkin emas, biroq shunisi haqiqatki, tilsiz etnos bo‘lmaydi, til o‘lishi hamon etnos ham, madaniyat ham barbod bo‘ladi. Har qanday madaniyatning yemirilishi, har doim aynan bir yo‘l - madaniyat elementlarining izolyatsiyalanishi yo‘li bilan sodir bo‘ladi, ya’ni, turmush sharoitlari o‘zgarishi natijasida simvolizm hayotni tark etganida madaniyatning ajralib qolgan elementi sifatidagi til ham shu asnoda halok bo‘lgan.

Shunday qilib, til, tafakkur va madaniyat o‘zaro shunchalik chambarchas bog‘lanib ketganki, amalda ular uchta tarkibiy qismdan iborat yaxlitlikni tashkil qiladiki, bu tarkibiy qismlarning hech biri boshqa ikkita tarkibiy

qisimsiz faoliyat yuritishi (binobarin, amal qilishi) mumkin emas. Ularning hammasi birgalikda atrofda olam bilan o'zaro nisbatda bo'ladi, uni aks ettiradi va ayni bir vaqtda shakllantiradi. Bunda ular dunyo manzaralari deb ataladigan hodisalarni hosil qiladi. Hozirgi tadqiqotlarda o'zaro bir-birining o'rnini almashtirib ishlatiladigan: "dunyo manzarasi" va "dunyo modeli" degan ikkita atama parallel ravishda qo'llaniladi. Biroq bizning fikrimizcha, ularning ma'nosida jiddiy farq bor. "Model" so'zi "qandaydir" mantiqan uyushgan, rejali narsadek tuyuladi, "manzara" tushunchasi esa birmuncha o'zgacha xususiyatga ega, unda ijodkorlik elementlari aks etadi. Shu sababli biz bundan keyin "dunyo manzarasi" atamasini ko'proq ishlatamiz.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining maqsadi va vazifalari

Lingvokulturologiya – "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning

hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi.

N.S.Trubetskiyning fikricha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”. Lison va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. Ya’ni, til va madaniyat. “Til va madaniyat” muammosining o‘rganilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondoshuv faylasuf olimlar (S.A. Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta’siridan borliqning o‘zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o‘zgarish yuz beradi, degan g‘oya yotadi². Navbatdagi yondoshuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondoshuvning asosiy g‘oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt,A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya’ni har bir xalq borliqni o‘z ona tilisi orqali ko‘radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g‘oya yotadi. Bu g‘oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni “O‘tkinchi dunyo”, ya’ni “borliqni anglash”, muayyan “mavjudlik va tafakkur” sifatida qaraluvchi g‘oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko‘pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo‘lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo‘lgan hodisalarni anglashga yordam berdi.

Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy va izdoshlarining lingvoantropologik yo‘nalishdagi ishlari buning isbotidir. Uchinchi yondoshuv to‘g‘ridan-to‘g‘ri til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va aloqadorligi g‘oyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini o‘zida namoyon etadi. Boshqa tomondan “madaniyat tilda” joylashgan, ya’ni u matnda to‘laligicha o‘z ifodasini topadi. “Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi

V.N.Teliyava, V.V.Vorobyov, V.A.Maslovava boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar.

Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi⁶. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarashlarga ko‘ra, til nafaqat madaniyat bilan bog‘liq, balki u o‘zida madaniyatning o‘rishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o‘zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta’minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma’naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallari real yaratiladi. Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvomadaniyatshunoslik vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi

Lingvomadaniyatshunoslik fanining o‘rganish obyekti

Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi. Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”. Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va

aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini berdi. Ya'ni, til va madaniyat.

Lingvokulturalogiyaning tadqiqot obyekti deganda, borliqning ayrim sohasidagi o'zaro aloqadagi jarayonlar, hodisalar majmuyi, tadqiqotning predmeti deganda esa, o'ziga xos xususiyatga, jarayonga va mezonlarga ega bo'lgan obyektning ayrim qismi tushuniladi. Masalan, barcha ijtimoiy fanlar uchun umumiy obyekt inson, ularning predmeti insonning muayyan tomoni va faoliyati hisoblanadi. Lingvokulturalogiyaning obyekti – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturalogiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturalogiyaning obyekti lingvistika va kulturalogiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi.

Lingvokulturaogiyaning obyekti haqida ba'zi munozarali fikrlar ham yo'q emas. Jumladan V.N. Teliyaning fikricha, lingvokulturalogiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A. Maslovaga ko'ra bu soha tilni ham sinxron ham diaxron jihatdan o'rganadi. Bundan tashqari, V.N. Teliya lingvokulturalogiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini takidlagan bo'lsa, V.A. Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilini lingvokulturalogik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozimligini alohida uqtiradi.

Lingvokulturemaning predmeti – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklore va diniy diskurslarda, paetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturalogik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotic tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin. Tadqiqot obyektining vaziyatidan kelib chiqqan holda, uning alohida lingvokulturalogik birliklaridan tashkil topgan bir qancha predmetlarini ko'rsatish mumkin.

Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: 1. Lingvomadaniyatshunoslik yorqin madaniy aloqalarni, lingvo madaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida sotsial guruh. 2. Diaxronik lingvomadaniyatshunoslik. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi. 3. Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik. Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullandi. 4. Tavsifiy lingvomadaniyatshunoslik. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K. Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obykti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar olingan. 5. Lingvomadaniy leksikografiya. Lingvo o‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G. Maltsevaning lingvoo‘lkashunoslik lug‘atini keltirishimiz mumkin. Bu lug‘at 25 bobdan iborat. Unda Olmon realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an‘analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyutatizimining rivojlanishi; uzunlik, og‘irlik, hajm, yuza; savdo-sotiqishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan. Yuqoridagilardan shuni aytishimiz mumkinki, bunday lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini yaratishda til hamda madaniyat munosabatini to‘g‘ri belgilash muhim sanaladi.

Lingvomadaniyatshunoslik fani doirasida chet el va O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari.

Linvomadaniyatshunoslik fani doirasida chet el va O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari XX asrning so‘nggi choragida shakllandi, "linpvokulturologiya"termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi

Moskva frazeologik maktabi tomonidan olibborilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumbolhdtga borib taqalishini tahkidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolg'ts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rolga o'ynaganligi tahkidlanadi.

O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o'rganilgan.

Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o'ziga xosliklarning tilda aks ettirilishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi bo'lsa-da, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yo'nalishlar shakllanib ulgurgan. Mazkur fanning asosiy vazifasi – til bilan madaniyatning bog'liq tomonini, ya'ni madaniyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini o'rganish, til va xalq mentaliteti o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tavsiflashdan iborat. O'zbekistondagi bir qator olimlar, xususan, A.Abduazizov, D.Ashurova, Sh.Safarov, O'.Yusupov, A.Mamatov va boshqa tadqiqotchilar lingvokulturologiya sohasiga salmoqli hissa qo'shib

kelmoqdalar. Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning qo'llanish jarayoni maqomidagi o'zaro ta'sirlashuvlarni o'rganuvchi fandır. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi. Professor D.Ashurova fikricha, lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalaridan biri – metodologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonunqoidalari hamda madaniyat nuqtayi nazaridan ajratib olingan til birliklarini (lingvokulturemalar) tizimiga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Solievanning nomzodlik ishi o'zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni nazarda tutish takidlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib ta'kidlay olamizki, lingvoma'naviyatshunoslik har ikkala sohaga taaluqli ma'naviyat va til haqidagi fan. Bu bilimlarning shubhasiz birligini anglatib, millatning mentaliteti, ma'naviy xususiyatlari va ularning tilda namoyon bo'lishini ifodalaydigan bu sohaning birlamchi maqsadi tilni o'rganish, ma'naviyatni saqlash hamda ularni birlikda mujassamlashtirishdan iboratdir. XIX asrda V.Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o'rganishda millat ma'naviyatiga asosiy e'tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalarni XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida o'ta tez sur'atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikdan alohida o'rin egalladi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra ma'naviyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq ma'naviyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyliigi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-ma'naviy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat ma'naviyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi

Turli xalqlar ma'naviyatida mavjud yuqorida keltirilgan o'ziga xosliklarning tilda aks ettirilishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi bo'lsa-da, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yo'nalishlar shakllanib ulgurgan. Mazkur fanning asosiy vazifasi – til bilan ma'naviyatning bog'liq tomonini, ya'ni ma'naviyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini o'rganish, til va xalq mentaliteti o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tavsiflashdan iborat.

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR

1. Lingvokulturologiya fani nima va u qanday masalalarni o'rganadi?

2. Lingvokulturologiyaning shakllanishiga qanday omillar ta'sir qilgan?
3. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot metodlari qanday?
4. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar (psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika) bilan aloqasi qanday?
5. Lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika qanday bog'liq?
6. Lingvokulturologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari qanday?
7. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik lingvokulturologiya doirasida qanday tushuntiriladi?
8. Lingvokulturologiyada milliy madaniyat va tilning o'ziga xosligi qanday o'rganiladi?
9. Turli tillarda madaniy kodlarning aks etishi qanday tadqiq etiladi?
10. Lingvokulturologik tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodi qanday ahamiyatga ega?
11. Lingvokultura tushunchasi nima va u qanday omillar bilan bog'liq?
12. Madaniy konsept tushunchasi nima va u qanday aniqlanadi?
13. Lingvokulturologik dominanta deganda nimani tushunamiz?
14. Madaniy kod tushunchasining mazmuni qanday?
15. Lisoniy manzara tushunchasi lingvokulturologiyada qanday tushuntiriladi?
16. Kross-madaniy kommunikatsiya lingvokulturologiyada qanday tadqiq etiladi?
17. Metafora va madaniy kod tushunchalari qanday bog'liq?
18. Etnospetsifik leksika nima va u lingvokulturologik tadqiqotlarda qanday ahamiyatga ega?
19. Madaniy tafakkur tushunchasi qanday til birliklarida aks etadi?

3-MAVZU. KONTSEPTUALLASHTIRISH VA KATEGORIYALASHTIRISH MASALALARI

1. Kognitsiya tushunchasi. Olamni kognitiv idrok etish masalasi.
2. Kontseptuallashtirish (ongda kontseptlar xosil qilish) tushunchasi.
3. Kontseptual tuzilmalar va kontseptual sistema tushunchalari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- **Kategoriyalashtirish** – bilimlarni tasniflash va umumlashtirish jarayoni.
- **Kategoriya** – o‘xshash xususiyatlarga ega tushunchalarni bir guruhga jamlovchi ong strukturalari.
- **Kognitiv kategoriya** – inson tafakkurida ma’lum bir mezon asosida shakllangan bilim toifasi.
- **Kategoriyalashuv darajalari** – umumiy, o‘rta va xususiy darajadagi kategoriyalar (masalan, “meva” – umumiy, “olma” – o‘rta, “qizil olma” – xususiy).
- **Kategoriyaviy a’zo bo‘lish** – tushunchaning muayyan kategoriya doirasiga tegishliligi.
- **Kategoriyalar hierarxiyasi** – tushunchalarni o‘zaro bog‘liqlik darajasiga ko‘ra tartibga solish.
- **Prototip nazariyasi** – tushunchalarning tipik vakili asosida tashkil etilishi (E. Rosh nazariyasi).
- **Periferik a’zolik** – kategoriya ichidagi kamroq tipik a’zolar.
- **Asosiy darajadagi kategoriya** – eng muhim xususiyatlarni o‘z ichiga olgan kategoriyalar.
- **Ontologik kategoriya** – mavjudlikning eng umumiy sinflari (masalan, “ob’ekt”, “hodisa”, “xususiyat”).

Kategoriya va kategoriyalashtirish tushunchasi. Kategoriyalashtirish kognitiv faoliyat sifatida. Kategoriyalashtirish va idellashgan kognitiv modellar. “Oilaviy mutanosiblik” kontseptsiyasi. E.Roshning prototiplar nazariyasi

Ikkinchi jahon urushidan keyin kibernetika vakompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan olimlar fikrlash, bilish va tushunish jarayonlariga, shuningdek, ma’lumotlarni ham inson ongida, ham kompyuter tizimida olish, saqlash, qayta ishlash va ifodalash bilan bog‘liq muammolarga yangicha qarashga majbur bo‘ldilar. Tarixchilarning fikricha, kognitiv inqilob deb

atalgan jarayon fanda 1950-1960 yillarda sodir bo'lgan va kognitologiya maktabi shakllana boshlagan³. Garchand kibernetika va kompyuter texnologiyalari inson ongi vazifasini o'tash uchun o'jizlik qilishini o'tmish tasdiqladi. Kognitiv tilshunoslik esa, o'z navbatida 1970- yillarning oxirlarida maktab sifatida shakllanishni boshlaydi. Ko'pchilik olimlar tilshunoslikda kognitiv yondashuvning paydo bo'lishini Jorj Miller va Filipp Jonson-Leyrdlarning mashhur "Til va idrok" kitobining nashr etilishi bilan bog'laydilar (Miller, Jonson-Leyrd 1976). Uning mualliflari til tizimini va leksikani psixologik jihatdan o'rganuvchi fan – "psixoleksikologiya" fanining asoslarini yaratish vazifasini o'z oldilariga qo'ydilar. Kelajak ko'rsatganidek, psixoleksikologiya fan sifatida shakllana olmadi, lekin kognitiv tilshunoslik Miller va Jonson-Leyrd tomonidan taklif qilingan g'oyalar va yondashuvlar asosida yuzaga keldi⁴. Kitob nafaqat ushbu sohaning kelajakdagi predmetini – muammosini, balki bilish va til xulq-atvori bilan bog'liq masalalar (tilni o'zlashtirish, tushunish, qo'llash va h.k. masalalari)ni, amaliy boshqa fanlarni keng jalb qilishga qaratilgan uning metodologiyasini ham aniqlashga qaratilgan edi. J. Miller va F. Jonson-Leyrdning pozitsiyasi assotsiatsiya g'oyalarini qat'iyon rad etish bilan tavsiflanadi, bu ularning ushbu muammoga munosabatini belgilaydi – ularning fikricha, bu savolni noto'g'ri qo'yish natijasidir. Ular so'zlar va idrok obyektlari o'rtasidagi barcha assotsiativ aloqalarni tushuntirish emas, balki ularning orqasida yotgan psixologik jarayonlarni o'rganish va tavsiflashni vazifa sifatida o'z oldiga maqsad qilib qo'ydilar. Ushbu tadqiqot leksik darajaga asoslanadi - chunki mualliflar nuqtayi nazaridan, leksik daraja til va idrok o'rtasidagi munosabatlarni ochib berish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni ta'minlaydi - lekin bu bilan cheklanmaydi, chunki kontekstni hisobga olmasdan turib ma'nolarni o'rganish mumkin emas. Mualliflar so'zlarning tashqi aloqalarini (narsalar olami bilan) ham, tilning leksik tizimi doirasidagi munosabatlarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Leksik semantikaning bu jihatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Miller va Jonson-Leyrd nuqtayi nazaridan, ulardan

faqat bittasini alohida ko‘rib chiqish asosida ma’no nazariyasini qurishga bo‘lgan barcha urinishlar muqarrar ravishda asossiz bo‘lib chiqadi. Mualliflarning ta’kidlashicha, obyektlarni, ularning xususiyatlari va munosabatlarini idrok etish insonning diqqatni jamlash orqali idrok etilayotgan vaziyatning ma’lum parametrlarini ajratib ko‘rsatish (boshqalarni e’tiborsiz qoldirish) va ularning xususiyatlari (davomiyligi, kuchi va boshqalar) haqida hukm chiqara olish qobiliyati bilan bog‘liq. Shunday qilib, so‘zlarning o‘zlashtirilishi inson ongida idrok qilinayotgan obyekt va unga hamroh bo‘lgan tovush majmuasi o‘rtasidagi mexanik bog‘lanishning mustahkamlanishi bilan bog‘liq degan hamda mohiyati idrok jarayoniga idrok etilayotgan vaziyatning turli xossalari va munosabatlariga e’tibor berish aktlarini hamda ular haqidagi mulohazalarni kiritishdan iborat mazmunidagi ilgari surilgan muqobil yondashuvga ega bixevioristik nuqtayi nazar rad etiladi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, so‘zlarni o‘zlashtirish uchun idrok obyektlarining o‘zi emas, balki ushbu diqqat va hukm harakatlari (acts of attention and judgement) ning natijalari asos bo‘ladi. Ularni belgilash uchun mualliflar predikat belgisidan foydalanadilar - masalan, Red (spot) (qizil (nuqta) belgisi idrok etuvchi –subyektning diqqatini nuqtaga qaratilganini va uning nuqtayi nazaridan bu nuqtaning rangi qizil ekanligini anglatadi. Bular perseptiv predikatlar (perceptual predicates) deb ataladi⁵. Yuqorida keltirilgan olimlar o‘zlari anglamagan holda kognitiv lingvistika ibtidosini boshlab berdilar. Aynan kognitiv tilshunoslik nomi ostida kognitiv tilshunoslikning yaratilishi Amerika tilshunoslari J. Lakoff, Jonson, R. Langaker, R. Jakendoff, Leonard Talmi va boshqalarning ilmiy taqiqotlariga borib taqaladi. Kognitiv tilshunoslikning rasmiy “tug‘ilishi”ni bir vaqtning o‘zida kognitiv tilshunoslik bo‘yicha Birinchi xalqaro konferensiyaga aylangan, 1989-yilning bahorida Duysburgda (Germaniya) o‘tkazilgan Xalqaro lingvistik simpozium bilan bog‘lashadi. Simpozium ishtirokchilari Xalqaro kognitiv lingvistika assotsiatsiyasi (International Cognitive Linguistics Association)ni tuzdilar, “Kognitiv lingvistika” (Cognitive Linguistics) jurnaliga asos soldilar va “Kognitiv lingvistika tadqiqotlari” (Cognitive

Linguistics Research) monografiyalari seriyasini yaratdilar, keyinchalik ular ushbu sohaning taniqli vakillarining asarlarini nashr etdilar. Mohiyatiga ko'ra, kognitiv lingvistika ushbu konferensiyadan avvalroq, 1980 yillarning oxirlarida shakllanib bo'lgan. Bu uning fanda paydo bo'lgan davri emas, balki gullagan davri, mazkur ideologiya ruhida yaratilgan ko'plab asarlarning nashr etilgan vaqti hamdir. Kognitiv tilshunoslik maktabi rasman shakllanishi davriga kelib, keyinchalik ushbu yo'nalishning klassiklari sifatida tan olingan bir qator monografiyalar tayyorlab qo'yilgan edi (masalan, Jorj Lakoff, Jonson 1980; Jonson Leyrd 1983, Faukonniyer 1985, Lakoff 1987, Langaker 1987 kabi olimlarning bir qancha ilmiy maqolalari va risolalari chop etib bo'lingan edi)⁶. Ba'zi boshqa olimlar esa, kognitologiya fan sifatida lingvistik va psixolingvistik tadqiqotlarning nisbatan yangi sohasi sifatida, 1990-yillar boshidagina, ushbu yondashuvga bag'ishlangan birinchi "Kognitiv lingvistika" jurnali nashr etilganda shakllangan degan fikrni olg'a surishadi⁷. Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi sifatida til tizimining bilish jarayonidagi ishtiroki va ulushini aniqlash belgilanadi. Til birliklarining egallanayotgan bilimning lisoniy voqelanishdagi ishtiroki hamda lisoniy faoliyatning axborotni shakllantirish va "qayta ishlash"dagi rolini aniqlash kognitiv tahlilning ko'rinishlaridan biridir. Kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik asosan inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog'liqligida tadqiq etuvchi, "tushuntiruvchi" fan sohasidir (Demyankov 1994)⁸.

Keyinchalik esa kognitiv tilshunoslik amerikalik kognitiv tilshunoslar Goldberg, Kazenhizer, Taylor, Gudson, Maykl Tomasello, Joan Baybi, Andrea Tayler, Yevropada ispan olimlari Kenni R. Koventri, Pedro Guijarro-Fuentes, ingliz kognitiv tishunoslari Villiam O'Greyd, Elena Liyeven

tomonidan tadqiqotlar obyektiga aylandi va Osiyo mamlakatlarida ham o'z tarafdorlariga ega bo'ldi⁹. Hozirgi kunda chet ellarda kognitiv tilshunoslik bo'yicha qator o'quv-qo'llanmalar va xrestomatiyalar yozilgan¹⁰. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish namoyandalari sifatida Sh. S. Safarov, D. U. Ashurova, A. E. Mamatov, G'. M. Hoshimov bir qancha tilshunoslar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar¹¹. Xitoy kognitiv tilshunoslik maktabi Amerika va Yevropa mamlakatlari maktablaridan andoza olgan holda 90-yillar oxiri va 2000-yillarda shakllana boshladi. Xususan, Jang Min (Kognitiv tilshunoslik va xitoy tilida otli birikmalar, 1998), Tsui Siliang (Kognitiv tilshunoslik: tadqiqot sohasi va tadqiqot metodlari, 2002), Vang Yan (Kognitiv tilshunoslik, 2007) kabi tilshunos olimlar kognitiv tilshunoslikka bag'ishlangan chet elda chop etilgan asarlarni tadqiq qilgan. Jang Min(张敏 Zhang Min)ning fikrlariga ko'ra, kognitiv tilshunoslik psixologiya, nevrologiya, falsafa va antropologiya kabi insonning bilish faoliyatini o'rganadigan tilshunoslikdan tashqari turli xil fanlarni, shuningdek ushbu fanlarga asoslangan kognitiv fanning tadqiqot natijalari va tahlil usullarini keng o'zlashtirdi, tilshunoslik doirasida lingvistik tipologiya va funksional tilshunoslikning tadqiqot yondashuvlarini birlashtirdi. Hatto nonobektivizm va funksionalizmning falsafiy va lingvistik qarashlarini o'zaro bog'lagan holda, inson tilining tuzilishini tavsiflaydi va tushuntiradi, shuningdek uning kognitiv funksional asoslarini tahlil qiladi¹². Tsui Siliang(崔希亮 Cui Xiliang) kognitiv tilshunoslikning tadqiq qilish tarixi ancha uzoq davom etgan-u, ammo, ammo kognitiv tilshunoslikning yuksalishi davrioxirgi qirq-ellik yil ekanligini ta'kidlagan. Tilshunosningfikriga ko'ra til bo'yicha kognitiv tadqiqotlarni ikki katta guruhgaajratish mumkin: biri psixologiyaga asoslangan tadqiqotlar(the psychological approach – psixologik yondashuv),yana biri tilshunoslikka asoslangan tadqiqotlar(the linguistic approach – lingvistik yondashuv). Psixologiyaga asoslangan tadqiqotlar tilni his etish, tushunish, xotirada saqlash, diqqat bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor qaratsa, tilshunoslikka asoslangan tadqiqotlartil shakllari, til birliklarining ma'nosi, shakl va ma'no o'rtasidagi jarayon, ma'no –

tushunchalar va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqasi kabi masalalarni tadqiqot obyektiga aylantiradi. Tilning kognitiv tahliliga aloqador asosiy masala bu til nima va til qanday usul va tuzilmalardan tarkib topadi degan ikkita savollarga javob topishdir. Til nima ekanligi haqida turli xil qarashlar mavjud, ularni shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: bir guruh tadqiqotchilar til – obyektiv hodisa, u insonning psixikasidan mustaqil holda mavjud, uni obyektiv tadqiqot sohasi sifatida ko'rish mumkin degan fikrda(客观主义 kè guān zhǔ yì– obyektivizm); yana bir guruh esa til va psixika o'zaro chambarchas bog'langan munosabatda, til obyektiv hodisa bo'la olmaydi, shu sababdan tilni tadqiqot qilayotganda til va psixika o'rtasidagi barcha aloqalarni ko'rsatish zaruriyati mavjud deya hisoblaydi(非客观主义 fēikè guān zhǔ yì – noobyektivizm). Tilshunoslik boshqa fanlarga o'xshamaydi, uning tadqiqot obyekti hamisha boshqa fanlar bilan bog'lanib kelgan. F. Sossyur tilshunoslikning materiallari va vazifalari haqida gapirar ekan: “Tilshunoslik materiallarini eng avvalo inson nutq faoliyatining barcha ko'rinishlari tashkil etadi.” Shunday ekan, inson nutq faoliyatining namoyon bo'lishiga nimalar kirishi kerak? Albatta, birinchi navbatda. hammasi bu tilning o'zi, chunki inson nutq faoliyati tilga asoslanadi. Shuning uchun, avvalo, til nima degan eng asosiy savolga javob berishimiz kerak. Hozirgacha turli lingvistik va nolingvistik asarlarda “til”ga o'nlab ta'riflar berilgan, turlicha qarashlar tufayli yagona to'xtamga kelinmagan. Sossyur lingvistik tadqiqot obyektlarining ko'p qirraliligini payqagan va tilshunoslikning boshqa fanlardan farqi uning tadqiqot obyektlarining ko'pxususiyatliligida deb hisoblagan(F.Sossyur 1916). Kognitiv lingvistika tilni mustaqil bo'lmagan kognitiv tarmoq sifatida qaraydi (Gudson 2001), u formal kategoriyalar, kontseptual tizimlar, munosabat ifoda tizimlari va bilim tizimlarini o'z ichiga oladi. Til qanday usul va tuzilmalardan tarkib topadi degan savolga javob berish uchun avvalo tilning qayerdaligini tushunishimiz kerak. Til o'ziga xos psixologik timsol bo'lib, u inson ongi va inson mavjudligining tashqi muhiti bilan o'ziga xos tarzda chambarchas

bog‘liq holatidadir. Inson mavjudligining aqli va tashqi muhiti insonning bilish qobiliyati bilan bog‘liq¹³.

Bilish faoliyatida uzoq muddatli xotiraning rolini maxsus o‘rgangan amerikalik psixolog J.Brunerning quyidagi fikrni bildirgan: “Til ham, tashqi ta’sirlarni boshqarishga o‘rgatuvchi har qanday ta’lim ham turlar va kategoriyalar haqidagi ma’lumotdan boshqa hech qanday bilimni yetkazmaydi. Agarda biror bir idrok (qilinayotgan hodisa – Sh.S.) kategoriyalar tizimiga kiritilmasa, ya’ni ma’lum bir kategoriyadan tashqarida qolsa, u yakka shaxs tajribasining tubsiz sukunatiga ko‘milgan orzudagi marvaridga, qaqnusga aylanadi” (Bruner 1977: 160). Kategoriyalashtirish – murakkab aqliy mental va lisoniy jarayondir. Ushbu jarayon ma’lum turdagi harakat bosqichlarini qamrab oladi: 1. Stimul (qo‘zg‘atuvchi sabab) tanlovi. Sezgi tizimiga kiruvchi (ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi) stimullardan faqatgina diqqatni jalb qiladiganlari tanlanadi; 2. Ajratish va tasniflash. Bu harakat tanlangan stimulni xotiradagi bilim bilan qiyoslash, moslashtirish yo‘li bilan bajariladi; 3. Nomlash. Hosil bo‘lgan kognitiv kategoriya (konsept) nom oladi (Barsalou 1987: 102)¹⁴. Insoniyat tili tuzilishi jihatidan quyidagi kategoriyalarga ajratiladi: (1) kontseptual tuzilma, (2) tashqi dunyo, (3) bilimlar tizimi. Konseptual tuzilma insonning bilish tizimining asosidir. Insoniyat konseptualizatsiya jarayonisiz o‘zini va dunyoni taniy olmaydi, konseptualizatsiya jarayoni qobiliyatning ikki jihatini o‘z ichiga oladi: biri mavhum qobiliyat, ikkinchisi esa tasavvur qobiliyati. Konseptual tizimning tashqi ko‘rinishi tildir. Konseptning o‘ziga xos tuzilishi bor, lekin konseptning mavjudligi va rivojlanishi tilning mavjudligi va rivojlanishi bilan chambarchas aloqaga ega. Tashqi dunyo obyektlar va ularning xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqi olam odamlarning subyektiv bilishiga bog‘liq emas, lekin tashqi olamning tavsifi va tavsifi odamlarning tushuncha tizimidan ajralmasdir. Odamlar har doim tashqi olamdagi mavjudotlarni tushunish va tan olish uchun o‘zlariga tanish bo‘lgan tushunchalardan foydalanadilar. Tilning shakli va ma’nosi konseptual tuzilish orqali tashqi dunyo bilan xaritalash aloqasini o‘rnatadi. Bilimlar tizimi

insonning kognitiv tajribasi yig'indisidir. Inson bilimlari tizimi tashqi dunyoni tasniflash va tashqi olamdagi mavjudotlarni tanish, mavjudotlarning sifatlarini tanish va mavjudotlar o'rtasidagi munosabatlarni tanishni o'z ichiga oladi.

Bilimlar tizimini ifodasini tildan ajratib bo'lmaydi, tilni ifodalash va tushunish esa bilimlar tizimini qo'llab-quvvatlashga bog'liq. 1.1. Psixologiyaga asoslangan til tadqiqoti. Psixologiyaga asoslangan til tadqiqotitilni asosiy kognitiv tizimlar nuqtai nazaridan o'rganadi, ular orasida hissiyot, idrok, xotira, diqqat va fikrlash bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga ega. Ushbu sohadagi tadqiqotlar laboratoriya tajribalari yoki instrumental qidiruvga asoslangan. An'anaviy eksperimental texnikalar nisbatan qoloq, keyinchalik paydo bo'lganzamonaviy texnologiyaning rivojlanishi bilan tilni idrok etish uchun intuitiv anglash dalillarini taqdim eta oladigan miyani skanerlash va miya tasviri kabi psixologik tajribalarga asoslangan tadqiqotlar yordamida yangi yutuqlarga erishildi, biroq ularning tilshunoslik muammolari hal qilish imkoniyati hali hamon juda cheklangan. 1.2. Tilshunoslikka asoslangan til tadqiqoti. Til shakllarini o'rganish tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Kategoriyalar va kategorizatsiyalash (turkumlashtirish) muammosi shakllarni o'rganish e'tibor markazida turadi. Kognitiv tilshunoslik kategoriyalar inson ongini qanday ifodalaydi, ya'ni biz narsalarni qanday turkumlashtiramiz degan asosiy savolga e'tibor qaratadi. Kategoriyalar haqidagi an'anaviy nazariyalar umumiy atributlarga asoslanadi va yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kategorizatsiyalash muammosi bundan ancha murakkabroq. Ular orasida prototip nazariyasi (prototype theory)insoniyatning kategorizatsiyalanishi umumiy xususiyatlar doirasidan ancha uzoqroq bo'lgan ba'zi asosiy tamoyillarga amal qilishini aniqlaydi. Bugina emas, Langaker kategorizatsiyalashning ikkita konsepsiyasini ham aytib o'tgan: biri prototiplar bo'yicha kategorizatsiyalash (categorization by prototypes), ikkinchisi sxemalar bo'yicha kategorizatsiyalash (categorization by schema)¹⁵. Prototipga asoslangan kategorizatsiyalashni quyidagicha ifodalash mumkin: bir guruhda bitta eng tipik vakil mavjud bo'lib, u guruhning prototipi hisoblanadi.

Guruhning boshqa a'zolari prototipga o'xshashlik darajasiga ko'ra prototip bilan mos keladigan darajalariga ega. Bu o'xshashlik darajasi o'z navbatida turlicha, ba'zi a'zolar prototipga ko'proq o'xshash, ba'zi a'zolar esa prototipga kamroq o'xshashdir. Sxemaga asoslangan toifalash nazariyasi prototip nazariyasiga mutlaqo ziddir: sxema barcha a'zolarining umumiy xususiyatlariga asoslanadi, bunda har bir a'zo darajaviy emas, bir sxema sxemaning barcha a'zolarini qamrab olishi mumkin.

Воқеликни идрок этиш ва уни билишнинг миллий-маданий хусусиятлари муаммоси тадқиқотчиларни узоқ вақтлардан бери қизиқтириб келмоқда ва ушбу муаммо ҳақида билдирилган фикрлар ҳам турли-туман, баъзан эса тамоман бир-бирига зиддир. Улардан айримлари ҳатто турли халқларнинг борлиқни идрок этиши батамом мос келмаслигини таъкидлашга ҳаракат қиладилар: «Барча халқлар ягона воқеликни турлича тасаввур ва тасвир қилишади» (Гачев 1967: 78; Қаранг: Гачев 1995). Г.Д.Гачевнинг бундан қарийб ўттиз йил олдин айтган бу фикри тилшунослар ва бошқа фан соҳалари вакиллари учун янгилик эмас эди. Ўз пайтида И.Кант ҳеч қандай тажриба ўтказмасдан туриб ҳам (фактлар тўплаш шарт эмас) онг категорияларини ажратиш мумкинлиги ҳақида гапирган эди. Шундан буён файласуфлар, психологлар, этнографлар, когнитологлар (А.Я.Гуревич, Л.С.Выготский,

А.Н.Леонтьев, А.Р.Лурия, В.Ф.Петренко ва бошқалар) борлиқни идрок этиш турли билим структуралари орқали бажарилиши ва ушбу структураларда олдинги тажрибада тўпланган билим - ахборот тартиблашган, умумлашган ҳолда акс топишини қайд этиб келишмоқда. Аммо у ҳолда олдинги тажриба қай шаклда қолиплашади ёки тизимлашади деган савол туғилиши табиийдир. Шубҳасиз, тажриба дастлабки ўринда инсоннинг бевосита кўз ўнгида, ўзи яшаб турган муҳитда юз бераётган воқеалар, унинг атрофидаги предметларни бевосита кузатуви, улардан фойдаланиши жараёнида тўпланади. Инсон фаолияти маълум миллий маданият, муҳит доирасида кечади. Шу сабабли

хар қандай турдаги билиш жараёнига оид структуралар, тузилмаларда миллий колорит мавжуд бўлиши ҳам табиийдир.

Сўзсиз, инсоннинг инсон сифатида шаклланишининг ўзи ҳам маданият билан боғлиқдир. Унинг нафақат интеллектуал фаолияти, балки оддий ҳаётий хатти-ҳаракатларининг барчаси ҳам миллий маданият кўзгусида акс топади ва ушбу маданият қонун-қоидалари «назорати»да бўлади. Ҳар қандай маданият атроф-муҳит таъсирида тараққий қилиб, ўзгариб боради. Турли миллатлар маданияти бир-биридан дастлабки ўринда воқеликни моддий ва маънавий ўзлаштиришдаги фарқи жиҳатидан ажралиб туради. Бундай фарқнинг асосида ўзлаштирилаётган объект ёки бу фаолият маҳсули эмас, балки ушбу моддий-маънавий ўзлаштириш жараёни қандай ёки қай услубда кечаётганлиги ётади. Шу сабабли маданиятни моддий ва маънавий, субъектив ва объектив, ички ва ташқи, шахс маданияти ва миллий маданият каби турларга ажратишади.

Маданият ҳеч қачон қотиб қолган ҳодиса сифатида талқин этилмаслиги лозим, у тараққий қилиб боради, бир ҳолатдан иккинчисига ўтади, бошқа маданиятлар билан қоришиб боради. Яна шуни унутмаслик лозимки, ҳеч бир инсон олдиндан маданиятли бўлиб туғилмайди, бунга у ижтимоий фаолият натижасида, мулоқот (кенг маънода) жараёнида эришади. Ахир бекорга антропологлар (К.Леви–Стросс, К.Гирц ва бошқалар) маданиятни инсонлар ўзаро муносабатларининг маҳсули сифатида таърифлашмаса керак.

Маданият шаклланишида инсонлар ўртасидаги мулоқотдан ташқари, воқеликдаги объектлар билан бўлган мулоқотнинг роли ҳам муҳимдир. Маълумки, инсон ва воқелик муносабатида лисон ўзига хос боғловчи, воситачилик ролини ўйнайди. Лисон ўзида воқеликни акс эттиради, маданият эса ушбу воқеликнинг ажралмас қисмидир. Воқеликнинг ўзини

ҳам миллий деб аташ мумкин ва бу миллийлик лисонда дунёни ўзига хос «кўриш», уни идрок этиш натижасида ўз аксини топади.

Лисон ва маданият муносабати масаласи мураккаб, жуда қийин ҳамда кўп томонлама муҳокамани талаб қиладиган масаладир. Улар тадқиқига жуда эҳтиёткорлик билан ёндашиш зарур бўлади, акс ҳолда бу икки турдаги семантик тизимни ягона бир қолипга тушириш хавфи ҳам йўқ эмас. Шунинг билан биргаликда бу икки тизимнинг ўзаро ўхшаш, умумийлик томонлари ҳам мавжудлигини унутмаслик лозим. В.Н.Телия бундай умумийликни қуйидагиларда кўради:

- 1) маданият, худди лисон каби, инсон дунёқарашини акс эттирувчи онг шаклидир;
- 2) тил ва маданият ўзаро муносабатда, мулоқотда бўлади;
- 3) тил ва маданиятнинг субъекти – бу доимо индивид ёки ижтимоий гуруҳ – жамоа шахс ёки жамият;
- 4) меъёрийлик (норма) тил ва маданият учун умумий хусусиятдир;
- 5) тарихийлик – тил ва маданиятнинг муҳим хусусиятидир;
- 6) тил ва маданиятга «динамика - статика» қарама-қаршилиги бир хилда ҳосилдир (Телия 1996: 225-226).

Дарҳақиқат, олима эслатганидек, тил ва маданиятни яқинлаштирадиган умумий хусусиятлар анчагина (бекорга кўпчилик тилни миллий маданиятнинг ажралмас қисми, бир бўлаги сифатида талқин қилишмаса керак). Айни пайтда, бу икки ҳодисани бир-бирига бутунлай қориштириб юбориш унчалик тўғри бўлмаса керак. Тил ва маданият ўртасидаги умумийлик қанчалик даражада бўлмасин, уларни фарқловчи хусусиятлар ҳам етарлидир. Бу фарқ, биринчи навбатда, ушбу икки ҳодисанинг тизимийлик кўрсаткичларида намоён бўлади: маданият ҳам белгилар системасидир. Аммо ушбу система, тил тизимидан фарқли ўлароқ, ўз-ўзидан тартиблашиш, тизимлашиш хусусиятига эга эмас. Умуман, тил ва маданият тизимлари таркибидаги белгилар структуравий тузилиши ва бажарадиган вазифаларига кўра кескин фарқ қилишларига нисбатан тамоман бошқа системалар сифатида эътироф этилади. Бундан ташқари, тил барча учун бир хил вазифа бажарувчи, «жамоавий адресатли» ҳодиса

бўлса, маданиятда эса кўпроқ элитарлик (саралик) намоён бўлади. Демак, тил ва маданият ўртасидаги муносабат изоморфликдан (айнанликдан) кўра кўпроқ хомоморфлик, яъни структуравий ўхшашликдан иборат деган хулоса ҳақиқатдан узоқ эмас. Ҳар қалай, хомоморфлик фақатгина бу икки тизимнинг таркибий тузилишида намоён бўлиб қолмасдан, уларнинг вазифа жиҳатидан ҳамоҳанглигида ҳам акс топса ажаб эмас.

Тилнинг маданият учун «хизмат» қилишини маданий -маънавий бойлик, ахборот манбаларини сақлаш, уларни авлоддан - авлодга етказиш ҳамда маданий тушунчалар ва концептлар, стереотип ва эталон-намуналарни шакллантиришда бевосита иштирок этишини ҳеч қачон инкор этиб бўлмайди.

Тил ва маданият ўртасидаги детерминизм, яъни ўзаро бир-бирини тақоза этиш ҳақиқий «ўзарочилик»дир. Шу сабабли турли мамлакатлар олимлари томонидан тил ва маданият муносабати масаласи турли йўналишларда ўрганилаётганлиги табиийдир. Бу муаммо тилшунослар Ю.С(орокин , В.Телия, Е.Верещагин, А.Вежицкая, В.Костомаров, Д.Олфорд, Д.Хаймс кабилар) билан файласуфларнинг (Г. Брутян, Э. Маркарян ва бошқалар), психологларнинг (Л.Выготский, А.Леонтьев, В.Петренко, П.Гульвисте) эътиборини тортиб келмоқда. Бу масала нутқ маданиятига оид тадқиқотларда муҳим ўрин эгаллайди Ю.(Скворцов, Э.Бегматов, А.Маматов, Б.Ўринбоев ва бошқалар). Кейинги йилларда тилшуносликда лингвокультурологиянинг алоҳида тадқиқот йўналиши сифатида шакл топиши (В. Красных, В. Маслова, Д. Гудков, С.Тер - Минасова, Д. Ашурова) бу масаланинг долзарблашишига сабаб бўлмоқда.

Дарҳақиқат, ҳар бир шахснинг лисоний қобилияти ва мулоқот малакаси маълум маданият ҳудудида, маданий муҳитда шакл топади ва фаоллашади. Шундай экан, инсоннинг тафаккур ва лисоний фаолияти жараёнида юзага келадиган бирликларнинг структуравий ва мазмуний сатҳларида маданий элементларнинг акс топиши табиийдир. Олдинги саҳифаларда инсон ҳар қандай воқеа - ҳодисани, предметни идрок этиш,

унинг ҳақида маълум тушунчага эга бўлишда беихтиёр ёки баихтиёр олдинги тажрибасига таянишини эслатган эдик.

Аммо «олдинги тажриба» қандай шаклда ва қай йўсинда пайдо бўлишини ҳам билиш керак. Сўзсиз, бу тажриба миллий маданият муҳитида, кундалик ҳаёт фаолиятида учрайдиган воқелик ҳодисалари таъсирида юзага келади. Шу сабабли турли маданият вакиллари учун категориялаштириш ҳодисаси бир хилда кечмайди.

Категориялаштириш фаолиятининг маданий – миллий хусусиятларини, унинг бевосита маданий муҳит билан боғлиқ томонларини илмий асослашга биринчилардан бўлиб ҳаракат қилишган тилшунос олимлар Вильгелм фон Хумбольдт ва Эдуард Сепирлардир. Улар миллий тиллар луғат ва грамматик тизимлари ўртасидаги фарқни тил соҳиблари – инсонларнинг воқеликни қабул қилиш ва идрок этишидаги фарқ билан боғлашга ҳаракат қилишган.

В.Хумбольдт турли миллат ва маданият вакилларининг воқелик ҳақида тасаввури мос келмаслигини исботламоқчи бўлади. «Турли тиллар – ягона бир предметни турлича номланишидан кўра, ушбу предметни турлича кўриш, идрок этишдир» (Гумбольдт 1984: 9). Воқеликни турлича «кўриш» ҳамда категориялаштириш, айниқса, грамматик тизимлар қиёсида аниқ намоён бўлади. Э.Сепирнинг образли таърифича, «тил айрим ҳолларда ўз таснифларида бемантик ва қайсар...У ўзининг қатъий чегарали каптархоналарига эга бўлишни истайди ҳамда каптарларнинг бир уядан иккинчисига учиб ўтишига йўл қўймайди. Ифодага талабгор ҳар қандай тушунча тасниф қоидаларига бўйсунити лозим» (Сепир 1934: 77).

Тасниф қоидаларининг муҳимлиги ментал ҳаракатларда ҳам ўз аксини топади. Э.Сепирнинг фикрича, биз осмондан «тошлар» категориясига кирувчи предмет тушаётганини кузатаётганимизда, бу ҳодисани икки тушунчага тақсимлаймиз («тош», «тушмоқ» тушунчалари). Натижада инглиз тилида бу ҳодиса the stone falls жумласи воситасида номланади.

Олмон ва фаранг тилларида «тош» сўзида род категорияси ҳам ифода топади, бироқ бу тилларнинг бирида мужской род, иккинчисида женский. Чиппева тилида эса род тушунчасидан кўра жонли/жонсизлик категорияси муҳимроқ. Кватиутл қабиласи вакили «тош тушаяпти» мазмунидаги жумлани тузишда сўзловчи тошни кўриш ёки кўрмаслиги ҳамда тошнинг унга яқин ёки узоқлигига эътиборни қаратади. Яна бир қизил танлилар тили – нуткида «тош» сўзининг ишлатилиши шарт эмас, улар бу жумлани ягона бир феъл шаклида ифодаляйдилар (ўзбек тилидаги «тошламоқ» шаклини қиёсланг).

Бирор бир маданий муҳитда маълум турдаги тузилмаларнинг бўлмаслиги уларни лисоний ифодалашнинг имкони йўқлигидан дарак бермайди (масалан, бу ифода тавсифий баён усулида, жумлалар, гаплар воситасида бажарилиши мумкин). Худди шунингдек, грамматик категориялардаги фарқлар у ёки бу категорияда ифода топадиган мазмун маълум муҳитда бошқа тилда сўзловчи томонидан мантиқан идрок этилмади, деган хулосага олиб келмаслиги керак. Ўз даврида Прага лингвистик тўғарагининг собиқ вакилларида бири Р.Якобсон ўзига хос бир фаразни муҳокамага ташлаган эди: тиллар бир-бирида бирор нарсани ифодалай олишлари билан эмас, балки ушбуни ифодалашлари шартлиги билан фарқ қилишлари керак (Jakobson 1987: 433).

Айтайлик, айрим ғарб тиллари феъл тизимида мавжуд бўлган плюсквамперфект категорияси мазмунини ўзбек тилида тиклаш учун таржимонлар «аллақачон», «ўшангача», «шундан сўнг» каби равиш бирликларига мурожаат қилишга мажбурдирлар.

Лекин муҳокама қилинаётган масалага оид энг асосий фараз «лисоний нисбийлик» номи билан машҳурдир. Фанда Сепир – Уорф номи билан маълум бўлган ушбу фаразни 1930 йилларда Б.Л.Уорф ўз устози Э.Сепир ғояларига таянган ҳолда шакллантирди (Darnell 1990: 340). Б.Л.Уорф (the Worf Hypothesis) олға сурган методологик ғояларнинг мазмунини қисқа қилиб қуйидагича изоҳлаш мумкин: турли тилларда сўзловчи ва турли

маданиятларга тобе шахслар воқеликни бир хилда идрок этишмайдилар. «Биз табиатни (воқеликни –Ш.С.) лисонимиз кўрсатган йўналишда қисмларга ажратамиз.

Оламдаги ходисалар, категориялар, турларни уларнинг аниқ мавжудлигига нисбатан ажратмаймиз, аксинча, олам бизнинг онгимизда мисли чархпалакдек айланиб турган таассуротлар асосида тартиб топади. Демак, бу тартибни онгимизда сақланаётган тил тизими таъминлайди. Биз оламни у ёки бу йўсинда (бошқача эмас) қисмларга ажратишимиз, тушунчалар воситасида ифодалашимиз ва маъноларга тақсимлашимизнинг сабаби биз ҳам бундай тизимлаштиришга ундовчи келишув иштирокчиларимиз. Бу келишув маълум бир лисоний жамоа учун мажбурий ва бизнинг лисонимиз тизимидан жой олган...

Шундай қилиб, нисбийлик тамойилининг янги кўринишига дуч келамиз ва унинг мазмуни қуйидагича: бир хил физик ходисалардан таркиб топган оламнинг бир хилдаги тасвирига фақатгина тил тизимларининг бир хил ёки ҳеч бўлмаганда ўхшашлигидагина эришиш мумкин» (Уорф 1960: 174-175).

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR

1. Kognitsiya nima va u qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
2. Kognitiv fanlar qaysi sohalarni o'z ichiga oladi?
3. Inson ongida bilim qanday shakllanadi va qayta ishlanadi?
4. Kognitiv jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur, nutq) qanday bog'langan?
5. Til kognitsiya jarayonida qanday rol o'ynaydi?
6. Sun'iy intellekt va kognitsiya o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
7. Kognitiv lingvistika kognitsiya tushunchasini qanday tushuntiradi?
8. Kognitiv fanlar va neyrobiologiya qanday bog'liq?
9. Olamni idrok etish kognitsiya nuqtayi nazaridan qanday kechadi?
10. Kognitiv jarayonlar va inson psixologiyasi o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
11. Olamni idrok etish jarayoni qanday amalga oshadi?

12. Inson ongida reallik qanday modelashtiriladi?
13. Kognitiv tajriba va shaxsiy dunyoqarash o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
14. Olamni idrok etishda tilning roli qanday?
15. Idrok jarayoni madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liqmi?
16. Vizual va verbal idrok o'rtasidagi farqlar qanday?
17. Lingvistik nisbiylik gipotezasi (Sapir-Whorf nazariyasi) olamni idrok etishda qanday rol o'ynaydi?
18. Kognitiv jarayonlar va metafora qanday bog'liq?
19. Sun'iy intellekt olamni idrok etish jarayonini qanday modelashtiradi?
20. Kognitiv idrokni yaxshilash yoki manipulyatsiya qilish mumkinmi?
21. Kontseptuallashtirish nima va u qanday jarayon?
22. Kontseptuallashtirish qanday kognitiv mexanizmlar asosida amalga oshadi?
23. Til kontseptuallashtirish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
24. Kontseptuallashtirish va abstrakt tafakkur qanday bog'liq?
25. Inson ongi olamni kontseptuallashtirishda qanday strategiyalardan foydalanadi?
26. Kontekst kontseptuallashtirish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?
27. Metafora va metonimiya kontseptuallashtirish jarayonida qanday rol o'ynaydi?
28. Kognitiv lingvistika kontseptuallashtirishni qanday o'rganadi?
29. Kontseptuallashtirish individual va jamiyat ongida qanday farqlanadi?
30. Turli tillar va madaniyatlarda kontseptuallashtirish qanday farqlanadi?
31. Kontseptuallashtirish nima va u qanday jarayon?
32. Kontseptuallashtirish qanday kognitiv mexanizmlar asosida amalga oshadi?
33. Til kontseptuallashtirish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
34. Kontseptuallashtirish va abstrakt tafakkur qanday bog'liq?
35. Inson ongi olamni kontseptuallashtirishda qanday strategiyalardan foydalanadi?
36. Kontekst kontseptuallashtirish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

37. Metafora va metonimiya kontseptuallashtirish jarayonida qanday rol o'ynaydi?
38. Kognitiv lingvistika kontseptuallashtirishni qanday o'rganadi?
39. Kontseptuallashtirish individual va jamiyat ongida qanday farqlanadi?
40. Turli tillar va madaniyatlarda kontseptuallashtirish qanday farqlanadi?

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Olam manzarasi.

1. Olamning konseptual manzarasi, olamning lisoniy manzarasining tadqiqot ob'ekti.
2. Концептуал ва лисоний дунё тасвири тушунчалари ва уларнинг ўзаро муносабатлари.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- **Olam manzarasi** – insonning dunyo haqidagi bilimlari va tasavvurlari yig'indisi.
- **Konseptual manzara** – inson tafakkurida shakllangan dunyo tasviri.
- **Lisoniy manzara** – til orqali ifodalangan dunyo tasviri.
- **Madaniy manzara** – xalqning urf-odatlar, qadriyatlar va madaniy kodlari asosida shakllangan tasvir.
- **Kognitiv manzara** – dunyoni idrok qilish va tafakkur jarayonlarining umumiy modeli.
- **Falsafiy manzara** – dunyoni falsafiy yondashuv orqali tushuntirish tizimi.
- **Ijtimoiy manzara** – jamiyatdagi munosabatlar va qadriyatlar tizimi orqali shakllangan tasvir.
- **Tarixiy manzara** – muayyan davrda mavjud bo'lgan dunyo tasavvuri.
- **Etnolingvistik manzara** – til va madaniyat asosida shakllangan olam tasviri.
- **Ekologik manzara** – insonning tabiat va atrof-muhitga bo'lgan qarashlari yig'indisi.

Konseptual manzara	Lisoniy manzara
Dunyoning ongdagi modeli	Dunyoning til orqali ifodasi
Kognitiv jarayonlar asosida shakllanadi	Til birliklari orqali aks etadi
Biologik va madaniy omillar ta'sirida rivojlanadi	Til va lingvistik strukturalar ta'sirida rivojlanadi

Zamonaviy dunyo fanlari taraqqiy etib turgan bir davrda tilshunoslik fanida eng muhim mavzulardan biri olam va uning lisoniy manzarasi, ular to'g'risidagi bilimlar majmui hamda ularning fragmentlarini hamda ma'naviy — madaniy konseptlarni o'rganish eng dolzarb mavzulardan biriga aylanib qoldi. Til vositalari bilan anglanadigan olamning lisoniy manzarasi timsollari — ilmiy va sodda manzaralari ham mavjuddir.

Olamning ilmiy manzarasi - bu fanda ishlab chiqilgan fundamental tushunchalar va fanning prinsiplari bilan ifodalanadigan borliq haqidagi tasavvurlarning eng umumiy tizimidir. Bu tasavvurlardan ushbu fanning asosiy postulat (dastlabki qoida, faraz)lari kelib chiqadi.

Olamning sodda manzarasi esa - kundalik hayotda qo'llaniladigan borliq haqidagi fangacha bo'lgan bilimlar va tasavvurlar tizimi.

Lingvomadaniyatshunoslikning xazinasida mustahkam o'mashgan “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasiga murojaat uning falsafa faniga aloqador “olam manzarasi” tayanch tushunchasi bilan o'zaro bog'lanishini aniqlashni talab qiladi. Madaniyatshunoslar e'tibomi, eng avvalo, subyektga bog'liq bo'lgan olam manzarasining xilma-xilligi faktiga qaratadilar, subyekt esa alohida inson, odamlar to'dasi, ma'lum bir xalq, umuman insoniyat bo'lishi mumkin.

“Manzara” (“kartina”) so'zida biz, eng avvalo, biror narsaning in'ikosi (aks etishi) haqida o'ylaymiz, ammo, mazmunan, “olam manzarasi” tushunchasi borliqni tasvirlovchi manzarani emas, balki, tushunchalami manzara sifatida ifodalaydi.

“Olamning lisoniy manzarasi” termini — bu metaforaga qaraganda kengroq tushuncha, chunki voqelikda ma'lum bir kishilar jamoasining noyob ijtimoiy-

tarixiy tajribasi qayd qilingan milliy tilning o'ziga xos xususiyatlaridir. Bu til sohiblari uchun obyektiv mavjud bo'lgan olam manzarasidan ajralib turadigan qandaydir betakror olam manzarasini yaratmaydi, balki predmetlarning milliy ahamiyati, hodisalar, jarayonlar, mazkur xalqning o'ziga xos faoliyati, turmush tarzi va milliy madaniyati keltirib chiqaradigan, o'ziga xos ma'naviy o'zgachaligini yaratadi.

Olam manzarasining individual va ijtimoiy anglash asosida yotgan narsani olamni bilish deb atash mumkin. Olam manzarasi predmetlar, jarayonlar, xususiyatlar va boshqalarning "suratlari", "tasvirlari" to'plami emas, chunki u o'zida ham aks ettirilgan ob'yektlarni, ham uni aks ettiruvchi sub'yektning nuqtai nazarini, uning bu ob'yektga munosabatini o'z ichiga oladi, buning ustiga sub'yekt nuqtai nazaridan — xuddi obyektlar kabi reallikdir.

Bundan tashqari, inson olamni passiv holda emas, balki faoliyatda aks ettirar ekan, obyektlarga bo'lgan munosabat u tomondan nafaqat keltirib chiqariladi, balki bu obyektlarni o'zgartirib yuborishga ham qodirdir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy-tipik vaziyatlar, munosabatlar, baholar tizimi milliy til tizimida aks ettiriladi va olamning lisoniy manzarasini qurishda ishtirok etadi. Masalan, ruscha "kogda rak na gore svistnet" (qisqichbaqa tog'da xushtak chalganda) iborasi ingliz tilidagi "kogda svini poletyat" (cho'chqalar uchgan paytda), qirg'iz tilidagi "eshakning dumi yerga tekkanda", o'zbek tilidagi "tuyaning dumi yerga tekkanda" iboralari bilan mos keladi va hokazo.

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasi, umuman olganda, odamlarning ongida uning mantiqiy in'ikosiga mos keladi. Bizning ishonchimiz komilki, bunga tildan tilga o'zgaruvchi frazeologik birliklar ham taalluqlidir.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va bu muammoning yechimini topishga karatilgan dastlabki urinishlar V. Gumboldt asarlarida kuzatiladi. Uning ta'limotining asosiy xulosalari quyidagilar:

- 1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda o'z aksini topadi;
- 2) har qanday madaniyat milliy, uning milliy tabiati tilda olamni o'ziga xos

ravishda ko'rish orqali ifodasini topadi; tilga har bir xalq uchun xos bo'lgan ichki shakl mavjud;

3) tilning ichki shakli — bu “xalq ruhi”, uning madaniyatining ifodasi;

4) til inson va uni o'rab turgan olam o'rtasidagi bir zanjir.

V. Gumboldtning mazkur ta'limoti A.A. Potebnyaning “Misl I Yazik” kitobi hamda Sh. Balli, J. Vandries; I.A. Boduen de Kurtene, R.O. Yakobson va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'ziga xos ravishda rivojlantirilgan.

2. DUNYO TASVIRI TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI: KONSEPTUAL DUNYO TASVIRI, LISONIY DUNYO TASVIRI, MILLIY DUNYO TASVIRI

Olam manzarasining ko'p variantligi kishining ijtimoiy tajribasiga bog'liq, boshqacha qilib aytganda, kuzatuvchi qarab turgan his qilish (tushunish, anglash, idrok etish) dunyosi qancha bo'lsa, shuncha olam manzarasi mavjuddir. Tegishli olam manzaralari — mifologik, diniy, falsafiy, ilmiy manzaralar olamni ko'rishning tegishli yakunidir.

Agar olam manzarasining xilma-xilligi haqidagi g'oya nisbatan yaqin vaqtlarda aytilgan bo'lsa, olamning alohida o'ziga xos lisoniy manzarasi ko'rinishining mavjudligi haqidagi fikr V.fon Gumboldt tomonidan XIX asrning boshlaridayoq bildirilgan edi. Ta'kidlash joizki, olamning lisoniy manzarasi bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlarda u ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Bir tomondan, ushbu tilga tegishli bo'lgan o'ziga xos konseptlar, har bir tilga oid spetsifik tushunchalar yoki nospetsifik ranglarni ifodalovchi so'zlar aniqlanadi va tasvirlanadi. Boshqa tomondan, muayyan tilga, garchi sodda bo'lsa ham, xos bo'lgan konseptual tushunchalar ma'nolari haqida tadqiqotlar faol tarzda olib boriladi. Bu qoidalar olamning sodda manzarasi fragmentlarini tasvirlashga harakat qilingan tadqiqotlar uchun tayanch bo'lib qoldi.

Ammo olam sodda manzarasining u yoki bu fragmentini tadqiq qilish ikkita o'lchovni — til materialini tanlash va uni interpretatsiya qilishni shart qilib qo'yadi. Bizning fikrimizcha, “olamning lisoniy manzarasi” va “konsept”

tushunchalarini o'rganishda bu o'zini oqlaydi. "Konsept" termini hozirgi fanda eng faol terminlardan biri, ammo uning mazmuni yetarli darajada aniqlanmagan.

Konseptual dunyo manzarasini yaratishda til asosiy va faol rol o'ynaydi. U insonni boshqa butun olamdan ajratib turadigan noyob xususiyatdir. Ona tilini idrok qilish uni egallashning tabiiy uslubini belgilaydi, inson ona tilini tug'ilgandan boshlab, ona suti bilan birgalikda egallaydi.

Shuningdek, til insonning borliq haqidagi bilimlari shakllanishining va mavjudligining eng muhim yo'lidir. Faoliyat jarayonida obyektiv borliqni aks ettirib, inson idrokining natijalarini so'zda mustahkamlaydi.

Olamning lisoniy manzarasi reallikning obyektiv bilimlarini to'ldiradi. Til shaklida aks ettirilgan bu bilimlarning majmui turli konsepsiyalarda "oraliqdagi lisoniy olam", "olamni tilda qayta tasavvur qilish", "olamning lisoniy modeli", "olamning lisoniy manzarasi" deb ataladigan tushunchalardan iborat. Tilshunoslikda bu tushuncha ko'p tarqalganligi bois biz "olamning lisoniy manzarasi" terminini tanlaymiz.

"Olam manzarasi" tushunchasi (shu jumladan olamning lisoniy manzarasi) insonning borliq haqidagi tasavvurlarini o'rganishdan tashkil topgan. Borliq-bu inson va muhitning birgalikdagi o'zaro munosabati, olam manzarasi esa — "muhit va inson haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir". Til bizga mentallikning yashirin sohasiga kirishga yordam berishga qodir yagona vosita hisoblanadi, zero til u yoki bu madaniyatdagi olamni qismlaiga bo'lish bilan birga uning ichki xususiyatlarini aniqlab bera oladi.

V. Gumboldt yozgan edi: "Tilni o'rganish bu pirovard maqsad emas, biroq u boshqa sohalar bilan birgalikda olinganda, insoniyatning o'zligi va o'zining atrofidagi ko'zga ko'rinadigan va ko'rinmaydigan narsalami o'rganishdek oliy va umumiy maqsadga xizmat qilishni talab etadi" .

Qator adabiy janrlarda inson asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bular jumlasiga nomalar, solnomalar, taijimai hol, maktublar, qissalar kiradi.

E. Benvenist yozganidek, til inson tabiatiga xos, shu bois u sun'iy.

Ma'lumki, madaniyatni inson, inson shaxsi yaratadi va uning o'zi unda yashay

boshlaydi. Aynan shaxsda insonning ijtimoiy tabiati oldingi planga chiqib oladi, odamning o'zi esa ijtimoiy-madaniy hayot subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs etnos yoki xalqning madaniy an'ana istiqbollari nuqtai nazaridan o'rganilishi shart, chunki odam tasavvurida inson tug'ilishi uchun madaniyat doirasida shakllanuvchi madaniy-antropologik prototip zarur.

R.Yakobson ta'rifiga ko'ra, funksional jihatidan "til aqliy va ma'naviy yashash va muloqot qilish vositasi hisoblanadi". Shuni ham aytib o'tish kerakki, turli semiotik tizim bo'lishiga qaramay, ular o'zaro ko'pgina o'xshash jihatlarga ega:

- 1) madaniyat til kabi odamning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllari hisoblanadi;
- 2) madaniyat va til doimo o'zaro muloqot holatidalar;
- 3) madaniyat va til sub'yekti — bu doimo individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat;
- 4) me'yoriylik — til va madaniyat uchun umumiy bo'lgan xususiyat;
- 5) tarixiylik — til va madaniyatning eng ahamiyatli belgilaridan;
- 6) til va madaniyat uchun "dinamika — statika" antinomiyasi xos.

Til va madaniyat: 1) kommunikatsiya;

2) ontogenez (odamning lisoniy qobiliyatining shakllanishi);

3) filogenez (jinsiy, ijtimoiy odamning shakllanishi) jarayonlarida o'zaro bog'liq.

Til va madaniyat mutanosibligidan hosil bo'luvchi manzara haddan tashqari murakkab va ko'p aspektlidir. Bunda butun borliq, milliy-madaniy stereotiplar (qoliplar) hamda tilning o'zi ham o'zgaradi. V. Gumboldt, A.A. Potebnyalar tilni ma'naviy kuch-qudrat sifatida talqin etishgan. Til bizni o'rab olgan shunday bir muhitki, uning ishtirokisiz va undan tashqarida biz yashay olmaymiz. V. Gumboldt yozganidek, til — bu "tashqi voqea-hodisalar bilan insonning ichki dunyosi orasidagi olam".

Ayrim mualliflarning tadqiqotlarida lisoniy nisbiylik farazi, eng avvalo,

D. Olford, Dj. Kerrol, D. Xayms va boshqa mualliflar asarlarida jiddiy ma'no kasb etdi. Bunda Sepir va Uorf ta'limoti sezilarli darajada to'ldiriladi.

Jumladan, D. X. Xayms tillarning yana bir funksional nisbiyligi prinsipini kiritadi.

Unga ko'ra, tillar o'rtasida ularning kommunikativ funksiyalari tabiatida tafovutlar mavjud. Biroq, ayrim tadqiqotlarda lisoniy nisbiylik farazi qattiq tanqid ostiga olinadi.

Turli manbalarda dunyo tasviri turlicha izohlanadi. Jumladan, internet manbalarida quyidagicha:

Dunyoning ilmiy surati - tabiatshunoslikdagi fundamental tushunchalardan biri - bilimlarni tizimlashtirishning maxsus shakli, turli ilmiy nazariyalarni sifat jihatidan umumlashtirish va mafkuraviy sintez qilish. Obyektiv dunyoning umumiy xususiyatlari va qonuniyatlari haqidagi g'oyalarning ajralmas tizimi bo'lib, dunyoning ilmiy manzarasi dunyoning umumiy ilmiy manzarasini va alohida fanlar dunyosi (fizika, biologik) tasvirini o'z ichiga olgan murakkab tuzilma sifatida mavjud. , geologik va boshqalar) komponentlar sifatida. Ayrim fanlar olamining suratlari, o'z navbatida, tegishli ko'plab tushunchalarni o'z ichiga oladi - har bir alohida fanda mavjud bo'lgan ob'ektiv dunyoning har qanday obyektlari, hodisalari va jarayonlarini tushunish va talqin qilishning ma'lum usullari. Dunyo haqidagi bilim va mulohazalar manbai sifatida fanning asosiy rolini tasdiqlovchi e'tiqod tizimi scientizm deb ataladi.

Atrofdagi dunyoni bilish jarayonida inson ongida bilim, qobiliyat, ko'nikma, xatti-harakatlar va muloqot turlari aks etadi va mustahkamlanadi. Insonning kognitiv faoliyati natijalarining umumiyligi ma'lum bir modelni (dunyoning rasmini) tashkil qiladi. Insoniyat tarixida dunyoning juda ko'p xilma-xil suratlari yaratilgan va mavjud bo'lib, ularning har biri dunyoni ko'rishi va o'ziga xos tushuntirishi bilan ajralib turardi. Biroq, atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarning rivojlanishiga asosan ilmiy tadqiqotlar tufayli erishiladi. Dunyoning ilmiy manzarasi o'ziga xos hodisalarning turli xil xususiyatlari, kognitiv jarayonning o'zi tafsilotlari haqidagi shaxsiy bilimlarni o'z ichiga olmaydi. Dunyoning ilmiy manzarasi - bu obyektiv dunyo haqidagi insoniyatning barcha bilimlarining yig'indisi emas, u voqelikning umumiy xususiyatlari, sohalari, darajalari va qonuniyatlari haqidagi g'oyalarning yaxlit tizimidir.

Dunyoning ilmiy surati- voqelikning xususiyatlari va naqshlari haqidagi insoniy

g'oyalar tizimi tushuncha va tamoyillarni umumlashtirish va sintez qilish natijasida qurilgan. Materiyadagi narsa va hodisalarni belgilashda ilmiy tildan foydalanadi.

Dunyoning ilmiy surati- agregatda tavsiflovchi ko'plab nazariyalar tabiiy dunyo, olam tuzilishining umumiy tamoyillari va qonuniyatlari haqidagi g'oyalarning yaxlit tizimi. Dunyoning surati tizimli shakllanishdir, shuning uchun uning o'zgarishini biron bir (eng katta va eng radikal bo'lsa ham) kashfiyotga qisqartirish mumkin emas. Biz odatda bir-biriga bog'liq bo'lgan bir qator kashfiyotlar (asosiy fundamental fanlar) haqida gapiramiz, ular deyarli har doim tadqiqot usulini tubdan qayta qurish, shuningdek, ilmiylik me'yorlari va ideallarida sezilarli o'zgarishlar bilan birga keladi.

Dunyoning ilmiy surati- nazariy bilimlarning maxsus shakli, tarixiy rivojlanishining ma'lum bir bosqichiga ko'ra fanning tadqiqot predmetini ifodalovchi, ular orqali ilmiy tadqiqotning turli sohalarida olingan aniq bilimlar birlashtiriladi va tizimlashtiriladi.

XX asrning 90-yillari o'rtalarida G'arb falsafasi uchun uslubiy tahlil arsenaliga yangi kategorik vositalarni kiritishga urinishlar bo'ldi, lekin ayni paytda "dunyo tasviri" va "ilmiy rasm" tushunchalari o'rtasida aniq farq bor edi. dunyo" yaratilmagan. Bizning mahalliy falsafiy va uslubiy adabiyotimizda "dunyo tasviri" atamasi nafaqat dunyoqarashni, balki tor ma'noda - ilmiy ontologiyalar, ya'ni dunyo haqidagi g'oyalar haqida gapirganda ham qo'llaniladi. ilmiy nazariy bilimlarning maxsus turi. Shu ma'noda dunyoning ilmiy surati sifatida harakat qiladi fanning ob'ektiv dunyosini uning faoliyati va rivojlanishining ma'lum bir bosqichiga muvofiq ko'rishni belgilovchi ilmiy bilimlarni tizimlashtirishning o'ziga xos shakli .

Bu iborani ham ishlatish mumkin dunyoning tabiiy-ilmiy tasviri .

Fanning rivojlanish jarayonida bilimlar, g'oyalar va tushunchalarning doimiy yangilanishi sodir bo'ladi, oldingi g'oyalar yangi nazariyalarning alohida holatlariga aylanadi. Dunyoning ilmiy manzarasi dogma va mutlaq haqiqat emas. Atrofdagi dunyo haqidagi ilmiy g'oyalar isbotlangan faktlar va o'rnatilgan sabab-oqibat munosabatlariga asoslanadi, bu bizga dunyomizning ma'lum darajada

insoniyat tsivilizatsiyasining rivojlanishiga hissa qo'shadigan xususiyatlari to'g'risida xulosalar va bashorat qilish imkonini beradi. ishonch. Nazariyani, gipotezani, kontseptsyani sinovdan o'tkazish natijalari o'rtasidagi nomuvofiqlik, yangi faktlarni aniqlash - bularning barchasi bizni mavjud g'oyalarni qayta ko'rib chiqishga va yangi, yanada mos haqiqatlarni yaratishga majbur qiladi. Ushbu rivojlanish ilmiy uslubning mohiyatidir.

Dunyoning surati

- ma'lum bir tarixiy davr madaniyatining poydevorida yotgan dunyoqarash tuzilmalari. Atamalar bir xil ma'noda qo'llaniladi. dunyo tasviri, jahon modeli, dunyoni ko'rish dunyoqarashning yaxlitligini tavsiflovchi.
- ilmiy ontologiyalar, ya'ni ilmiy nazariy bilimlarning alohida turi bo'lgan dunyo haqidagi g'oyalar. Shu ma'noda dunyoning ilmiy surati tushunchasi quyidagilarni bildirish uchun ishlatiladi:
- turli ilmiy fanlarda olingan bilimlarni tizimlashtirish gorizonti. Shu bilan birga, dunyoning ilmiy tasviri tabiat va jamiyat haqidagi g'oyalarni o'z ichiga olgan dunyoning yaxlit tasviri sifatida ishlaydi.
- Tabiat haqidagi bilimlar sintezi natijasida paydo bo'lgan tabiat haqidagi g'oyalar tizimi (xuddi shunday, bu tushuncha gumanitar va ijtimoiy fanlarda olingan bilimlar yig'indisini anglatadi)
- bu tushuncha orqali u yoki bu fanning predmeti haqida uning tarixining tegishli bosqichida shakllanadigan va bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish jarayonida o'zgarib turadigan tasavvur shakllanadi.

Ko'rsatilgan ma'nolarga ko'ra, dunyoning ilmiy tasviri tushunchasi bir qator o'zaro bog'liq tushunchalarga bo'linadi, ularning har biri dunyoning ilmiy rasmining alohida turi Qanaqasiga ilmiy bilimlarni tizimlashtirishning alohida darajasi :

- dunyoning umumiy ilmiy manzarasi (turli sohalarda olingan tizimlashtirilgan bilimlar)
- dunyoning tabiiy-ilmiy surati va dunyoning ijtimoiy (ijtimoiy)-ilmiy surati
- dunyoning aniq-ilmiy tasviri (dunyoning fizik tasviri, o'rganilayotgan voqelikning rasmi)

- fanning alohida sohalari dunyosining maxsus (xususiy, mahalliy) ilmiy surati.

Ular shuningdek, dunyoning "sodda" rasmini ajratib turadilar

Dunyoning ilmiy manzarasi na falsafa, na fan; dunyoning ilmiy manzarasi ilmiy nazariyadan fan kategoriyalarining fundamental tushunchalarga falsafiy o'zgarishi hamda bilim olish va bahslash jarayonining yo'qligi bilan farqlanadi; Shu bilan birga, dunyoning ilmiy manzarasi falsafiy tamoyillarga qisqartirilmaydi, chunki bu ilmiy bilimlar rivojlanishining natijasidir.

Tarixiy turlari

Dunyoning ilmiy manzarasida aniq va bir ma'noda qat'iy belgilangan uchta tub o'zgarishlar, fanning rivojlanish tarixidagi ilmiy inqiloblar mavjud bo'lib, ular odatda sodir bo'lgan o'zgarishlarda eng katta rol o'ynagan uchta olimning nomlari bilan ifodalanadi. .

- Eng to'liq - Aristotel: rasmiy mantiqning yaratilishi (isbot ta'limoti, bilimlarni olish va tizimlashtirishning asosiy vositasi, qat'iy kontseptual apparatni ishlab chiqdi), ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish uchun o'ziga xos kanonni tasdiqlash (tarix). masala, muammoning bayoni, yoq va qarshi dalillar, qarorni asoslash), bilimlarni farqlash (tabiat haqidagi fanni matematika va metafizikadan ajratish)

Natija:

- fanning paydo bo'lishi
- fanni bilimning boshqa shakllaridan ajratish va dunyoni o'rganish
- ilmiy bilimlarning muayyan normalari va modellarini yaratish.

Asosiy o'zgarishlar:

- Matematika tili, yer jismlarining qat'iy ob'ektiv miqdoriy tavsiflarini tanlash (shakli, kattaligi, massasi, harakati), ularni qat'iy matematik naqshlarda ifodalash.
- Eksperimental tadqiqot usullari. O'rganilgan hodisalar - qat'iy nazorat ostida
- Barkamol, to'liq, maqsadga muvofiq tashkil etilgan kosmos tushunchasini rad etish.
- Vakillar: Olam cheksiz va faqat bir xil qonunlar harakati bilan birlashtirilgan
- Dominant: mexanika, qiymat, mukammallik, maqsadni belgilash

tushunchalariga asoslangan barcha mulohazalar ilmiy tadqiqot doirasidan chiqarildi.

- Kognitiv faoliyat: tadqiqot mavzusi va ob'ektining aniq qarama-qarshiligi.
- Kashfiyotlar:
 - o atomning murakkab tuzilishi
 - o radioaktivlik hodisasi
 - o elektromagnit nurlanishning diskret tabiati
- va boshq.

Dunyoning ilmiy surati dunyoning mumkin bo'lgan suratlaridan biridir, shuning uchun u dunyoning boshqa barcha rasmlari - mifologik, diniy, falsafiy - umumiy narsaga ega va dunyoning ilmiy rasmini dunyodan ajratib turadigan o'ziga xos narsaga ega.

Dunyoning ilmiy manzarasi payg'ambarlarning obro'-e'tiboriga, diniy urf-odatlariga, muqaddas matnlarga va hokazolarga asoslangan dunyo haqidagi diniy g'oyalardan farq qilishi mumkin. Shuning uchun diniy g'oyalar ilmiy g'oyalardan farqli o'laroq konservativ bo'lib, ularning ta'siri ostida o'zgaradi. yangi faktlarni kashf qilish. O'z navbatida, olam haqidagi diniy tushunchalar o'z davrining ilmiy qarashlariga yaqinlashish uchun o'zgarishi mumkin. Dunyoning ilmiy rasmini olishning markazida ma'lum hukmlarning ishonchliligini tasdiqlash imkonini beradigan tajriba yotadi. Dunyoning diniy manzarasining zamirida qandaydir hokimiyatga tegishli bo'lgan ba'zi hukmlarning haqiqatiga ishonish yotadi. Shunga qaramay, har xil turdagi ezoterik holatlar (nafaqat diniy yoki okklyuziv kelib chiqishi) tajribasi tufayli odam dunyoning ma'lum bir rasmini tasdiqlovchi shaxsiy tajribaga ega bo'lishi mumkin, lekin ko'p hollarda dunyoning ilmiy rasmini yaratishga harakat qiladi. bu soxta fanga tegishli.

Dunyoning ilmiy tasviri dunyoning kundalik yoki badiiy idrokiga xos bo'lgan dunyoqarashdan ham farq qiladi, bu dunyo ob'ektlari va hodisalarini belgilash uchun kundalik/badiiy tildan foydalanadi. Masalan, san'at odami o'zining sub'ektiv (hissiy idrok etish) va ob'ektiv (ishtiyoqsiz) tushunish sintezi asosida dunyoning badiiy tasvirlarini yaratadi, fan odami esa faqat ob'ektivga e'tibor qaratadi va

tadqiqot natijalaridan sub'ektivlikni yo'q qiladi. tanqidiy fikrlash yordami.

Fan va falsafa o'rtasidagi munosabatlar muhokama mavzusidir. Bir tomondan, falsafa tarixi gumanitar fan bo'lib, uning asosiy usuli matnlarni sharhlash va taqqoslashdir. Boshqa tomondan, falsafa fan, uning boshlanishi va oxiri, fanning metodologiyasi va uni umumlashtirish, yuqori darajadagi nazariya, metafandan ko'proq narsani da'vo qiladi. Fan gipotezalarni taklif qilish va rad etish jarayoni sifatida mavjud bo'lib, falsafaning roli esa ilmiylik va ratsionallik mezonlarini o'rganishdir. Shu bilan birga, falsafa ilmiy kashfiyotlarni, shu jumladan ularni shakllangan bilimlar kontekstida qamrab oladi va shu bilan ularning ahamiyatini belgilaydi. Falsafaning fanlar malikasi yoki fanlar fani sifatidagi qadimiy g'oyasi shu bilan bog'liq.

Bu vakilliklarning barchasi odamda birgalikda va turli kombinatsiyalarda mavjud bo'lishi mumkin. Dunyoning ilmiy manzarasi, garchi u dunyoqarashning muhim qismini tashkil qilishi mumkin bo'lsa-da, hech qachon uning o'rnini bosa olmaydi, chunki uning individualligida insonga his-tuyg'ular ham, atrofdagi voqelikni badiiy yoki sof kundalik idrok etish ham kerak. shuningdek, bilish jarayonida u yoki bu nuqtada engib o'tish kerak bo'lgan ishonchli ma'lum yoki noma'lum chegarada bo'lgan narsalar haqidagi g'oyalar.

Insoniyat tarixida dunyo haqidagi g'oyalar qanday o'zgarishi haqida turli xil fikrlar mavjud. Fan nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, u dunyo haqida qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin. Biroq, ba'zi faylasuflarning fikriga ko'ra, vaqt o'tishi bilan dunyoning ilmiy surati boshqalarni butunlay almashtirishi kerak.

Katta portlash paytida koinot mikroskopik, kvant o'lchamlarini egallagan.

Ba'zi fiziklar bunday jarayonlarning ko'pligi va shuning uchun har xil xususiyatlarga ega bo'lgan ko'p koinotlar mavjudligini tan oladilar. Bizning koinotimiz hayotning paydo bo'lishiga moslashtirilganligini tasodif bilan izohlash mumkin - "kamroq moslashgan" olamlarda buni tahlil qiladigan hech kim yo'q (qarang: Antropik printsip va "Inflyatsiya, kvant kosmologiyasi va ma'ruza matni" Antropik printsip"). Bir qator olimlar "qaynayotgan ko'p olam" tushunchasini ilgari surdilar, unda yangi olamlar uzluksiz tug'iladi va bu jarayonning boshlanishi

ham, oxiri ham yo'q.

Shuni ta'kidlash kerakki, Katta portlash haqiqatini yuqori ehtimollik bilan isbotlangan deb hisoblash mumkin, ammo uning sabablarini tushuntirish va bu qanday sodir bo'lganligining batafsil tavsifi hali ham farazlar toifasiga kiradi.

Bizning dunyomiz mavjudligining dastlabki daqiqalarida koinotning kengayishi va sovishi keyingi bosqichga o'tishga olib keldi - jismoniy kuchlar va elementar zarrachalarning zamonaviy shaklda shakllanishi.

Dominant farazlar, birinchi 300-400 ming yil davomida koinot faqat ionlangan vodorod va geliy bilan to'ldirilganligi bilan bog'liq. Koinotning kengayishi va sovishi bilan ular barqaror neytral holatga o'tib, oddiy gaz hosil qiladi. Taxminlarga ko'ra, 500 million yil o'tgach, birinchi yulduzlar yondi va kvant tebranishlari tufayli dastlabki bosqichlarda hosil bo'lgan materiya bo'laklari galaktikalarga aylandi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yulduzlar atrofidagi sayyora tizimlari juda keng tarqalgan (hech bo'lmaganda bizning Galaktikada). Galaktikada bir necha yuz milliard yulduzlar va, aftidan, sayyoralar soni kam emas.

Zamonaviy fizika oldida kvant maydon nazariyasi va nisbiylik nazariyasini birlashtirgan umumiy nazariyani yaratish vazifasi turibdi. Bu qora tuynuklarda sodir bo'ladigan jarayonlarni va, ehtimol, Katta portlash mexanizmini tushuntirishga imkon beradi.

Nyutonning fikricha, bo'sh fazo haqiqiy borliqdir. Leybnits-Mach talqiniga ko'ra, faqat moddiy ob'ektlar haqiqiy mohiyatdir. Bundan kelib chiqadiki, qum tarqalmaydi, chunki uning plastinkaga nisbatan holati o'zgarmaydi (ya'ni, plastinka bilan aylanadigan mos yozuvlar ramkasida hech narsa sodir bo'lmaydi). Shu bilan birga, tajriba bilan qarama-qarshilik haqiqatda Olam bo'sh emasligi bilan izohlanadi, lekin moddiy ob'ektlarning butun to'plami plastinka aylanadigan tortishish maydonini hosil qiladi. Eynshteyn dastlab Leybnits-Mach talqinini to'g'ri deb hisoblagan, ammo hayotining ikkinchi yarmida u fazo-vaqt haqiqiy borlik ekanligiga ishonishga moyil edi.

Eksperimental ma'lumotlarga ko'ra, bizning koinotimizning katta masofadagi

(oddiy) fazosi nolga teng yoki juda kichik musbat egrilikka ega. Bu koinotning dastlabki daqiqalarda tez kengayishi bilan izohlanadi, buning natijasida kosmik egrilik elementlari tekislanadi (koinotning inflyatsiya modeliga qarang).

Bizning koinotimizda kosmos uch o'lchovga ega (ba'zi nazariyalarga ko'ra, mikro masofalarda qo'shimcha o'lchamlar mavjud), vaqt esa bitta.

Vaqt faqat bir yo'nalishda ("vaqt o'qi") harakat qiladi, garchi fizik formulalar termodinamikadan tashqari vaqt yo'nalishi bo'yicha nosimmetrikdir. Vaqtning bir yo'nalishi bo'yicha tushuntirishlardan biri termodinamikaning ikkinchi qonuniga asoslanadi, unga ko'ra entropiya faqat ortishi mumkin va shuning uchun vaqtning yo'nalishini belgilaydi. Entropiyaning o'sishi ehtimoliy sabablar bilan izohlanadi: elementar zarrachalarning o'zaro ta'siri darajasida barcha fizik jarayonlar teskari bo'ladi, lekin "oldinga" va "teskari" yo'nalishdagi hodisalar zanjirining ehtimoli har xil bo'lishi mumkin. Ushbu ehtimollik farqi tufayli biz o'tmishdagi voqealarni kelajak voqealaridan ko'ra ko'proq aniqlik va aniqlik bilan hukm qilishimiz mumkin. Boshqa bir farazga ko'ra, to'lqin funksiyasining qisqarishi qaytarilmas va shuning uchun vaqt yo'nalishini belgilaydi (ammo, ko'plab fiziklar qisqarish haqiqiy jismoniy jarayon ekanligiga shubha qilishadi). Ba'zi olimlar ikkala yondashuvni dekoherentlik nazariyasi doirasida uyg'unlashtirishga harakat qilmoqdalar: dekoherentlik paytida ko'pchilik oldingi kvant holatlari haqidagi ma'lumotlar yo'qoladi, shuning uchun bu jarayon vaqt o'tishi bilan qaytarib bo'lmaydi.

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR

1. Olamning konseptual manzarasi nima va uning asosiy mohiyati qanday?
2. Inson tafakkurida konseptual manzara qanday shakllanadi?
3. Konseptual manzara qanday omillar asosida rivojlanadi?
4. Konseptual manzarani o'rganishda kognitiv lingvistikaning roli qanday?
5. Insonning olam haqidagi bilimlari va konseptual manzara qanday bog'langan?
6. Konseptual manzaraning tarkibiy qismlari qanday?
7. Milliy mentalitet konseptual manzaraga qanday ta'sir qiladi?

8. Olamning konseptual manzarasi individual va kollektiv ongda qanday namoyon bo'ladi?
9. Olamning konseptual manzarasi va madaniy kod tushunchasi qanday bog'liq?
10. Turli tillarda konseptual manzaraning farqlanishi qanday sabablarga ega?
11. Olamning lisoniy manzarasi nima va u qanday tadqiq etiladi?
12. Til va tafakkur munosabatini lisoniy manzara doirasida qanday tushuntirish mumkin?
13. Lisoniy manzara qanday omillar asosida shakllanadi?
14. Olamning lisoniy manzarasi va leksik-semantik tizim o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
15. Lisoniy manzarani o'rganishda etnolingvistikaning o'rni qanday?
16. Olamning lisoniy manzarasi dialekt va shevalarda qanday namoyon bo'ladi?
17. Olamning lisoniy manzarasi tarixiy jihatdan qanday o'zgaradi?
18. Lisoniy manzara va metaforik tafakkur qanday bog'liq?
19. Bilingvizm va lisoniy manzara o'rtasidagi munosabat qanday?
20. Olamning lisoniy manzarasi lingvokulturologiyada qanday tahlil qilinadi?
21. Konseptual va lisoniy manzara o'rtasidagi asosiy farqlar qanday?
22. Lisoniy manzara konseptual manzaraning shakllanishida qanday rol o'ynaydi?
23. Tilda aks etgan olamning lisoniy manzarasi qaysi lingvistik birliklar orqali ifodalanadi?
24. Konseptual va lisoniy manzara o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan misollar keltiring.
25. Lingvistik nisbiylik gipotezasi (Sapir-Whorf gipotezasi) konseptual va lisoniy manzaraga qanday taalluqli?
26. Ko'p tillilik holatida konseptual va lisoniy manzaraning o'zaro ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
27. Ijtimoiy va madaniy omillar konseptual va lisoniy manzaraga qanday ta'sir qiladi?
28. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt konseptual hamda lisoniy manzaraga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

29. Har bir til o'ziga xos lisoniy manzaraga ega ekanligi nimada namoyon bo'ladi?
30. Konseptual va lisoniy manzarani o'rganish lingvistik tadqiqotlar uchun qanday ahamiyatga ega?

2-MAVZU: LINGVISTIKA YO'NALISHLARI

1. Dinamik lingvistika. Statik lingvistika.
2. Sinxron lingvistika. Diaxron lingvistika.
3. Intralingvistika. Ekstralingvistika. Paralingvistika.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- **Diaxron lingvistika** – tilning tarixiy rivojlanish jarayonlarini o'rganuvchi bo'lim.
- **Sinxron lingvistika** – tildagi hodisalarni muayyan davr nuqtai nazaridan o'rganuvchi yo'nalish.
- **Qiyosiy-tarixiy lingvistika** – turli tillarni tarixiy nuqtai nazardan taqqoslab o'rganish.
- **Rekonstruksiya** – tilning qadimiy holatini tiklash jarayoni.
- **Til oilalari** – tillarning kelib chiqishi va ularning genealogik tasnifi.

Lingvistika — bu tilni, uning tuzilishini, rivojlanishini va ijtimoiy kontekstdagi o'rnini o'rganadigan fan. Lingvistika bir necha yo'nalishlarga bo'linadi, har biri tildagi turli jihatlarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu ma'ruzada dinamik, statik, sinxron, diaxron, intralingvistika, ekstralingvistika va paralingvistika kabi asosiy lingvistik yo'nalishlar haqida gapiramiz.

1. Dinamik Lingvistika

Dinamik lingvistika — bu tilning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini va rivojlanishini o'rganadigan yo'nalish. U tilning evolyutsion jarayonlarini, shuningdek, til o'zgarishlarining sabablarini va natijalarini tahlil qiladi. Dinamik lingvistika tilning funktsional aspektlariga e'tibor qaratadi va tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda ko'rib chiqadi.

Misol: O'zbek tilining so'z boyligi va grammatik tuzilishidagi o'zgarishlar, yangi so'zlarning paydo bo'lishi va eski so'zlarning ishlatilishining kamayishi.

2. Statik Lingvistika

Statik lingvistika — bu tilni vaqtning ma'lum bir nuqtasida, ya'ni uning hozirgi holatida o'rganishga qaratilgan yo'nalish. Bu yo'nalish tilning strukturasini, leksikasini va grammatikasini tahlil qiladi. Statik lingvistika tilni izchil va barqaror tizim sifatida ko'radi.

Misol: Hozirgi o'zbek tilining grammatik qoidalari va leksik tarkibi.

3. Sinxron Lingvistika

Sinxron lingvistika — bu tilni bir vaqtning o'zida, ya'ni ma'lum bir davrda tahlil qilishni anglatadi. U tilning strukturasini, fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini o'rganadi. Sinxron lingvistika tilning turli jihatlarini bir-biri bilan bog'lab ko'rishga imkon beradi.

Misol: Hozirgi zamon o'zbek tilidagi fonetik qonunlar va ularning boshqa tillar bilan taqqoslanishi.

4. Diaxron Lingvistika

Diaxron lingvistika — bu tilning tarixiy rivojlanishini o'rganadigan yo'nalishdir. U tilning qanday qilib vaqt o'tishi bilan o'zgarganini, eski shakllardan yangi shakllarga qanday o'tganini tahlil qiladi. Diaxron lingvistika tarixiy lingvistikaning bir qismi bo'lib, tilning evolyutsion jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

Misol: O'zbek tilining turkiy tillar ichidagi tarixiy rivojlanishi va uning boshqa tillar bilan aloqalari.

5. Intralingvistika

Intralingvistika — bu biror til ichidagi jarayonlarni o'rganadigan yo'nalishdir. U tilning ichki strukturasini, leksikasini va grammatik tizimini tahlil qiladi. Intralingvistika tilni o'z ichida muhokama qilgan holda uning qonuniyatlarini aniqlashga harakat qiladi.

Misol: O'zbek tili ichida sinonimlar, antonimlar va homonimlar kabi leksik munosabatlarni o'rganish.

6. Ekstralingvistika

Ekstralingvistika — bu tilni ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstda o'rganadigan yo'nalishdir. U til va uning atrofidagi muhit o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Ekstralingvistika tilni faqat uning ichki strukturasida emas, balki tashqi omillar bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi.

Misol: O'zbek tilining ijtimoiy qatlamlarga ta'siri yoki madaniyatdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan yangi so'zlar.

7. Paralingvistika

Paralingvistika — bu tilning nonverbal jihatlarini o'rganadigan yo'nalishdir. U ovoz tonlari, intonatsiya, mimikalar va boshqa nonverbal kommunikatsiya elementlarini tahlil qiladi. Paralingvistika odamlarning bir-birlari bilan muloqot qilishdagi nozik jihatlarni tushunishga yordam beradi.

Misol: Ovozning balandligi yoki intonatsiyasi orqali ifodalangan hissiyotlar yoki muloqotdagi mimikalar.

Xulosa

Lingvistikaning yuqorida keltirilgan yo'nalishlari tilni tushunish va uning rivojlanishini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Har bir yo'nalish tilning turli jihatlarini ko'rib chiqadi va ularning barchasi birgalikda tildagi murakkablikni ochib beradi. Lingvistik tadqiqotlar nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki insoniyat madaniyatining asosiy elementlaridan biri sifatida tilning rolini ham tushunishga yordam beradi.

Mavzuga doir savollar

1. Dinamik lingvistika nima va uning asosiy tadqiqot obyekti qanday?
2. Til tizimidagi o'zgarishlar dinamik lingvistika nuqtayi nazaridan qanday izohlanadi?
3. Dinamik lingvistika bilan diaxron lingvistikaning o'zaro bog'liqligi qanday?
4. Nutq jarayonida til birliklarining o'zgaruvchanligi qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?
5. Lingvistik innovatsiyalar (yangi so'zlar, yangi grammatik shakllar) qanday o'rganiladi?
6. Til taraqqiyoti jarayonida dinamik lingvistikaning qanday ahamiyati bor?
7. Dialektlar va ularning rivojlanishi dinamik lingvistika nuqtayi nazaridan qanday tushuntiriladi?

8. Dinamik lingvistika qaysi lingvistik darajalarga (fonetika, morfologiya, sintaksis) ta'sir ko'rsatadi?
9. Til va nutqni dinamik lingvistika doirasida qanday farqlash mumkin?
10. Sun'iy tillar va til rejasi dinamik lingvistika doirasida qanday tahlil qilinadi?
11. Statik lingvistika nima va uning asosiy maqsadi qanday?
12. Statik lingvistika va sinxron lingvistika o'rtasidagi farq nimada?
13. Til tizimi qanday tarkibiy qismlardan iborat va ular statik lingvistika doirasida qanday tadqiq etiladi?
14. Statik lingvistika tilni qanday jihatlari bo'yicha o'rganadi?
15. Tilning o'zgarishsiz qismi qanday aniqlanadi va tahlil qilinadi?
16. Morfologiya va sintaksisning statik tadqiqoti qanday amalga oshiriladi?
17. Nutqning pragmatik jihatlari statik lingvistika nuqtayi nazaridan qanday tushuntiriladi?
18. Statik lingvistika qanday lingvistik usullar bilan tadqiq etiladi?
19. Til tizimidagi o'zgaruvchan va barqaror elementlar qanday aniqlanadi?
20. Statik lingvistikaning kompyuter lingvistikasida qanday ahamiyati bor?
21. Sinxron lingvistika nima va uning asosiy tadqiqot obyekti qanday?
22. Sinxron va diaxron lingvistika o'rtasidagi asosiy farqlar qanday?
23. Sinxron lingvistika qaysi lingvistik darajalarni o'rganadi?
24. Sinxron tahlilda nutq va til o'rtasidagi bog'liqlik qanday tushuntiriladi?
25. Sinxron lingvistik tadqiqotlarda qanday metodlar qo'llaniladi?
26. Sinxron lingvistika qaysi sohalarda qo'llaniladi (tarjima, til o'qitish, NLP)?
27. Sinxron fonetik va morfologik tahlil qanday amalga oshiriladi?
28. Til tizimi va uning ishlashi sinxron lingvistika nuqtayi nazaridan qanday tahlil qilinadi?
29. Korpus lingvistikasining sinxron lingvistika bilan bog'liqligi qanday?
30. Sinxron lingvistika doirasida so'z ma'nosining o'zgaruvchanligi qanday tushuntiriladi?
31. Diaxron lingvistika nima va uning asosiy maqsadi qanday?
32. Til tarixiy taraqqiyoti diaxron lingvistika nuqtayi nazaridan qanday o'rganiladi?

33. Diaxron lingvistika qanday tadqiqot usullari va manbalarga asoslanadi?
34. Til o'zgarishi jarayonida fonetik o'zgarishlar qanday sodir bo'ladi?
35. Diaxron morfologik va sintaktik o'zgarishlar qanday tahlil qilinadi?
36. Lug'at tarkibidagi o'zgarishlar va yangi so'zlarning paydo bo'lishi qanday izohlanadi?
37. Diaxron lingvistika va etimologiya qanday bog'liq?
38. Qadimgi va zamonaviy tillarni qiyosiy tahlil qilish diaxron lingvistika nuqtayi nazaridan qanday amalga oshiriladi?
39. Til oilalari va ularning rivojlanishi diaxron lingvistika doirasida qanday o'rganiladi?
40. Dialektlarning rivojlanishi diaxron lingvistika nuqtayi nazaridan qanday tushuntiriladi?
41. Intralingvistika nima va uning asosiy vazifasi qanday?
42. Til tizimi ichidagi aloqalar qanday o'rganiladi?
43. Morfologik va sintaktik tizimlar intralingvistika nuqtayi nazaridan qanday tahlil qilinadi?
44. Tilning ichki dinamikasi qanday tushuntiriladi?
45. So'z turkumlari va ularning o'zaro munosabatlari intralingvistika doirasida qanday o'rganiladi?
46. Intralingvistik tadqiqotlar qanday metodlarga asoslanadi?
47. Semantik maydonlar intralingvistika nuqtayi nazaridan qanday tahlil qilinadi?
48. Til tizimidagi barqaror va o'zgaruvchan birliklar qanday aniqlanadi?
49. Intralingvistika va sintaktik tahlil o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
50. Tildagi sinonimiya va antonimiya intralingvistika doirasida qanday tushuntiriladi?
51. Ekstralingvistika nima va uning asosiy maqsadi qanday?
52. Til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik ekstralingvistika doirasida qanday tushuntiriladi?
53. Sotsiokultural omillar til tizimiga qanday ta'sir qiladi?
54. Tarixiy hodisalar til taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

55. Ekstralingvistik tadqiqotlar qanday usullar orqali olib boriladi?
56. Til va iqtisod ekstralingvistika nuqtayi nazaridan qanday bog‘liq?
57. Reklama va ommaviy axborot vositalarining tildagi roli qanday?
58. Ekstralingvistik omillar tildagi o‘zgarishlarni qanday shakllantiradi?
59. Gender va til ekstralingvistika nuqtayi nazaridan qanday o‘rganiladi?
60. Globalizatsiya va zamonaviy tillarga ta’siri qanday izohlanadi?
61. Paralingvistika nima va uning asosiy yo‘nalishlari qanday?
62. Nutqiy kommunikatsiyada paralingvistik omillar qanday rol o‘ynaydi?
63. Jismoniy imo-ishoralar va ularning lingvistik ahamiyati qanday?
64. Ovozni modulyatsiya qilish va uning muloqotdagi ahamiyati qanday?
65. Paralingvistika va pragmatika qanday bog‘liq?
66. Nutqiy emotsiyalar qanday tahlil qilinadi?
67. Madaniyatlararo kommunikatsiyada paralingvistik elementlarning o‘rni qanday?
68. Paralingvistik tadqiqotlar qanday metodlarga asoslanadi?
69. Yosh va gender paralingvistik jihatdan qanday farqlanadi?
70. Sun’iy intellekt va paralingvistika qanday bog‘liq?

3-MAVZU: LINGVISTIKA YO‘NALISHLARI

1. Psixolingvistika. Sotsiolingvistika.
2. Matematik lingvistika. Kompyuter lingvistikasi.
3. Pragmalingvistika.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- **Sotsiolingvistika** – til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi yo‘nalish.
- **Diglossiya** – jamiyatda ikki yoki undan ortiq tildan foydalanish hodisasi.
- **Bilingvizm** – ikki tilni egallaganlik hodisasi.
- **Kod almashtirish** – turli tillar yoki lahjalarning bir-biri bilan aralashishi.

- **Til siyosati** – davlat va jamiyat tomonidan tilni tartibga solish strategiyalari.
- **Sotsiolingvistika** – til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi yo'nalish.
- **Diglossiya** – jamiyatda ikki yoki undan ortiq tildan foydalanish hodisasi.
- **Bilingvizm** – ikki tilni egallaganlik hodisasi.
- **Kod almashtirish** – turli tillar yoki lahjalarning bir-biri bilan aralashishi.
- **Til siyosati** – davlat va jamiyat tomonidan tilni tartibga solish strategiyalari

Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar. Sotsiolingvistika va etnolingvistika. Hozirgi zamon tilshunosligida psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika, kompyuter lingvistikasi va kommunikativ lingvistika kabi zamonaviy yo'nalishlari mavjud. Zamonaviy yo'nalishlarga qiziqishning kuchayib borayotganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: a) hozirgi jamiyatda ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoj kundan-kun ortib bormoqda; b) tilshunoslik shu vaqtga qadar faqat tilning ichki tuzilishini o'rganish bilan qiziqib keldi, tilning jamiyat bilan, o'sha til egasi bo'lgan xalq tarixi, urf-odati bilan munosabati muammosi tilshunoslar e'tiboridan chetda qolib keldi.

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq va bu tilshunoslikning tilning ijtimoiy mohiyati va vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi sotsiolingvistika yo'nalishining shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa zamonaviy ijtimoiy rivojlanish hamda ilmiy-texnika inqilobi tilning sotsiolingvistik va struktur o'rganish muammolarini chuqur tahlil qilishni hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi. Sotsial lingvistika fonologik sistema birliklaridan tortib butun til strukturasigacha bo'lgan barcha til hodisalarini ijtimoiy shartlashgan hodisalar deb qaraydi. Barcha ijtimoiy hodisalar ichida til sistemasi eng yopig'i hisoblanadi, o'ziga xos xususiyatlariga va murakkab strukturaga ega.

Bu qiziq!

Jamiyat lingvistik hayotiga ilmiy-texnika inqilobi ta'sirining xarakteri, tempi, ko'lami, sohalari va xususiyliklarini aniqlash sotsiolingvistikaning eng muhim va dolzarb vazifasidir. Lingvistikaning sotsiolingvistik tadqiqotlar obyekti bo'lmish tomonlari – terminologik tizimlarning paydo bo'lishi va ularni uzluksiz differensiatsiyalanishi, dunyo tillari ijtimoiy funksiyalarining notekis rivojlanish jarayonlari, hududiy dialektlarning maydalashuvi, leksik-semantik va stilistik sistemalarga jamiyatdagi mafkuralar ta'sirining kuchayishi kabi masalalariga ilmiy texnikaning rivojlanishi eng kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, til va madaniyat, milliy til va milliy madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq. Til madaniyat yaratishning eng asosiy vositalaridan biri bo'lib, u madaniyatga erishish, uni tushunish, uning turli sohalarida muloqot yuritish vositasidir. Ko'rinadiki, madaniyat tilning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi, biroq u til ichki rivojlanishining asosiy vositasi ham, quroli ham emas. Madaniyatning rivojlanishiga ijtimoiy faktorlar ta'sir ko'rsatadi. Til va madaniyatning o'zaro munosabati negizida lingvokulturologiya, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik sohasi ham vujudga keldi. Ushbu sohaning nazariy va amaliy ahamiyati bugungi kunda ayniqsa dolzarb, chunki tillarni egallashda tili o'rganilayotgan xalqning madaniyatini bilishning amaliy ahamiyati nihoyatda katta.

Etnolingvistika – atamasi grekcha “etnos” xalq, qabila so'zlaridan olingan bo'lib, XIX asrning 70-yillarida Amerika hindularining tili, madaniyati va urf-odatlarini o'rganishning kuchayishi tufayli yuzaga kelgan. Ma'lumki, xalq tarixida, turmush tarzida yuz bergan har bir voqea, urf-odatlar uning tilida aks etadi, shuning uchun til bilan uning egasi bo'lgan xalq o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Toponim, etnonimlarni xalqning tarixini bilmay turib o'rganib bo'lmaydi, shuningdek, etnografiya ham tilshunoslikka qimmatli materiallar beradi. Til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat, etnopsixologik omillarni o'rganish ehtiyoji tilshunoslikda etnolingvistika yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Etnolingvistikaning mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida shakllanishida amerikalik tilshunos, etnograf Frans Boasning xizmatlari katta bo'lgan. U va uning izdoshlari

hindular tilini tillar va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bilingvizm masalalari bilan bog'liq holda o'rgandilar. Bu yo'nalishning ilk davrida ko'proq etnografiya masalalari bilan shug'ullanilgan, faqat o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab muammoning lingvistik tomoniga ahamiyat berilgan. Masalan, alla (qo'shiq) yoki sumalakning tarixi, mazmun-mohiyati, ular bilan bog'liq urf-odatlarining turlari etnografik masalalar bo'lsa, shu so'zlarning qo'llanishi, turli davrlardagi variantlari, ulardagi lingvistik vositalar, shu so'zlar bilan bog'liq assotsiativ aloqalar masalalari masalaning lingvistik tomoni hisoblanadi.

50-yillardan boshlab tilshunoslikda semantikaga katta e'tibor qaratilishi etnolingvistika masalalariga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Turli tillardagi ijtimoiy madaniy so'zlar (masalan, qarindosh-urug' nomlari, milliy realiyalar), turli etnik guruhlarda qo'llanadigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarini o'rganish ham etnolingvistikaning o'rganish obyektiga kiritildi. Folklor materiallariga e'tibor qaratilishi til va madaniyat o'rtasidagi aloqaning yangi turlarini ochishga imkoniyat yaratdi va etnolingvistikaning o'rganish doirasini kengaytirdi. Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikda alohida yo'nalish sifatida e'tirof etilgan va bu yo'nalish bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Psixolingvistika va neyrolingvistika

Psixolingvistika. Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli nutqiy faoliyat tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish obyekti sanaladi. Tilshunoslik va psixologiya fanlarining ushbu kesishish nuqtasi mazkur fanlar oralig'ida psixolingvistika (yoki lingvopsixologiya) yo'nalishining yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu atama dastlab 1946-yilda Amerika psixologi N.Pronko tomonidan qo'llandi va XX asrning 50-yillaridan keng yoyildi. Biroq uning ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga (asoschisi G.Shteyntal) borib taqaladi. U tilda xalq ruhining ifodalanishini ta'kidlab, sotsial, etnik psixologiyani yaratishga intildi.

Ushbu oqim tarafdorlari o'z e'tiborlarini tilning ichki tomoniga, jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, so'z va gaplarning ma'no tomoniga qaratdilar, assotsiativ psixologiya tushunchalarini va amalini kiritishga harakat qildilar.

Psixolingvistikaning o'rganish obyektiga quyidagilar kiritilgan:

Nutq faoliyatning vujudga kelish mexanizmini o'rganish;

Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish;

Nutqning axborot tashish funksiyasini o'rganish va boshqarish.

Muayyan nutqiy vaziyatlarda so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish;

Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu yo'nalishi yanada kengaygan bo'lib, nutqdagi inson omili, individuallik, ichki nutq va tashqi nutq masalalari keng o'rganilmoqda. Nutqiy faoliyat, ya'ni insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o'rganish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Tilshunoslik kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi bo'lgan til va uning aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni bir-biridan ajratgan holda, tilning ichki tuzilishi va birliklari, ushbu birliklarning nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, psixolingvistikada esa "ichki tuzilish"dan "tashqi tuzilish" ("tashqi nutq")qa o'tishning asosiy bosqichlari, ushbu 2 tuzilishning o'zaro munosabatlari kabi qator masalalar atroflicha o'rganiladi.

Neyrolingvistika. O'tgan asrning 70-yillarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlari oralig'ida neyropsixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan, nutqiy faoliyatni bosh miya mahsuli sifatida o'rganadigan yangi tarmoq – neyrolingvistika vujudga keldi. Ushbu fanda miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalari, ya'ni afaziya holati ham o'rganiladi.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutq faoliyatining buzilishi masalasi Ibn Sino, Beruniy asarlaridayoq qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu hodisalar XIX asrning 2-yarmidan boshlab o'rganila boshlandi, A.R. Luriyaning "Neyrolingvistikaning asosiy muammolari" kitobi chop etildi.

Inson borliqni ongida sezgi organlari yordamida aks ettiradi. Sezgi tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi, miya esa bu axborotlarni umumlashtiradi. Demak, obyektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv

sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi.

Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalarining markazga qarab yo'nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma'lumotni beradi. Chegara nerv sistemalariga aloqador a'zolar tahlil qiluvchilar (analizatorlar) deb atalib, ularga ko'rish, eshitish, ta'm-maza a'zolari kiritiladi.

Shunday qilib, neyrolingvistika inson tomonidan olamni belgilashtirish jarayonini kompleks tarzda o'rganuvchi fan tarmog'i sifatida o'ziga turdosh – psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g'oyalari va metodlaridan foydalanib rivojlanib bormoqda.

Kompyuter lingvistikasi va kommunikativ lingvistika

Ma'lumki, XXI asr kompyuter texnologiyalari, ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalari (internet), yuksak tafakkur, fan va texnikaning jadal taraqqiyot asri bo'ladi. XXI asr boshiga kelib, "Elektron ta'lim", "Elektron boshqaruv", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim", "Axborotlashgan ta'lim" kabi tushunchalar hayotimizga kundan-kun singib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev so'zlari bilan aytganda, "hozirgi axborot, kommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q".

Hozirgi paytda injenerlik lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi yuzasidan bir qator yangi muammolar o'rta tashlanmoqda. Darhaqiqat, zamonaviy kompyuter juda ulkan imkoniyatlarga egaki, uning uchun qadimgi xalqlarning sirli xatlarini "o'qib", mazmunini so'zlab berish, katta hajmdagi kitoblarga annotatsiyalar yozish, loyihalar tarxini chizish kabi yuzlab mehnat faoliyati turlarining barchasida, albatta, zamonaviy kompyuter texnologiyalari ham ishchi kuchi, ham vaqt jihatidan juda yaqin yordamchi

sanaladi.

Bunday ilmiy tadqiqotlar sirasiga murakkabligi, dolzarbligi bilan xarakterlanuvchi kompyuter lingvistikasi yo`nalishi ham kiradi. Kompyuter lingvistikasi quyidagi masalalarni o`rganish bilan shug`ullanadi:

- a) tabiiy tillarning matematik modelini ishlab chiqish;
- d) kompyuter lingvistikasining avtomatik tarjima va matnni tahrir qilish dasturlarini ishlab chiqish;
- f) lug'atlarni va kompyuterdagi matnni statistik tahlil qilish dasturlarini ishlab chiqish.
- e) tillarga o`qitish, bilimlarni tekshirish;
- b) lingvistik muammolarni hal qiluvchi kompyuter dasturlari bilan tanishish;

Mamlakatimizda kompyuter lingvistikasi va matematik lingvistika muammolari bilan shug`ullanuvchi maxsus kafedra va laboratoriya 2001-yilda O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU)da tashkil etilgan edi, keyinchalik bu kafedra "Umumiy va kompyuter tilshunosligi" degan nomga ega bo'ldi.

Natijada keyingi yillarda o'zbek tili grammatikasining kompyuter modelini yaratish asoslari ishlab chiqildi, o'zbek tilidagi internet sahifalarini yaratishning asoslari belgilandi, o'zbek kompyuter adabiyotshunosligi ma'lum darajada o'rganildi; inglizcha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-inglizcha, ruscha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-ruscha tarjimon dasturlari ishlab chiqilmoqda; o'zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish dasturlarining 1-versiyalari yaratilmoqda; WINDOWS o'zbek tilidagi operatsion tizimini ishlab chiqish davom etmoqda; hozirgi vaqtda "Qutadg'u bilik"ning internet sahifalari yaratilgan. Shuningdek, o'zbek lingvistik avtomatini yaratish bo'yicha dastlabki ishlar amalga oshirilgan, kompyuter yordamida ayrim chastotali lug'atlar, ters (chappa), alfavitli lug'atlar tuzilgan, bu sohadagi ishlar hozirgi kunda jadal sur'atlar bilan davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda kompyuter yordamida tilshunos olimlar so'zlarni bir joyga to'plash,

ularga qayta ishlov berish, shu asosda turli xil lug'atlar, tezauruslar, rubrikatorlar, glossariylar, so'zlashgichlar yaratish bilan shug'ullanmoqdalar.

Umuman, atamalarni to'plash va ularga qayta ishlov berish jarayonida kelib chiqqan katta amaliy ehtiyoj tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan kengroq foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Hozirgi kunga kelib fan-texnika inqilobi natijasida tinmay yog'ilib turgan materiallar, axborotlar oqimini faqat kompyuter texnologiyasi yordamidagina boshqarish mumkin bo'lib qoldi.

Tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan foydalanish, asosan, quyidagi yo'nalishlar uchun xizmat qilmoqda: a) mashinaviy tarjima muammolari bilan shug'ullanish; b) lug'atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish; v) bibliografik ma'lumotlarni avtomatik yo'l bilan qidirish va ularga qayta ishlov berish va hokazo.

Fanda matematik lingvistika haqidagi g'oyalarning paydo bo'lganiga qariyb 70 yil bo'ldi. XX asrning 50-yillarida til materialini o'rganishda matematik usullardan foydalanishga qiziqish kuchaydi. 1951-yilda matematik lingvistika bo'yicha dastlabki tadqiqotlar AQSHda va sobiq Ittifoqda vujudga kelgan edi. Matematik lingvistika hozirgi vaqtda nazariy va amaliy fan sifatida to'la shakllanib bormoqda. Uning nazariy fan ekanligi nutqiy jarayonni, matnni o'rganishning turli xil model (gipoteza)larini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishida ko'rinadi. Uning amaliy xususiyati esa tarjima mashinalarini yaratish va uning ishlash jarayonini tashkil etishi bilan belgilanadi. Buning uchun ML fani quyidagi uch usul va metodlardan keng foydalanadi: a) mantiqiy-matematik usullar: masalan, inkor amali, konyunksiya, dizyunksiya amallari kabilar; b) nazariy-informatsion usullar; v) ehtimollik-statistik usullari. Matematik lingvistika ning ana shunday nazariy va amaliy asoslarini belgilashda Daniya olimi L.Elmslev, amerikalik olimlar N.Xomskiy, K.Shenon kabilarning xizmati kattadir. Matematik lingvistikaning amaliy muammolari XX asrning o'rtalarida vujudga keldi. Bu narsa birinchi navbatda mashina tarjimasi (MT) bilan aloqadordir. 1954-yilda AQSHda IBM – 701 rusumli tarjima qurilmasi yaratildi va bu qurilma 250 ta so'zdan iborat 60 ga yaqin ruscha gaplarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonini amalga oshirdi.

Bu ishga P.Gavren, L.Dostert, P.Sheridanlar ishtirok etdilar. 1955- yilga kelib sobiq Ittifoqda BESM rusumli mashina qurilmasi yordamida inglizcha gaplarni rus tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirildi (I.K.Belskaya, L.N.Korolev, S.N.Razumovskiy kabilar). Shundan keyin jahonning Angliya, Fransiya, Avstriya kabi ko'pgina mamlakatlarida olimlar mashina tarjimasi muammolari bilan maxsus shug'ullana boshladilar. Natijada tilshunos olimlar ma'lum bir tilni tipologik jihatdan tasniflash, uning materiallarini analisis va sintez qilish, mashina tiliga o'tkazish bilan shug'ullandilar va muayan natijalarga erishdilar. Bunday muammolarni lingvistik tadqiqotlarni avtomatlashtirish orqali hal etish mumkin. Bu masalaga doir tilshunoslarning maxsus ilmiy anjumanlari o'tkazilgan. Masalan, 1962-yilda Kembridj shahrida jahon tilshunoslarining 1X-kongressi o'tkazildi. Bu anjumanda struktural tilshunoslik (ST) va ML muammolarini muhokama qilishga alohida o'rin ajratilgan edi. 1967-yilda Buxarest shahrida jahon tilshunoslarining X- kongressi o'tkazilib, bunda ham ML va MT muammolari maxsus muhokama qilindi. 1960 yilda Parij shahrida xalqaro kongress o'tkazilib, bunda maxsus algoritmik til – ALGOL joriy etilgan edi. Bu algoritmik til hozirgi kunga qadar EHMga matnlarni kiritish, ularni dasturlash uchun xizmat qilib kelmoqda. 1996-yil 20-21-mayda Samarqand shahrida sohibqiron Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlangan "Injenerlik tilshunosligi va til o'qitish jarayonini kompyuterlashtirish" muammolariga doir 2- xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Bu anjumanni akad.R.G.Puotrovskiy " Injenerlik tilshunosligi va mustaqil davlatlarda informatsion industriyaning tiklanishi" mavzuidagi ma'ruzasi bilan boshlab berdi. Shuningdek, bu anjumanda "Turkiy tillar mashina fondining dolzarb masalalari", "Injenerlik tilshunosligi va lug'atshunoslik", "Nutq sistemasi va uning unsurlarini kompyuter yordamida andozalash" singari o'ttizdan qiziqarli ma'ruzalar tinglandi hamda muhokama qilindi. Bu anjuman materiallari alohida to'plam shaklida nashr etilgan. XX asrning 80-yillaridan boshlab til o'qitishni avtomatlashtirish va unga kompyuterni joriy etish muammolariga qiziqish kuchaydi. 1988-yilda R.G.Piotrovskiyning "Chet tilini o'qitishda kompyuterlashtirish masalalari" nomli asari nashr etilgan edi 1 . Bu asar "Kirish" va "Xulosa"dan tashqari besh bobni o'z

ichiga oladi. Asar boblarining nomlanishi quyidagicha: 1. Tabiiy til va uning didaktik modrli (4-15-betlar), 1. Inson miyasi va kompyuter “miyasi” (15-24-betlar), 3. Kompyuter yordamida lingvodidaktik masalalarni yechishning tamoyillari (24-44-betlar), 4. Nutqiy va til materialini tanlash hamda tillarni o‘qitishni optimizatsiyalash (44- 1 1 Пиотровский Р.Г. Компьютеризация преподавания языков (учебное пособие по спецкурсу). – Л.: 1988. – С. 3-75.

Kommunikativ lingvistika. XX asr tilshunosligi tilning bevosita harakatdagi birliklarini, undagi o‘zgarishlarni o‘rganish bilan shug‘ullana boshladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik aspektda olib boriladi. Bu aspekt tilning rivojlanishini, taraqqiyotini kishilar hayoti, ularning nutqiy faoliyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishni etakchi maqsad qilib oladi. Bu esa tilshunoslikda lingvistik-pragmatika matn (kontekst) tilshunosligi singari yangi sohalarning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo‘ldi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta mavqega ega bo‘lgan kommunikativ tilshunoslik o‘z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

Matn tilshunosligi.

Sotsiolingvistika.

Psixolingvistika.

Lingvistik pragmatika.

Matn tilshunosligi. XX asr boshlariga kelib tilshunos olimlar tilda tovush, so‘z, so‘z birikmasi va gapdan ham yirik birliklar borligini aniqladilar. Bunday yirik til birliklari qatoriga sintaktik butunlik, abzats (xatboshi), diskurs va matn (kontekst) kiradi. Bunday yirik til birliklariga hozirgi tilshunoslikda turlicha ta‘rif berilmoqda. Bunday turlicha ta‘riflar zahirida bir bosh mavzu asosida bog‘langan gap yoki gaplar yig‘indisi degan ma‘no yotadi.

Matn tilning eng katta birligi sanaladi. Matnni tilning birligi sifatida tadqiq etish

rus tilshunosligida 30-yillardayoq boshlangan edi. Bu o'rinda A.M. Peshkovskiyning "Rus tili sintaksisi" (1934), V.V. Vinogradovning "Badiiy nasriy matn haqida" (1930), L.A. Bulaxovskiyning "Rus adabiy tili kursi" (1952) kabi asarlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Chunki xuddi ana shu tadqiqotlar uning muallifi o'ziga xos lisoniy xususiyatlari singari muammolarni o'rganishni boshlab berdi.

Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha ta'riflar berilmoqda. Masalan, tilshunos olim P.Gironing fikricha, matn o'zaro bog'langan birliklar butunligi bo'lib, bu butunlikni tashkil etuvchi belgilar, ishoralar uslubiy taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib yagona sistemani tashkil etadi.

Matnga aniq, to'g'ri ta'rif berish uchun uning xususiyatlarini belgilash lozim. Tilshunos S.Todorovning aniqlashiga ko'ra har qanday matn uch xususiyatga ega: a) jarayon, b) sintaksis xususiyat, c) semantik xususiyat. Matn aniq gaplardan tashkil topadi, bu esa matnning jarayon ekanini isbotlaydi. Matnning sintaktik xususiyati deyilganda matnni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi o'zaro bog'lanish tushuniladi. Matnning semantikasi esa uning mazmunini o'zida ifoda etadi. Demak, matn ma'lum sistema asosida tuzilgan, o'z mazmuniga (semantikasiga) ega bo'lgan, tugallangan nutqiy faoliyat mahsulidir.

Matn tilshunosligida matn mazmuni va matn ma'nosi atamalari o'zaro farqlanadi. Ma'lum bir matndan o'rin olgan ma'lumot yoki axborot matnning mazmunidir. Matnning ma'nosi esa matn birliklari (gap, sintaktik butunlik, abzats)ga xos axborotdir. Matnning mazmuni unda ifodalanayotgan axborotning uzil-kesil yakunlanganligi bilan bog'liqdir. Matn ma'nosi esa tugal fikr anglatga ham o'sha fikrning yana davom etishini taqozo etadi. Bundan ko'rinadiki, gap va matn o'rtasidagi asosiy farq yakunlanganlikning mutlaqligida, tugallanganlikning esa nisbiyligidadir.

Matn o'ziga xos grammatik kategoriyaga ega: a) ma'lumot (axborot) kategoriyasi tabiat, voqea-hodisa, ish-harakat kabilarni ifoda qilish, ular yuzasidan u yoki bu darajada fikr yuritishni anglatadi; b) integratsiya kategoriyasi – bu kategoriya matn birliklari orasidagi uzviylik, bog'liqlik, aloqadorlik kabi munosabatlarni ko'rsatadi;

c) retrospeksiya kategoriyasi – bu kategoriya matn orqali ma'lum qilinayotgan voqea-hodisani ketma-ket, izchil hikoya qilish orqali ro'yobga chiqadi.

Matn nutqiy faoliyatning bir butun mahsulidir. Uni ana shunday mahsulot ekanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kategoriya matn tilshunosligida integratsiya (lot. "to'ldirmoq") kategoriyasi deb yuritiladi. Umuman integratsiya kategoriyasi matnning yakunlanishi bilan bog'liq kategoriya sifatida ko'rinadi.

Uzil-kesil, tugal fikr anglatish matnning asosiy xususiyatidir. Har qanday matn (u yozma bo'ladimi, og'zaki bo'ladimi, qat'iy nazar) fikrlar yig'indisi bo'lib, o'zaro uzviy bog'langan mulohazalarni o'z ichiga oladi. Matnning chegarasini uni yaratuvchi shaxs (yozuvchi yoki bayon qiluvchi) belgilaydi, xolos.

O'z oldiga qo'ygan amaliy maqsadiga ko'ra matn bir necha turlarga bo'linadi: yozma matnlar, og'zaki matnlar. Bu matn turlari o'z navbatida yana bir necha kichik guruhlariga, turlarga ajraladi. Masalan, og'zaki matnlar quyidagi turlarga bo'linadi: a) dialogik matnlar (suhbatlar), b) folklor (xalq og'zaki ijodi) matnlari, c) ovozarlar (mish-mishlar). Matnlarning har bir turi o'ziga xos xususiyati bilan, tarkibi va mazmuni bilan boshqa tur matnlardan ajralib turadi. Masalan, ertak, topishmoq, maqol, terma singari matnlar folklor namunalari bo'lsa-da, bir-biridan farqlovchi xususiyatlarga ega.

Yozma matnlar tarkibiga kiruvchi monografiya, ilmiy maqola, ilmiy-ommabop maqola, taqriz, muammoviy maqola, risola singarilar turli farqlanuvchi belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, ilmiy maqola muayyan masala jihatida avval ma'lum bo'lgan fikrlar muhokamasi bilan keyin muallifning shu masalaga oid yangi ilmiy qarashi bayon qilinadi hamda bu qarashlarning amaliy qo'llanishiga oid tavsiyalar beriladi, shu bilan ilmiy maqola matni yakunlanadi.

Matn tarkibi uch qismga bo'linadi: a) ifoda qobig'i, b) matn mazmuni (semantikasi), c) matn grammatikasi.

Matnning butunligini, yaxlitligini ta'minlab turuvchi narsa uning asosida yotgan asosiy g'oyadir. Bu g'oyani matn tilshunosligida makrotema deb ataydilar. Makrotemalar o'z navbatida bir qancha mikrotemalardan tashkil topgan bo'ladi. Mikrotemalar matnning asosiy g'oyasi, ya'ni makrotema orqali bir-biri bilan

o'zaro bog'langan bo'ladi. Har qanday yangi gap matn tarkibida oldingi gapni to'ldirib keladi va o'z navbatida yangi gapning tuzilishiga zamin hozirlaydi. Matn tarkibida gaplar ana shu tarzda zanjirsimon bir-biri bilan bog'lanib ketaveradi.

Matnni tashkil etuvchilar orasidagi bog'lanishda gapning aktual bo'linishi imkoniyatlari muhim o'rin tutadi. Bu nazariyaga ko'ra, har qanday gap ikki qismga bo'linadi: a) eski axborot qismi – tema; b) yangi axborot qismi – rema. Yangi gapni matn tarkibida shakllantirishdan maqsad remani ifodalashdir. Gap esa faqat remadan tashkil topmaydi, ya'ni uning tarkibida tema ham bo'lishi kerak, chunki shu gap o'z temasi (eski axboroti) bilan oldingi gap yoki gaplar sistemasi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, matn tarkibida gaplar ichida temalar va remalarning ana shunday almashinib kelishi matnning yaxlitligini, butunligini, o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi.

Har qanday matnning yaratilishi ma'lum bir amaliy maqsadlarni ko'zda tutadi. Matnlar maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan matnlarni quyidagi to'rt turga ajratish mumkin: a) og'zaki matnlar, b) yozma (qo'lyozma), c) bosma matnlar, d) ommaviy muloqotga xos matnlar. Bu matnlarning har biri o'z navbatida bir qancha mayda turlarga bo'linadi. Masalan, og'zaki matn: monolog, dialog (suhbat), ovozarlar (mish-mish), folklor singari turlardan iborat.

Bosma matnlar qo'lyozma matnlarning mukammal ko'rinishi bo'lib, ular o'z navbatida adabiy matnlar va ilmiy matnlarga bo'linadi. Adabiy matnlarga badiiy asarlar kiradi, ilmiy matnlarning ham turlari xilma-xildir.

Ommaviy muloqot vositalari matn turlarining to'rtinchi ko'rinishidir. Bu matn vositalarining omma orasiga etib kelishida texnika vositalari (radio, televidenie, kino)ning roli beqiyos. Bu matnlar bir marta e'lon qilinadi, qayta tiklanadigan bo'lsa, unga qo'shimcha axborot ham qo'shilishi lozim. Bunday matnlar so'nggi yangiliklarni ommaga taqdim etadi (gazeta, jurnal, radio, televideniyeda beriladigan asarlar).

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning izohi
lingvopoetika	ЛИНГВОПОЭ-ТИКА	linguapoetics	lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalari , tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi
psixolingvistika	ПСИХОЛИНГ-ВИСТИКА	psycholinguis-tics	insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayonini o'rganuvchi yo'nalishi
etnolingvistika	ЭТНОЛИНГ-ВИСТИКА	ethnolinguis-tics	grekcha "etnos" - xalq, qabila so'zlaridan olingan bo'lib, til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat , etnopsixologik omillarni o'rganish
matematik lingvistika	математи-ческая ЛИНГВИСТИКА	mathematical linguistics	til birliklarini matematik tavsiflash usullarini ishlab chiqish va o'rganish bilan shug'ullanadigan fan
sotsiolingvisti-ka	СОЦИОЛИНГ-ВИСТИКА	sociolinguis-tics	tilshunoslikning tilning ijtimoiy mohiyati va vazifasi , tilga sotsial omillarning ta'siri kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi yo'nalishi
neyrolingvisti-ka	НЕЙРОЛИНГ-ВИСТИКА	neurolinguis-tics	nutqiy faoliyatni bosh miya mahsuli sifatida o'rganuvchi tarmog'i

Mavzuga oid savollar:

1. Psixolingvistika nima va uning asosiy tadqiqot sohasi qanday?
2. Til o'rganish jarayonida psixolingvistikaning roli qanday?
3. Bolalar tilini o'rganishda psixolingvistikaning qanday nazariyalari mavjud?
4. Til ishlab chiqarish (speech production) va til tushunish (speech comprehension) qanday jarayonlardan iborat?
5. Afaziya va uning psixolingvistik tadqiqotdagi ahamiyati qanday?
6. Chomskyning "Universal Grammar" nazariyasi psixolingvistika bilan qanday bog'liq?

7. Bilim olish va bilingvizm psixolingvistika nuqtayi nazaridan qanday izohlanadi?
8. Ichki nutq (inner speech) va tashqi nutqning (external speech) farqlari qanday?
9. So‘z biriktirish (word association) testlari til psixologiyasida qanday ishlatiladi?
10. Emotsiyalar tilga qanday ta’sir qiladi va bu psixolingvistika tomonidan qanday o‘rganiladi?
11. Psixolingvistika nima va uning asosiy tadqiqot sohasi qanday?
12. Til o‘rganish jarayonida psixolingvistikaning roli qanday?
13. Bolalar tilini o‘rganishda psixolingvistikaning qanday nazariyalari mavjud?
14. Til ishlab chiqarish (speech production) va til tushunish (speech comprehension) qanday jarayonlardan iborat?
15. Afaziya va uning psixolingvistik tadqiqotdagi ahamiyati qanday?
16. Chomskyning “Universal Grammar” nazariyasi psixolingvistika bilan qanday bog‘liq?
17. Bilim olish va bilingvizm psixolingvistika nuqtayi nazaridan qanday izohlanadi?
18. Ichki nutq (inner speech) va tashqi nutqning (external speech) farqlari qanday?
19. So‘z biriktirish (word association) testlari til psixologiyasida qanday ishlatiladi?
20. Emotsiyalar tilga qanday ta’sir qiladi va bu psixolingvistika tomonidan qanday o‘rganiladi?
21. Psixolingvistika nima va uning asosiy tadqiqot sohasi qanday?
22. Til o‘rganish jarayonida psixolingvistikaning roli qanday?
23. Bolalar tilini o‘rganishda psixolingvistikaning qanday nazariyalari mavjud?
24. Til ishlab chiqarish (speech production) va til tushunish (speech comprehension) qanday jarayonlardan iborat?
25. Afaziya va uning psixolingvistik tadqiqotdagi ahamiyati qanday?

- 26.Chomskyning “Universal Grammar” nazariyasi psixolingvistika bilan qanday bog‘liq?
- 27.Bilim olish va bilingvizm psixolingvistika nuqtayi nazaridan qanday izohlanadi?
- 28.Ichki nutq (inner speech) va tashqi nutqning (external speech) farqlari qanday?
- 29.So‘z biriktirish (word association) testlari til psixologiyasida qanday ishlatiladi?
- 30.Emotsiyalar tilga qanday ta’sir qiladi va bu psixolingvistika tomonidan qanday o‘rganiladi?
- 31.Psixolingvistika nima va uning asosiy tadqiqot sohasi qanday?
- 32.Til o‘rganish jarayonida psixolingvistikaning roli qanday?
- 33.Bolalar tilini o‘rganishda psixolingvistikaning qanday nazariyalari mavjud?
- 34.Til ishlab chiqarish (speech production) va til tushunish (speech comprehension) qanday jarayonlardan iborat?
- 35.Afaziya va uning psixolingvistik tadqiqotdagi ahamiyati qanday?
- 36.Chomskyning “Universal Grammar” nazariyasi psixolingvistika bilan qanday bog‘liq?
- 37.Bilim olish va bilingvizm psixolingvistika nuqtayi nazaridan qanday izohlanadi?
- 38.Ichki nutq (inner speech) va tashqi nutqning (external speech) farqlari qanday?
- 39.So‘z biriktirish (word association) testlari til psixologiyasida qanday ishlatiladi?
- 40.Emotsiyalar tilga qanday ta’sir qiladi va bu psixolingvistika tomonidan qanday o‘rganiladi?
- 41.Psixolingvistika nima va uning asosiy tadqiqot sohasi qanday?
- 42.Til o‘rganish jarayonida psixolingvistikaning roli qanday?
- 43.Bolalar tilini o‘rganishda psixolingvistikaning qanday nazariyalari mavjud?

44. Til ishlab chiqarish (speech production) va til tushunish (speech comprehension) qanday jarayonlardan iborat?
45. Afaziya va uning psixolingvistik tadqiqotdagi ahamiyati qanday?
46. Chomskyning “Universal Grammar” nazariyasi psixolingvistika bilan qanday bog‘liq?
47. Bilim olish va bilingvizm psixolingvistika nuqtayi nazaridan qanday izohlanadi?
48. Ichki nutq (inner speech) va tashqi nutqning (external speech) farqlari qanday?
49. So‘z biriktirish (word association) testlari til psixologiyasida qanday ishlatiladi?
50. Emotsiyalar tilga qanday ta’sir qiladi va bu psixolingvistika tomonidan qanday o‘rganiladi?

4-MAVZU: KORPUS TILSHUNOSLIGI

1. Zamonaviy tilshunoslikda terminologiyaning o‘rni
2. Korpus nima?
3. Sinxron va diaxron korpuslar

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. **Korpus tilshunosligi** – til birliklarini raqamlashtirilgan matnlar to‘plami asosida o‘rganish.
2. **Til korpusi** – kompyuterda saqlanadigan va lingvistik tahlil uchun ishlatiladigan katta hajmdagi matnlar to‘plami.
3. **Belgilangan korpus (annotatsiyalangan korpus)** – lingvistik xususiyatlari qo‘lda yoki avtomatik ravishda belgilangan korpus.
4. **Lemmizatsiya** – so‘zning lug‘aviy shakliga (asl shakliga) keltirish jarayoni.
5. **Teglash (tagging)** – so‘zlarning morfologik va sintaktik belgilari bilan belgilash.
6. **Korpus tahlili** – matnlardagi til birliklarini statistik va kompyuter usullari bilan o‘rganish.

7. **Frekventsiya tahlili** – soʻzlarning korpusdagi takrorlanish chastotasi boʻyicha tahlil.
8. **Kollokatsiya** – matnda tez-tez uchraydigan soʻz birikmalari.
9. **N-gramma** – ketma-ket keluvchi n ta birlikdan iborat til elementlari (masalan, 2-gramma: "yaxshi odam").
10. **Konkordansiya** – soʻzlarning kontekstdagi paydo boʻlish holatlarini koʻrsatish

Kompyuter texnologiyalari va til rivojlanib borgan sari tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalari oldida yana bir global muammo – tabiiy tillarning milliy xususiyatlarini saqlab qolish, milliy til korpusini yaratish, rivojlantirish, til va til dasturlariga oid texnologiyalarni, ilmiy tadqiqotlarni izchil olib borish yuqori darajaga olib chiqish vazifasi paydo boʻladi. Korpus tilshunosligida olib borilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar, shakllantirilgan koʻnikmalar nafaqat tilshunoslik sohasi uchun balki millat taraqqiyoti uchun ham zarur. Dunyoda hukm surgani kabi bizda ham milliy til korpusini yaratish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan masalalardan biridir. Quyida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish choratadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-sonidan keltirilgan iqtibos til korpusini yaratishga boʻlgan eʼtiborning muhimligini koʻrsatadi: “Xususan, oʻzbek tilini jamiyat hayotida hamda xalqaro miqyosda obroʻ-eʼtiborini oshirish maqsadida, oʻzbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy maʼlumotlarni oʻzida jamlagan elektron koʻrinishdagi oʻzbek tili milliy korpusini yaratish, oʻzbek tilini - internet jahon axborot tarmogʻida ommalashtirish, unda munosib oʻrin egallashini taʼminlash, dasturiy mahsulotlarning oʻzbekcha ilovalarini yaratish, oʻzbek tilini oʻrgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish, oʻzbek tilidagi matnlar tahririga moʻljallangan kompyuter dasturlarini yaratish ishlari tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalar etib belgilab olindi”. Milliy korpus milliy til xazinasidir. Undan lingvist, leksikograf, kompyuter lingvistlari, dasturchi, muharrir, tarjimon, jurnalist, noshirlar, olim, oʻqituvchi, taʼlim

oluvchilar va boshqa har qanday soha mutaxassisi keng foydalanadi. Tilshunoslikda korpus lingvistikasining o'rnini tahlil qilishdan oldin kompyuter lingvistikasi qanday vazifalarga javob berishini, uning tarixi va milliy tilshunosligimizdagi o'rnini ko'rib chiqsak. Korpus lingvistikasi – tilshunoslikda nisbatan yangi, biroq tez rivojlanib borayotgan bir soha sifatida e'tirof etilgan. Ushbu soha tildagi lug'aviy birliklar va ularning ishlatilishi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, saralash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bunda til materiallari katta miqdordagi elektron korpuslar shaklida o'rganiladi. Korpus lingvistikasining so'nggi yillardagi o'sishi, kompyuter texnologiyalari va ma'lumotlar bazalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Korpus bu ifodalash uchun tizimli ravishda to'planagan matnlar yoki tarjima qilingan nutqlar to'plami lingvistik tahlili uchun asos bo'lib xizmat qiladigan muayyan bir tilning funksiyasi va tavsifidir. Korpus lingvistikasi asosan strukturani ifodolovchi manbaadir. Shuningdek, turli til dasturlarida, ilovalarida, informatika fanida qayta ishlash, til o'rgatish va til ta'limini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Korpus lingvistikasi – o'z materiallarini o'zi yaratadi, aniqrog'i, uni o'zi mustaqil ravishda yaratadi. Kompyuter tilshunosligi esa korpus tilshunosligi uchun vositalarni ya'ni tilshunoslikka doir daturlarni yaratib beradi. Korpus lingvistikasi tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, empirik yondashuvni qo'llaydi va real til foydalanish holatlariga suyanadi. Bu sohaga oid ilk ishlar 20-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan bo'lib, to'liq ravishda kompyuterlashtirilgan tekstlar bazasidan foydalanishni o'z ichiga olgan. Shu tarzda, til haqidagi o'rganishlar chindan ham ko'lam va aniqlik jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan. Korpuslar turli xil til materiallaridan ta'lim, adabiyot, axborot texnologiyalari va boshqa ko'plab sohalar uchun yig'ilgan matnlar to'plami hisoblanadi. Ularning tuzilishi va hajmi turlicha bo'lishi mumkin, boshqariladigan va boshqarilmaydigan korpuslarga ajratiladi. Boshqarilgan korpuslarda matnlar qat'iy mezonlar asosida tanlab olinadi, bu esa o'rganilayotgan til birliklarining xilma-xilligini va ishlatilish chastotasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Korpus lingvistikasi o'rganilishi til o'rganish, tarjima, leksikografiya, til modellashtirish va sintaktik tahlil kabi turli xil sohalarda

qo'llaniladi. Til o'qitishda asosiy til materiallarini to'plash va o'quvchilarga sunish maqsadida ham korpuslar keng qo'llanilmoqda. Tarjima va leksikografiya korpuslar leksik ma'lumotlarni tahlil qilish va til birliklarining turli kontekstlardagi ishlatilishini o'rgatishda asosiy vositadir. Amaliy tadqiqotlar doirasida esa korpus lingvistikasi, ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlarni process qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, so'z birikmalarining korpus asosida tahlili, tilshunoslikdagi "big data" tahlillari, va til o'rganishda yuzaga keladigan tendentsiyalarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Korpus lingvistikasi keng jabhalarda qo'llaniladi. Korpus lingvistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Til materiallarini yig'ish va tizimlashtirish: tilning yozma va og'zaki shakllaridan foydalaniladigan keng qamrovli matnlar to'plamini shakllantirish, ularni yirik bir bazaga jamlash. 2. Til birliklarini va ular orasidagi muvofiqlikni o'rganish: so'zlar, qo'shimchalar, iboralar va jumla tuzilishlari kabi til birliklarining turlli kontekstlarda qanday ishlatilishini kuzatish va tahlil qilish. 3. Tilning ishlatilish chastotasini tahlil qilish: so'zlar va iboralar ishlatilishining chastotasi va tarqalishini statistik jihatdan o'rganish, tadqiq qilish. 4. Tilning tabiiylik darajasini o'rganish: tilning haqiqiy hayotda qanday ishlatilishini kuzatib, sun'iy til namunalari va tilning tabiiy ishlatilishini solishtirish. 5. Til qonuniyatlarini aniqlash: til tuzilishidagi takroriy qonuniyatlar va andozalarni aniqlash hamda ularning lingvistik tahlili. 6. Lingvistik nazariyalarni sinovdan o'tkazish: lingvistik nazariyalar va qoidalar haqiqiy til materiallari yordamida sinovdan o'tkazilishi, ularning talabga javob berish yoki bermasligi. 7. Til tarixini va o'zgarishlarini kuzatib borish: har xil davrlardagi yoki mintaqalardagi lingvistik korpuslar orqali tilning rivojlanishi va o'zgarish jarayonlarini tahlil qilish, muammoli jihatlarini aniqlash, ularga yechim topish. 8. Leksikografiya va so'zlar chiqarish: lug'atlar va ma'lumotnomalar uchun ma'lumot to'plash, lug'at bazasini tashkil etish, til bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun ishonchli manbalarni yaratish. 9. Til o'qitishda qo'llab-quvvatlash: asosiy til materiallarini to'plash va o'qitish materiallari sifatida foydalanish, til ta'limini osonlashtirish. 10. Texnik tarjima va til texnologiyalarida qo'llash: texnik tarjima va avtomatlashtirilgan til tahlil qilish dasturlarining

ishlanishida asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida foydalanish. Korpus lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'lib, til tadqiqotlarida keng foydalaniladigan bir metodologiyadir. Korpus lingvistikasining zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati juda katta va ko'p qirralidir. Ushbu soha tilni real ishlatilish sharoitlarida tahlil qilish imkonini beruvchi keng qamrovli ma'lumotlar to'plamini taqdim etish bilan muhim o'rin tutadi. Korpus lingvistikasi tilshunoslikka haqiqiy til foydalanish holatlarini empirik tarzda tahlil qilish imkonini berib, nazariy qarashlarni amaliy dalillar bilan mustahkamlashga yordam beradi. Til birliklari va tuzilmalari ishlatilishining aniqligini va chastotasini o'rganish esa leksik va grammatik tadqiqotlarni aniq ma'lumotlar asosida bajarish imkonini beradi.

Korpus lingvistikasi lingvistik nazariyalar va grammatik qonuniyatlar haqiqatdan kelib chiqqan holda tekshirilishini, shuningdek yangi nazariyalar yaratilishini ta'minlaydi. Tilning tarixiy o'zgarishlarini va variantlarini kuzatib borish uchun korpus lingvistikasi katta hajmdagi diakronik ma'lumotlar to'plamini taqdim etadi. Lingvistika bilan bog'liq bo'lgan boshqa fan sohalarida, masalan sotsiolingvistika, psixolingvistika, va forensik lingvistika kabi sohalarda korpus lingvistikasidan foydalanish, tilga oid murakkab savollar bo'yicha yanada chuqurroq tushuncha beradi. Korpus lingvistikasi kompyuterga asoslangan til texnologiyalari, masalan, so'z tanish, nutqni tanib olish, avtomatlashtirilgan tarjima dasturlari va nutqni tahlil qilish algoritmlarini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikda korpuslingvistikasi yondashuvlari yangi tilshunoslik metodologiyalarining rivojlanishiga olib keladi, bu esa tilshunoslik tadqiqotlarini yanada pragmatik va natijaga yo'naltirilgan qiladi. Xulosa qilib aytganda, korpus lingvistikasi tilning haqiqiy ishlatilishini tahlil qilish, tilshunoslik nazariyalarini amaliyot bilan bog'lash, hamda tilshunoslikka qo'shimcha aniqlik va chuqurlik kiritish orqali zamonaviy tilshunoslikni boyitishda muhim rol o'ynaydi. Korpus lingvistikasi bir qator zamonaviy til texnologiyalarini rivojlantirishda asosiy yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu texnologiyalar tilni qayta ishlash va uning turli dasturiy mahsulotlarda qo'llanilishini

optimallashtirishga yordam beradi. Korpus lingvistikasi bilan bog'liq til texnologiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi. So'z tanib olish sistemalari: NLP dasturlari, masalan, matn muharriridagi imlo tekshirishdan tortib, qidiruv tizimlarigacha so'zlarni va ularning ishlatilishini tanib olishda korpus lingvistikasini qo'llaydi. Sun'iy intellektga asoslangan algoritmlar, masalan, so'zlar va so'z birikmalarining ma'nolarini tushunishda va tilni tabiiy ishlatilishini model qilishda ham til korpuslari katta miqdordagi o'rganish materiali sifatida qo'llaniladi. Korpus lingvistikasi katta hajmdagi ikki til o'rtasidagi tarjimalar to'plamini taqdim etadi, bu mashinani tarjima qilish algoritmlarini o'qitish va takomillashtirishda ishlatiladi. Nutqni tanib olish tizimlari va virtual assistentlar nutqning fonetik va intonatsion xususiyatlarini tushunish uchun keng hajmdagi nutq korpuslaridan foydalanadilar. Til o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan dasturlar esa real til materiallarini korpuslardan olib, tildan interaktiv tarzda o'qitishni amalga oshiradilar. Korpus lingvistikasi yuqoridagi va boshqa ko'plab texnologiyalarni takomillashtirishda fundamental ma'lumotlar bazasi sifatida xizmat qilib, ularning samaradorligini va aniqligini oshiradi, shuningdek yangi tilshunoslik texnologiyalarining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Tilshunoslikda korpus lingvistikasi sohasi, tilning amaliy ishlanilishi va tilning foydalanishiga oid ma'lumotlar bazasi (korpus) yordamida izlanishi va tahlili bilan shug'ullanadi. Bu soha, korpuslardan olgan ma'lumotlar orqali tilning o'zining qonuniyligi, grammatikasi, leksikasi, va tilning aholi tomonidan foydalanilishi haqida muammosiz va yaxshi ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi. Tilshunoslikda korpus lingvistikasi sohasi o'rganilish holati o'zaro aloqalarni yoyish, tilning amaliy foydalanilishini tushunish va boshqalar kabi ko'plab jihatlarida o'rganishni talab qiladi. Xulosa qilsak, korpus lingvistikasi yukoridagi va boshqa ko'plab texnologiyalarni takomillashtirishda fundamental ma'lumotlar bazasi sifatida xizmat qilib, ularning samaradorligini va aniqligini oshiradi, shuningdek yangi tilshunoslik texnologiyalarining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Hozirda amalga tadqiqotlar samarasi o'laroq yaqin kelajakda til korpusiga doir muammolarni hal qilish va milliy til korpusimizga ega bo'lishimiz kutilmoqda.

Korpus katta hajmli va tizimga solingan matnlar to‘plamidan iborat til manbasi hisoblanadi. Korpus tilshunosligida ular ma’lum bir til doirasida yoki tilning ma’lum bo‘limida statistik tahlillarni amalga oshirish, qarashlarni, tildagi hodisalar yoki nazariy qoidalarni tekshirish uchun foydalaniladi.

Korpus bir til yoki bir necha tildagi matnli ma’lumotlardan iborat bo‘lishi mumkin. Korpus deganda, odatda, **matnli korpus** tushunchasi anglanadi, lekin hozirgi kunda korpuslar faqatgina matnlardan iborat bo‘lmay qoldi. Shuning uchun korpus so‘zi o‘rniga matnli korpus tushunchasini ishlatamiz. Tilga oid tadqiqotlarni olib borishni yanada samaraliroq qilish uchun korpuslar **annotatsiyalanadi** (Bu haqida keyingi bildirgilarda to‘liqroq shaklda yozamiz). Masalan, korpusni annotatsiyalashning bir turi bu so‘zlarni **teglash** hisoblanadi (POS-tagging). Bunda so‘zning turkumi va shu turkum kategoriyalari asosida teglab chiqish tushuniladi. Ya’ni *kitoblarga* so‘zi quyidagi ma’lumotlarni tashiydi: *ot, ko‘plik, jo‘nalish kelishigi*. Ayni mana shu ma’lumotlar teglar orqali so‘zga biriktirib chiqiladi. Annotatsiyalashning yana bir ko‘rinishi **o‘zaklash** (lemmatizatsiya) bo‘lib, u so‘zning tayanch shaklini ko‘rsatib berish hisoblanadi. Masalan, *kitoblar, kitobning, kitobga* so‘zi uchta shaklda turibdi lekin ularning asosi bir xil – *kitob*. Ana shu lemmatizatsiya (o‘zaklash) deb ataladi. Bu yerda asos hamda o‘zak tushunchalarini adashtirib yubormaslik kerak.

Masalan, *bostirma* so‘zi *bostir+ma* shaklida yasalgan, lekin uni o‘zaklashda *bostir* so‘zini lemma deb qaray olmaymiz, *bostirma* yagona so‘z hisoblanadi. Agar, *bostirmada, bostirmaga, bostirmaning* so‘zlarini o‘zaklash kerak bo‘lsa unda *bostirma* so‘zini olishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Sodda qilib aytganda, lemma so‘zning shakl yasovchi qo‘shimchalari tushirib qoldirildigan qismi hisoblanadi.

Korpus nima uchun kerakligini bilib oldik. Tilshunoslikka oid turli tadqiqotlarni samarali amalga oshirish uchun. Lekin bu qanday qilinadi? Masalan, sizga *2019-yilda yozilgan matnlar ichidan ot turkumiga mansub, ko‘plik qo‘shimchasini olgan, rasmiy uslubda qo‘llangan so‘zlar va ularning chastotasi*

bo'yicha saralangan ro'yxati kerak. Korpusning qidiruv sohasiga ayni shu ma'lumotlarni kiritasiz va korpus dasturi sizga bir necha soniyalar ichida bu so'rovga mos keluvchi ma'lumotlarni ko'rsatib beradi. Bu korpus bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan eng oddiy statistik tahlil ishi hisoblanadi.

Korpusda tilning hamma sohasiga oid ma'lumotlar saqlangani, doimiy qayta ishlab turish imkoniyatiga egaligi, aniq berilgan so'rovlarga aniq javoblarni juda tez muddatda olish imkoni mavjudligi bilan tilshunos va boshqa turli soha vakillarining tadqiqot ishlarini tezlatib, sifatini oshirib beradi.

Korpusdan lug'atshunoslikda ham keng foydalansa bo'ladi. Masalan, bizga *ikki xil so'z turkumida kela oladigan so'zni lug'atga kiritish topshirildi*, qoidaga ko'ra lug'atga eng ko'p ishlatiladigan shakl birinchi yozilishi kerak. Biz shu so'zni qidiruv sohasiga kiritamiz va turkumlar bo'yicha saralaymiz. Qarabsizki, aniq manba asosida aniq xulosa kelib chiqadi. ***Hech qanday ichki intuitsiyalarga berilishga hojat qolmaydi.***

Korpusning yana bir qulayligi unda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanib kela olish qobiliyatini ham kuzatish mumkin. Buning uchun korpusga biror so'zni kiritib shu so'z oldidan keladigan 3ta, ortidan keladigan 3ta so'zni ham qo'shib chiqarishi kerakligi haqida so'rovni yuboramiz. Biz kiritgan so'zimizning oldidan va ortidan keladigan 3tadan so'zni chastota bo'yicha saralangan ko'rinishini olamiz. Sodda qilib aytganda, korpus tilshunoslikning istalgan sohasida tadqiqotlarni olib borishning sifatli va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Mavzuga doir savollar:

1. Corpus lingvistikasi nima va uning asosiy maqsadi nima?
2. Korpus va an'anaviy lingvistik tadqiqot o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
3. Korpus turlarini sanang va ularning xususiyatlarini tushuntiring.
4. Sinkron va diakron korpuslar o'rtasidagi farq nimada?
5. Anotatsiyalangan va anotatsiyalanmagan korpuslarning farqlari qanday?

6. Korpus yaratish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
7. Korpusning o'lchami va muvozanatlanganligi (balance) nimani anglatadi?
8. Annotatsiya va belgilash (tagging) nima? U qanday ahamiyatga ega?
9. Lemmalar va stemming usullari korpus tahlilida qanday qo'llaniladi?
10. Korpus to'plashda foydalaniladigan asosiy manbalar qanday?
11. Konkordansiya nima va u qanday ishlaydi?
12. N-gram tahlili nima va u qanday ma'lumot beradi?
13. Korpus lingvistikasida kollokatsiyalar qanday aniqlanadi?
14. Frekans tahlili nima va u qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
15. Korpus asosida sintaktik va semantik tahlillar qanday amalga oshiriladi?
16. Corpus lingvistikasi tarjima va mashinaviy tarjimada qanday qo'llaniladi?
17. Korpus asosida til o'qitishda qanday materiallar ishlab chiqish mumkin?
18. Corpus lingvistikasi sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida qanday ahamiyatga ega?
19. Korpus lingvistikasi yordamida dialektologik tadqiqotlarni qanday amalga oshirish mumkin?
20. Korpus tahlili yordamida stilistika va mualliflik tahlili qanday amalga oshiriladi?

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қат’ият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

7. Ackoff, Russell L., Scientific Method. - New York: John Wiley & Sons, 1962.
8. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher. - Harcourt, Brace Publication: New York.
9. David L.Chiesa (Ed), U.Azizov, S.Xan, K.Nazamutdinova, K.Tangirova. Re-conceptualizing Language Teaching: An-In-service Teacher Education course in Uzbekistan. 237, (forthcoming)
10. Gardener H. (1993) Multiple Intelligences: The Theory and Practice. - New York: Basic Books.
12. Jack Richards and Theodore S. Rodgers (2001) Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge University Press
13. Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. – Cambridge University Press. 2001
14. Jan Bell, Roger Gower. Expert Advanced with my Lab pack (Student`s Course book, CD, Resource book, Teachers book). - UK: Pearson Longman Великобритания (United Kingdom), 2014.
15. Lynch, Tony. Communication in the language classroom. - XVI, 174 p.: fig. - Oxford; New York, 2001
16. Mike Boyle, Lindsay Warwick. Skillful 4 Reading & Writing. - UK: Macmillan Education. Великобритания (United Kingdom), 2013.
17. Michael McCarthy “English Vocabulary in Use”. - Cambridge University Press, 1999, Presented by British Council.
18. Patrick J. Schloss, Kristina M. Cragg. Organization and Administration in Higher Education 1st Edition. Routledge. Великобритания (United Kingdom), 2012.
19. Stanley Kubrick. A narrative and stylistic analysis. AN imprint of Greenwood Publishing Group, Inc. Великобритания (United Kingdom), 2001.
20. Stephen M. Alessi, Stanley R. Trollip. Multimedia for Learning: Methods and Development (3rd Edition). Pearson; 3 Edition (November 19, 2000), 580 pages, 2011.
21. Jack C. Richards, Willy A. Renandya. Methodology in Language Teaching: An anthology of current practice. - Cambridge university press. 2002.
22. Diane Larsen-Freeman, Marti Anderson. Techniques & Principles in Language Teaching (3rd edition). - Oxford University Press, 2011.
23. Mey J.L. Pragmatics. An Introduction. 2nd edition. –Oxford., Blackwell Publishing LTD, 2004
24. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006

- 25..Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent, VneshInvestProm, 2019
26. Maslova V.A. Lingvokulturologiya, -M., 2004, 2007
27. Karasik V. YAзыkovoy krug: lichnost, konsepty, diskurs. –M.: Gnozis, 2004
28. Kolshanskiy G.V. Ob'ektivnaya kartina mira v poznanii i yazyke. – M.: Nauka, 1990
29. Matveeva G.G., Lenets A.V., Petrova E.I. Osnovy pragmalingvistiki. M.: Flinta, Nauka, 2013.
30. Ashurova D.U. Proizvodnoe slovo v svete kommunikativnoy teorii yazyka. - Tashkent, 1991
31. Aznaurova E.S. Pragmatika xudojestvennogo slova. T., Fan, 1988
32. Maslova A.YU. Vvedenie v pragmalingvistiku. Uch. pos. M.: Flinta: Nauka, 2007. – 152 s.

IV. Elektron ta'lim resurslari

www.edu.uz.

www.aci.uz.

www.ictcouncil.gov.uz.

www.lib.bimm.uz

[www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)

www.sciencedirect.com

www.acs.org

www.nature.com